

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS  
TA`LIM VAZIRLIGI  
FARG`ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

*Qo`lyozma shaklida*  
*UDK: 93/99+94/99+39*

G`ulomov Elmurodjon Erkinjon o`g`li

**Qo`qon xonligi ijtimoiy-siyosiy hayotida qipchoq va  
qirg`izlarning tutgan o`rni**

5A 120301 - O`zbekiston tarixi  
Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

**D I S S E R T A T S I Y A**

**Ilmiy rahbar:** tarix fanlari nomzodi  
R.A.Arslonzoda,

Farg`ona - 2018

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	<b>3-8</b>
<b>I bob. Qo`qon xonligida qipchoq va qirg`izlarning tutgan o`rni: masalaning manbashunosligi va tarixshunosligi.....</b>	<b>9-32</b>
1.1. Manbalar tavsifi.....	9-16
1.2. Masalaning ilmiy jihatdan o`rganilishi.....	17-23
<b>II bob. Qipchoq va qirg`izlarning Qo`qon xonligi siyosiy hayotida tutgan mavqei.....</b>	<b>24-46</b>
2.1. Xonlikning siyosiy hayotida qipchoq va qirg`iz zodagonlarining roli.....	24-32
2.2. Qipchoq va qirg`izlar yashaydigan hududlarning ma`muriy boshqaruvi...33-46	
<b>III bob. Qo`qon xonligining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida qipchoq va qirg`izlarning o`rni.....</b>	<b>47-71</b>
3.1. Qipchoq va qirg`izlarning asosiy mashg`ulotlari.....	47-57
3.2. Qipchoq va qirg`izlarning ijtimoiy tarkibi.....	58-62
3.3. Soliqlar va majburiyatlar.....	63-71
<b>Xulosa.....</b>	<b>72-74</b>
<b>Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro`yxati.....</b>	<b>73-77</b>
<b>Ilovalar.....</b>	<b>78-88</b>

## Kirish

Bugungi kunda mamlakatimiz hududida sodir boʻlgan tarixiy voqea-hodisalarni oʻrganish kun tartibining dolzarb masalalaridan biridir. Mustabid sovet tuzumi davrida tariximizga yolgʻon va boʻhtonlar bilan yogʻdirilib, xalqimizning koʻp asrlik madaniyati, ushbu madaniyatning rivojlanishiga munosib oʻz hissalarini qoʻshgan ota-bobolarimizning tabarruk nomlari qoralangan edi. Mustaqilligimiz sharofati bilan yurtimizning qadimiy haqqoniy tarixini yoritish imkoniyati vujudga keldi, ajdodlarimizning tabarruk nomlari oqlandi. Shu oʻrinda taʼkidlash lozimki yurtimizning qadimiy tarixini yoritishda bevosita mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Abdugʻaniyevich Karimovning qoʻshgan hissasi diqqatga sazovordir. I.A.Karimovning “Tarixiy xotirasiz – kelajak yoʻq”, “Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch”, “Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”, “Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yoʻlida xizmat qilish eng oily saodatdir” kabi asarlarida yurtimizning boy tarixi, ota-bobolarimizning yurt obodonchiligi yoʻlida olib borgan ishlari toʻgʻrisida keng maʼlumotlar berib oʻtgan edi.

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi.** Qoʻqon xonligi ijtimoiy-siyosiy hayotida qirgʻiz va qipchoqlarning tutgan oʻrni masalasini oʻrganish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Qoʻqon xonligi Oʻzbekiston tarixida oʻz orniga ega boʻlgan davlatlardan biri hisoblanadi. Uning tarkibida boʻlgan qardosh xalqlarning manfaatini oʻzida aks ettirgan mamlakat hisoblangan. Xonlikda maʼlum bir davrlarda qirgʻizlar, boshqa bir davrlarda esa qipchoq qabilalari yuqori mavqega ega boʻlishga harakat qilishgan. Ushbu jarayonda mamlakat hayotida turli qabila zodagonlari mamlakatning ichki ishlariga bevosita aralashuvi jarayoni sodir boʻlgan edi. Xonlarning asosiy tayanchi hisoblangan oʻzbeklarning ming urugʻi zodagonlari mamlakatda ichki kurashlarni avj oldirishi oqibatida qolgan qabila boshliqlari ushbu vaziyatlardan foydalanib qolishga harakat qilishgan. 1842-yilda Qoʻqon xonligini Buxoro amirligi tomonidan zabt etilishi oqibatida xonlikda ichki parokandalik nihoyatda kuchayib ketdi. Bu esa oʻz navbatida taxt uchun kurashlarning avj olishiga sabab boʻldi. Ana shunday vaziyatda siyosiy kurash

maydoniga qirg`iz va qipchoq zodagonlari chiqadi. Ular xonlik taxtiga o`zlarining nomzodlarini ko`tarishga harakat qiladi. 1842-yilda xonlik taxtini Sheralixon egallashi oqibatida qirg`iz qabila zodagonlari hokimyat tizginini o`z qo`llariga olishga harakatni boshlab yuborgan edi. 1845-yilda ichki kurashlar oqibatida Sheralixon o`ldirilib, uning o`rniga 13 yoshli Xudoyorxonning taxtga chiqishi oqibatida mamlakatda qipchoq qabilalarining mavqei ortib bordi. Xudoyorxonning birinchi hukmronlik davrida qipchoqlar ko`plab xonlikning markaziy hududlariga ko`chib kela boshlashi oqibatida mahalliy aholiga nisbatan zulm ham ortib borgan. Bu esa xonlikning zaiflashuviga sabab bo`lgan. 1852-yilga kelganda xonlikda qipchoqlar hukmronligiga barham berilgan. Ushbu voqea xonlikning hayotida qirg`iz va qipchoq qabilalarining o`rni, ularning olib borgan kurashlari tarixini o`rganish masalasini dolzarb masalalardan biriga aylantirib qo`ymoqda. Bundan tashqari XIX asrning 50-yillari o`rtalaridan boshlab xonlik hududining chor Rossiyasi tomonidan istilo qilishning boshlanishi, bu davrda sodir bo`lgan ichki parokandalik jarayonini o`rganish tarix fanining asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

**Mavzuning o`rganilganlik darajasi.** Qo`qon xonligi tarixida qirg`iz va qipchoqlar masalasini o`rganish ishlari XX asrda e`tiborga molik holda amalga oshirilgan. Xonlik hayotida qirg`iz va qipchoq qabilalarining turmush tarzi, xo`jaligi, madaniy hayoti, O`rta Osiyodagi o`troq aholi bilan munosabatlari, Qo`qon xonligi hukmronligi davrida olib borilgan diplomatik aloqalar, qo`shni davlatlardagi siyosiy vaziyat, ruslarning O`rta Osiyoga uyishritgan harbiy bosqini, ruslarning xonlikga o`tkazdirgan tazyiqi, aholining ruslarga qarshi olib borgan mardonavor kurashi kabi voqealar haqida ma`lumotlar bergan tarixchilar qatoriga V.M.Ploskix<sup>1</sup>, M.Dostoyevskiy<sup>2</sup>, V.V.Bartold<sup>3</sup>, Z.L.Amitin-Shapiro<sup>4</sup>,

---

<sup>1</sup> Плоских В.М. Киргизы и Кокандское ханства. Фрунзе. Илим., 1977

<sup>2</sup> Достоевский М. Страна и быт Средней Азии. Москва. Образование., 1917

<sup>3</sup> Бартольд В.В. Очерк истории семиречья. Фрунзе. Киргизгосиздат., 1943

<sup>4</sup> Амитин-Шапиро З.Л. Аннотированный указатель литературы по истории, археологии и этнографии киргизии (1750-1917). Фрунзе., 1958

A.Ye.Alektrov<sup>5</sup>, B.Botayeva<sup>6</sup>, F.A.Fiyelstrup<sup>7</sup>, L.V.Oshanin<sup>8</sup>, G.K.Gine<sup>9</sup>, M.T.Aytbayev<sup>10</sup>, T.O.Ojukeva<sup>11</sup>, K.Usenbayev<sup>12</sup>, G.E.Katanayeva<sup>13</sup>, T.Kenensariyev<sup>14</sup>, N.G.Pavlov<sup>15</sup>, R.Nabiyevlarni<sup>16</sup> kiritish mumkin.

O`zbekiston Respublikasi mustaqillika erishganidan so`ng O`zbekiston tarixini o`rganishga hukumat tomonidan alohida e`tibor berildi. O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov mamlakatimizning yetakchi tarixchi olimlariga murojat qilib, O`zbekistonning haqqoniy tarixini yoritish masalasi bugungi kunimizning dolzarb muammosi ekanligini ta`kidlab o`tgan edi<sup>17</sup>.

Shu asosda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq Qo`qon xonligi tarixini o`rganish ishi ham keng ko`lamda amalga oshirila boshlandi. 1996-yilda tarixchi olim Haydarbek Bobobekovning xonlik tarixiga bag`ishlangan kitobi nashrdan chiqarildi. Kitobda Qo`qon xonligining qisqacha siyosiy tarixi, aholisining madaniyati, turmush tarzi, hunarmandchiligi, dehqonchiligi va boshqa sohalariga oid to`plangan ma`lumotlar jamlangan edi.<sup>18</sup>

Bundan tashqari, tarixchi olim Sh.Vohidovning ilmiy faoliyati xonlik tarixining tarixshunosligi va manbashunosligi masalasi, ya`ni Qo`qon xonligida tarixnavislik maktabining shakllanishi, shu maktab namoyandalari asarlarini izlab topish, o`rganish va chop etish bilan ajralib turadi. Sh.Vohidovning ilmiy ishlarida Qo`qon xonligi tarixchilarining asarlarini kodikologik jihatdan tahlil etilgan va

---

<sup>5</sup> Alektorovъ А. Е. Указатель книгъ, журналныхъ и газетныхъ статей и заметокъ о киргизахъ. Казан., 1900.

<sup>6</sup> Б.Боотаева. Киргизы между Кокандом, Китаем и Россией. Бишкек., 1995.

<sup>7</sup> Фиельструп Ф.А. Исследования среди кара-киргиз. Фрунзе., 1959.

<sup>8</sup> Ошанин Л.В. Материалы по антропологии Средней Азии, Киргизы южного побережья Иссык-куля. – Т.: 1927.

<sup>9</sup> Гиней Г.К. Основныя начала проекта воднаго закона для Туркестана. С-Петербургъ., 1912.

<sup>10</sup> Айтбаев М.Т. Социально-экономические отношения в киргизском аиле в XIX и начале XX веков. Фрунзе. Киргизгосиздат, 1962.

<sup>11</sup> Ожукеева Т.О. Политические процессы в странах Центральной Азии. Бишкек., 1995.

<sup>12</sup> Усенбаев К. Общественно-экономические отношения киргизов в период господство Кокандского ханства. Фрунзе., 1961.

<sup>13</sup> Катанаева Г.Е. Киргизская степи, Средняя Азия и северный Китай в XVII и XVIII столетияхъ.

<sup>14</sup> Кененсариев Т. Кыргыздар жана Кокон хандыгы. Ош, 1997.

<sup>15</sup> Павлов Н.Г. ИсторияТуркестана. 1911.

<sup>16</sup> Набиев Р. Из истории Кокандского ханства. –Т.: Фан., 1973.

<sup>17</sup> Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. -Т.: Шарқ., 1998.

<sup>18</sup> Бобобеков Х. Қўқон тарихи. -Т.: Фан., 1996.

xonlik tarixi, madaniy hayotiga oid o`nlab mahalliy tarixiy asarlar ilmiy muomalaga kiritilgan. 1991-yildan boshlab Sh. Vohidovning mahalliy tarixchilar tomonidan yozib qoldirib ketilgan asarlarining tarjima qilingan nusxalari “Sharq yulduzi” jurnalida doimiy ravishda nashr qilib borildi<sup>19</sup>.

Qo`qon xonligining tarixini o`rganish ishi ustida tadqiqotlar olib borgan yana bir tarixchi olim F. Ahmadjonovdir. Uning kitobida Qo`qon xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi, mahalliy aholining ruslarga qarshi olib borgan kurashi masalalari keng tarzda yoritib berilgan<sup>20</sup>.

E`lon qilingan adabiyotlar tahlili tanlangan mavzu hanuz alohida maxsus tarzda o`rganilmaganligini ko`rsatadi. Shu boisdan mazkur muammo dissertatsiyaning mavzusi sifatida tanlab olindi.

**Magistrlik dissertatsiyasi tadqiqot ob`ekti.** Qo`qon xonligining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotida qirg`iz va qipchoqlarning olib borgan faoliyatini tahlil qilish, ularning ijobiy va salbiy tomonlarini o`rganish tadqiqot ishining ob`ekti hisoblanadi.

**Magistrlik dissertatsiyasining maqsad va vazifalari.** Qo`qon xonligining XVIII-XIX asrlardagi hayotini o`rganish, uning o`zbek davlatchiligi tarixida tutgan o`rni, xonlik hukmdorlarining faoliyati, mamlakatdagi urug` va qabilalar o`rtasidagi o`zaro munosabatlar, qirg`iz qabilalarining xonlik tarkibiga olinishi, ularning mamlakat hayotidagi ahamiyati, xonlikning rivojlanishi uchun qo`shgan hissasi, xonlikdagi sodir bo`lgan jarayonlardagi roli, boshqa urug` qabilalar bilan munosabatlari, xonlikning chor Rossiyasi tomonidan bosib olish jarayonidagi ishtiroki masalalari, xonlikda qirg`iz zodagonlarining tutgan mavqei, Qo`qon xonlarining qirg`iz qabilalarini boshqaruv shakllari kabi masalalar, bundan tashqari Qo`qon xonligi tarixida qipchoq qabilalarining tutgan o`rni, ularning xo`jalik yuritish shakllari, qipchoqlardagi boshqaruv shakllari, 1845-1852 yillardagi qipchoqlar hukmronligi, qipchoqlar yetakchisi Musulmonqulning

---

<sup>19</sup> Вохидов Ш. Кўкон хонлигида тарихшунгосликнинг ривожланиши. -Т.: Фан., 1998.

<sup>20</sup> Ahmadjonov F. Rossiya Imperiyasi Markaziy Osiyoda. T.: Sharq, 2003.

xonlikning Buxoro amirligi istilosidan xalos bo`lishida olib borgan harakatlari kabi masalalarni o`rganish mazkur tadqiqot ishining maqsad va vazifalari hisoblanadi.

**Magistrlik dissertatsiyasining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

➤ Qo`qon xonligi tarixida qirg`iz zodagonlarining tutgan o`rni, ularning xonlik ichki ishlariga aralashuvi, qipchoq qabilalarining xonlik hududiga kirib kelishi, ularning mamlakat hududiga joylashuvi, xonlarning qo`shni davlatlar bosqiniga qarshi qirg`iz va qipchoqlar yordamdan foydalanilganligi manbalar va tarixiy kitoblar asosida yoritib berildi;

➤ xonlik tarixini o`rganish ishida manbalarni tasniflash ishi asosan uch bosqichda amalga oshirilishi bo`yicha yangicha tavsiyalar berildi;

➤ xonlikda mavjud bo`lgan unvon va mansablar, ularga loyiq shaxslarning tayinlanish tartibi, xonlikda mavjud bo`lgan soliq va majburiyatlarning qo`llanilish tartiblari haqida yangicha ma`lumotlar manbalar asosida tahlil qilindi;

➤ magistrlik dissertatsiyasi mazmun-mohiyatini belgilovchi omillar va qarashlar alohida ajratib olinib, umumiylik va alohidalik kategoriyalarining birligi asosida tahlil qilindi;

➤ magistrlik dissertatsiyasi jonli, aniq va keng hayotiy materiallar negizida mavzuning ilmiyligi, va ahamiyati konkret materiallar va adabiyotlarga asoslangan holda yoritildi;

➤ Qo`qon xonligi tarixining yoritilishi xonlik tarkibiga kirgan xalqlarning bugungi kunda ushbu xalqlarning turli davlatlar tarkibiga kirsada ular tarixan yagona makonda istiqomat qilganligi, tarixan ularning tinch-totuv istiqomat qilib kelganligi, qadimdan ularning maqsadlari mushtarak ekanligi alohida misollar bilan tasdiqlab o`tildi.

**Magistrlik dissertatsiyasini nazariy va metodologik asoslari.** XVIII-XIX asrlarda yaratilgan manbalar, XX asrda yaratilgan asarlar va mustaqillik yillarida yaratilgan ilmiy-ommabop nashrlar, O`zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning asarlari, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning nutqlari, mavjud

monografik va ommaviy tadqiqotlar magistrlik dissertatsiyasining nazariy va metodologik asoslarini tashkil qiladi.

**Magistrlik dissertatsiyasining nazariy va amaliy ahamiyati.** Nazariy jihatdan olganda, ushbu tadqiqot Qo`qon xonligi tarixida qipchoq va qirg`iz qabilalarining tutgan o`rni masalasining mohiyati va istiqbolini chuqur anglashga hamda to`g`ri fikrlashga xizmat qiladi.

Ishning amaliy ahamiyati shundaki, Qo`qon xonligi hukmronligi tarixini o`rganish ishi jadal suratlar bilan amalga oshirilmoqda. O`zbekiston hududida xonlik tarkibida bo`lgan xalqlarning avlodlari tinch-totuv yashab kelmoqdalar. Hukumatimiz tomonidan ularga katta hurmat e`tibor-bilan qaralmoqda. Shu jihatdan olib qaraganda dissertatsiyada o`rtaga qo`yilgan va yechimini topgan masalalar amaliy ahamiyatga ega. Bu jarayonlarni yoshlar atroflicha o`rganishi va o`zlarining amaliy faoliyatini belgilab olishida ushbu magistrlik ishida ko`tarilgan materiallar ma`lum darajada manba va qo`llanma bo`lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, dissertatsiya ishi bilan tanishgan o`quvchi Qo`qon xonligining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy sohalarida amalga oshirilgan ishlari to`g`risida zarur tegishli ma`lumotlar oladi. Dissertatsiya bilan tanishgan har bir o`quvchi XVIII-XIX asrlardagi Qo`qon xonligidagi xalqlar o`rtasidagi munosabatlar to`g`risida yangicha bilimlarga ega bo`ladilar. Dissertatsiyada keltirilgan ma`lumotlardan ma`ruza va seminar mashg`ulotlarida, targ`ibot-tashviqot ishlarida foydalanishi mumkin.

**Tadqiqotning xronologik chegarasi.** 1710-yildan 1876-yilgacha, ya`ni Qo`qon xonligining 166 yillik hukmronlik davrida qipchoq va qirg`iz qabilalarining mamlakat hayotida olib borgan faoliyat, ularning o`zaro munosabatlari, xonlik hududning kengayishiga qo`shgan hissasi, madaniy rivojlanishida amalga oshirgan ishlari, xonlik obodonligiga qo`shgan hissasi va boshqa voqealarni o`z ichiga oladi.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uch bob, yetti paragraf, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro`yxati hamda ilovalardan iborat.



## **I bob. Qo`qon xonligida qipchoq va qirg`izlarning tutgan o`rni: masalaning manbashunosligi va tarixshunosligi**

### **1.1. Manbalar tavsifi**

O`zbek xonliklari tarixini o`rganish masalasida tarixi kam o`rganilgan davlat Qo`qon xonligi hisoblanadi. Chunki, Qo`qon xonligi hukmronligi davrida yaratilgan manbalar chor Rossiyasi va Sovet davlatlari davrida deyarli o`rganilmagan edi. Mustaqillik yillariga kelib Qo`qon xonligining siyosiy tarixi, uning tarkibida istiqomat qilgan xalqlarning o`zaro munosabatlari, turmush tarzi, etnik munosabatlariga qiziqish boshlandi va ko`plab o`zbek tarixchi olimlari xonlik tarixini tadqiq qilishga kirishdi.

Shu o`rinda ta`kidlash lozimki, o`tgan asrning 90-yillarida asosan xonlik tarixiga bag`ishlangan manbalarni o`zbek tiliga tarjima qilish ishlari keng avj oldi. Bu o`rinda tarixchi olim Shodmon Vohidovning amalga oshirgan ishlari taqsinga sazovor hisoblanadi. Bundan tashqari Haydarbek Bobobekov ham Qo`qon xonligi tarixini o`rganish masalasida katta ishlarni olib borgan edi. Birgina 1996-yilda nashr etilgan “Qo`qon tarixi” kitobi ham Qo`qon xonligining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy tarixini o`rganishda muhim asar hisoblanadi.

Qo`qon xonligidagi etnik munosabatlar masalasi ham bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki O`rta Osiyo xonliklari ichida eng ko`p aholini ham, eng ko`p millatni ham o`z ichiga qamrab olgan davlat bu shubxasiz Qo`qon xonligi hisoblangan.

Qo`qon xonligi ijtimoiy-siyosiy tarixida qirg`iz va qipchoqlarning tutgan o`rni masalasi tarixiga oid yozma manbalarni 3 ta asosiy guruhga bo`lish mumkin:

1. mahalliy mualliflarning xonlik tarixini o`zida aks ettirgan asarlari;
2. XVIII-XIX asrlar davomida xonlikka tashrif buyurgan rus va yevropalik sayyohlar, harbiylar, elchilar va savdogarlarning safarnoma va esdaliklari;
3. arxiv hujjatlari.

Qo`qon xonligi tarixi eng avvalo shu yerlik tarixnavislarning asarlarida o`z aksini topgan. XIX asr va XX asr boshlarida saroy tarixchilari hamda saroyda yashagan muarrixlar yaratgan qator tarixiy va adabiy asarlarda Qo`qon xonligining tashkil topishi, bu yerda hukmronlik qilgan xonlarning faoliyati, xonlikdagi siyosiy ahvol, xo`jalik va madaniy hayot bayon qilingan. Mahalliy tarixnavislarning asarlari xonlik tarixini o`rganishda birinchi darajadagi ahamiyatga ega bo`lgan tarixiy manbalar hisoblanadi.

Qo`qon tarixnavislarining asarlari o`z janr va uslublari jihatidan O`rta Osiyo va Sharq tarixnavislik an`analari asosida yaratilgan. Ma`lumki, musulmon tarixshunoslik konsepsiyasi, shu jumladan Qo`qon xonligi muarrixlari ilgari surgan kontsepsiyalar Qur`oni Karim, hadislar va agiografik (diniy yo`nalishdagi tarjimayi hol) adabiyotlarga asoslanadi. Sharq mamlakatlari va Qo`qon xonligida tarixiy tafakkur kosmogonik (dunyoning kelib chiqishi), kosmologik (koinotning tuzilishi), teologik (diniy ta`limot), sotsiologik va esxatalogik (dunyoning oxiri – qiyomat-qoyim) ta`limotlarga asoslanadi. “Olamning yaratilishi”, ilk odamning paydo bo`lishi, turli qabila va xalqlarning kelib chiqishi, ezgulik va yovuzlik o`rtasidagi kurash kabi masalalar ularning asarlarida muhim o`rin tutadi.

Musulmon mualliflari va ular qatorida Qo`qon tarixnavisligi maktabi vakillari tarixni “boshidan”, ya`ni olamning, Yer va unda hayotning yaratilishidan, Odam Ato va Momo Havoning paydo bo`lishidan to o`zlari yashagan davrgacha yoritish zarur deb hisoblaganlar. Shuning uchun ham ko`pincha Qo`qon xonligi tarixiga bag`ishlangan asarlar “olamning yaratilishi”dan boshlanib, ularda payg`ambarlar, xalifalar, davlatlar tarixi sulolaviy-xronologik tartibda bayon etiladi va asarning so`nggi fasllarida bevosita xonlik tarixi yoritiladi<sup>21</sup>.

Qo`qon xonligi muarrixlari o`z asarlarini yaratishda oldingi zamonlarda musulmon Sharqida yozilgan tarixiy asarlarga tayanganlar. Shu bilan birga mualliflarning o`sha zamonda yashaganligi, ko`p tarixiy voqealarni shohidi va ishtirokchisi bo`lganliklari ham ular uchun boy materiallar bergan.

---

<sup>21</sup> Арслонзода Р. Қўқон хонлиги манбашунослиги ва тарихшунослиги маърузалар матни. Фарғона. 1999. Б. 13

Mahalliy tarixnavislarning asarlari o`z manbaviy ahamiyati nuqtai nazaridan bir xil emasdir. Saroy tarixchilari yoki hukmron sulolaga yaqin muarrixlarning asarlari Qo`qon xonligi o`tmishiga oid ishonarli faktlarga boydir, chunki mualliflar mamlakatda ro`y bergan voqealar xususida yetarli darajada xabardor bo`lganlar. Ammo poytaxtdan yiroqda yashab ijod etgan tarixchilar esa ba`zi hollarda tarixiy voqealar haqida boshqalardan eshitganlarini yozganlar, shuning uchun ularning asarlarida talay noaniqliklar uchraydi (Ibrat, Muhammad Aziz Marg`iloniy va b.).

Yuqorida ta`kidlab o`tilganidek, musulmon mualliflari tarixga teologik (diniy) nuqtai nazardan yondashganligi sababli ko`pincha voqealarning asosiy sabab va oqibatlarini to`g`ri talqin qilmaydilar. Tarixiy shaxslar faoliyatiga baho berishda ham ularning ijtimoiy mavqei muhim rol o`ynagan. Jumladan, hukmdorlarni maqtab, ularning siyosatiga tanqidiy jihatdan yondashmaslik saroy tarixchilari asarlariga xos bo`lgan nuqsonlardar biridir.

Qo`qon tarixnavislari asarlarini asosan ikki guruhga bo`lish mumkin:

1) tarixiy-adabiy asarlar. Bu asarlarda tarixiy voqealar bayoni birinchi o`rinda turadi;

2) adabiy-tarixiy asarlar. Bu asarlarda tarixiy voqealar sabablariga asosiy e`tibor qaratiladi<sup>22</sup>.

Mahalliy tarixnavislarning Qo`qon xonligi tarixiga bag`ishlangan asarlari asosan o`zbek va fors-tojik tillarida yozilgan.

Qo`qon xonligi to`g`risida ma`lumot beruvchi tarixiy manbalarning ikkinchi guruhi - bu rus elchilari va sayyohlarining safarnoma va esdaliklaridir. XVIII asr oxiri - XIX asr boshlaridan boshlab Qo`qon xonligiga rus elchi va sayyohlari tashrif buyura boshladilar. Qo`qon xonligiga yuborilgan elchilarning asosiy maqsadi Rossiya va xonlik o`rtasida doimiy diplomatik va savdo aloqalarini o`rnatish hamda xonlik to`g`risida imkon qadar ko`proq ma`lumot to`plash edi.

Qo`qon xonligi to`g`risidagi ma`lumotlar asirlikdan qochgan rus soldati Filipp Efremov, elchilar Filipp Nazarov, Nikolay Potanin, zobit Xoroshxin,

---

<sup>22</sup> Арслонзода Р. Қўқон хонлиги манбашунослиги ва тарихшунослиги маърузалар матни. Фарғона. 1999. Б. 14

sharqshunos olim V.V.Velyaminov-Zernov asarlarida uchraydi<sup>23</sup>. Shuningdek, XIX asr boshlarida xonlikka tashrif buyurgan hindistonlik sayyoh Mir Izzatullo ham o`z esdaliklarini yozib qoldirgan<sup>24</sup>.

Sayyoh va elchilarning safarnoma va esdaliklari tarixiy manba sifatida muhim ahamiyatga ega. Chunki ular bevosita xonlikda bo`lib, o`zlari ko`rgan va guvoh bo`lgan voqealarni bayon etadilar. Bu manbalarning original tomoni yana shundan iboratki, sayyoh va elchilar xonlikning boshqaruv tizimi, xo`jalik hayoti, xalqning turmushi to`g`risida batafsil ma`lumotlar berishga harakat qilganlar. Ayniqsa, aholi turmush tarzi, urf-odatlari, kiyim-kechaklari, turar-joylari xususidagi ma`lumotlar diqqatga sazovordir. Chunki bunday ma`lumotlar mahalliy tarixnavislar asarlarida deyarli uchramaydi.

Rus mualliflari asarlari orasida V.V.Velyaminov-Zernovning ma`lumotlari ajralib turadi. U boshqa rus mualliflaridan farqli o`laroq xonlikda shaxsan bo`lmagan, bu yerdagi ahvolni o`z ko`zi bilan ko`rmagan. Ammo Orenburgda xizmatda bo`lgan paytida Qo`qon xonligida bo`lgan rus savdogarlari, sayyohlari, zobitlari bilan, shuningdek, qo`qonlik elchi va savdogarlar bilan suhbatlar chog`ida xonlik to`g`risida batafsil ma`lumotlar to`plab, ularni bir tizimga solgan. Shuning uchun ham, V.V. Velyaminov-Zernovning yozuvlari Qo`qon xonligi hayotining turli qirralarini batafsil yoritib beruvchi muhim manbalar sirasiga kiradi.

Qo`qon xonligi tarixi va unda qirg`iz va qipchoq xalqlarining tutgan o`rni masalasiga oid ma`lumotlarni O`rta Osiyo hududidagi harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etgan general-leytenant M. A. Terentevning “Istoriya zavoevaniya Sredney Azii” kitobida ham uchratish mumkin.

Qo`qon xonligi xususidagi ma`lumotlar A. Middendorf, A. Xoroshxin, Ahmad Zaki Validiy va bu yerga tashrif buyurgan boshqa olimlar asarlarida ham uchraydi.

---

<sup>23</sup> Вельяминов-Зернов В.В.

<sup>24</sup> Вельяминов-Зернов. Исторические известия о Кокандском ханстве от Мухаммада Али до Худаярхана. Санкт-Петербург. 1859.

Qo`qon xonligi to`g`risidagi tarixiy manbalarning uchinchi guruhini arxiv hujjatlari tashkil etadi. Ularni o`z navbatida ikki guruhga bo`lish mumkin:

- 1) Qo`qon xonlari arxivi hujjatlari;
- 2) Rossiya arxiv fondlarida saqlanayotgan hujjatlar.

Shuni ta`kidlab o`tish kerakki, Qo`qon xonligi arxivi (qisman O`zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida, qisman O`zR FA Sharqshunoslik instituti fondlarida saqlanmoqda) hujjatlari asosan so`nggi Qo`qon xoni Xudoyorxon hukmronligi davriga taalluqlidir. Bu hujjatlar asosan xo`jalik ahamiyatiga ega bo`lib, inoyatnomalar, daftarlar, xatlar va arizalardan iboratdir. Qo`qon xoni arxivi xonlikdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, yer egaligi shakllari, soliq tizimi haqida batafsil ma`lumotlar beradi<sup>25</sup>.

Xonlik tarixiga doir arxiv hujjatlarining ikkinchi guruhi Rossiya Federatsiyasi arxiv fondlarida saqlanayotgan hujjatlardir. Ular asosan Qo`qonga tashrif buyurgan rus zobitlari va elchilarining hisobotlaridan, shuningdek, Qo`qon xonligi bilan olib borilgan janglar xususidagi harbiy hisobotlardan iboratdir. Rus harbiylarining janglar xususidagi hisobot va raportlaridan biz ikki o`rtada bo`lib o`tgan muhorabalarning aniq sanasi, janglarda qatnashgan askar va zobitlar soni, berilgan talofatlar to`g`risida yetarli ma`lumotlar olamiz<sup>26</sup>.

Qo`qon xonligi tarixshunosligi tahlili shundan dalolat beradiki, mazkur davr to`g`risida yaratilgan asarlar tarixiy jihatdan uch guruhga bo`linadi. Birinchi guruhga oid adabiyotlar shu davrda ro`y bergan tarixiy voqealarning bevosita guvohlari tomonidan yaratilgan asarlar tashkil etadi. Bunga Qo`qon xonligi tarixnavislik maktabi muarrixlarining va Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davri tarixchilarining bergan ma`lumotlari kiradi.

Qo`qon xonligi tarixnavislik maktabiga mansub muarrixlar turli yo`nalishlarda asarlar yaratib, ularning asarlari XVI-XIX asrlardagi Qo`qon xonligi tarixiga doir muhim manbalar hisoblanadi.

---

<sup>25</sup> Набиев Р. Из истории Кокандского ханства. –Т.: Фан., 1973

<sup>26</sup> Терентьевъ М.А. История завоевания Средней Азии. С-Петербург., 1906.

Ulardan bugungi kunda O`zbekiston FA Sharqshunoslik instbtuti xazinasida saqlanayotgan Abulvos`ye Manzurning “Nazkirai Sultoniy”, Abulg`affor ismli Qo`qon amaldorining “Zafarnomayi Xudoyorxoniy”, Abu Ubaydulloh Toshkandiyning “ Xulosan ul-axvol”, Avaz Muhammad Attor Ho`qandiyning “Tarixi jahonnomaiy” I, II jildlari, Fazliy Farg`oniyning “Umarnoma” asarlari, Mirzo Qalandar Mushrif Isfaragiyning “Shohnomayi nusratpoyom”, Mullo Xolbek ibn Mullo Muso Andijoniyning “G`aribnoma va Aliquli amirlashkar tarixi”, Muhammad Niyoz Ho`qandiyning “Tarixi Shoxruhiy”, Muhammad Aziz ibn Muhammad Rizo Marg`inoniyning “Tarixi Aziziy”, Muhammad Solihxo`ja Toshkandiyning “Tarixi jadidayi Toshkand”, Muhammad Yunus shig`ovul-Toyibning “Aliquli amirlashkar jangnomasi” kabi asarlarning qo`lyozmalari va “Tuhfayi Toyib”, Mirzo Olim Toshkandiyning “Ansob ul-salotin fi tavorixi Havoqin”, Mulla Olim Maxdum Hojining “Tarixi Turkiston”, Mir Izzatullohning “Safarnoma”, Domullo Abd al - Qodir ibn Muhammad Aminning “Madjma` al-ansob va-l-ashdjour”, Muhammad Hakimxon ibn Ma`sumxonto`raning “Muntaxab at-navorix” ning I, II jildlari asarlarini ajratib ko`rsatish mumkin.

Afsuski, mustaqillik yillariga qadar yuqoridagi mualliflarning asarlari boy tarixiy ma`lumotlarni o`zida jam qilganligiga qaramasdan qo`lyozma holatida qolib ketdi va istiqlol yillariga kelibgina ulardan ayrimlari ilmiy muomalaga kiritildi.

## **1.2. Masalaning ilmiy jihatdan o`rganilishi**

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rus tilida yozilgan V.Nalivkin, N. Veselovskiy, N. Petrovskiy, N. Pantusov, V. Velyaminov-Zernovlarning kitoblarida esa Qo`qon xonligi tarixining turli qirralari va masalalarini o`rganish bo`yicha boy ma`lumotlar berilgan<sup>27</sup>. Ularda xonlikni tashkil topishi, ming

---

<sup>27</sup> Булар жумласига В.Наливкиннинг “Краткая история Кокандского ханства”. Казань. 1886; Н.Веселовскийнинг “Прием в России и отпуск Средназиатских послов в XVII-XVIII столетиях». Санкт-Петербург. 1884; Н.Петровскийнинг “Очерки Кокандского ханства” Санкт-Петербург. 1875; Н.Пантусовнинг “О податях и провинциях существовавших в бывшем Кокандском ханстве в последние

sulolasidan chiqqan hukmdorlar va ularning siyosati, qo`shni davlatlar bilan munosabatlari, xonlikning etnik tarixi, etnik jarayonlar, Rossiya imperiyasining xonlikka nisbatan olib borgan siyosati, harbiy harakatlari, bosqinchilik va uning oqibatlarini kabi masalalar keng yoritilgan.

Qo`qon xonligi tarixshunosligining ikkinchi guruhini sovet davrida ilmiy adabiyotlar tashkil qiladi. Bularga R. Nabiyevning “Iz istorii Kokandskogo xanstva (feodalnoye xozyaystvo Xudayarxana)” T.,1973; Y. Bekvaxanovning “K istorii v zaimootnosheniy kazakov so sredneaziatskimi xanstvami” T., 1947; N. Beysembiyevning “Tarixi Shaxruhi” kak istoricheskoy istochnik”, “Legenda o proisxojdenii Kokandskix xanov kak isnochnik ideologii v Sredney Azii” 1989; X.Inoyanovning “Qo`qon xonligi Rossiyaga qo`shilishi arafasida va 1875-1876 yillardagi Qo`qon qo`zg`oloni” T.,1956; P. Ivanovning “Ocherki po istorii Sredney Azii XVI- XIX vekov” M.,1958; H. Ziyoyevning “O`rta Osiyo va Sibir (XVI-XIX asrlar)” T.,1962 asarlari kiradi. Nabiyevning tadqiqoti bevosita Qo`qon xonligi tarixi, uning xo`jalik hayotiga bag`ishlangan bo`lib, bu asar ilmiy jamoatchilik uchun ahamiyatli hisoblanadi. Nabiyev o`z tadqiqotida Saltikov- Shedrin kutubxonasi, Qo`qon universiteti, Orenburg, Ufa, Astraxan arxivlari, O`zbekiston Markaziy Davlat arxividagi ma`lumotlardan foydalangan, ularni ilmiy muomalaga kiritgan. Bu fundamental tadqiqot hisoblanadi.

O`zbekiston mustaqilligining tarixiga oid adabiyotlar tarixshunoslikda uchinchi guruhni tashkil etadi. Ularga H. Ziyoyevning “Turkiston Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurashi” T., 1998; F. Ahmadjonovning “Rossiya Imperiyasi Markaziy Osiyoda” T., 2003; X. Bobobekovning “Qo`qon tarixi” T., 1996; Sh. Vohidovning “Qo`qon xonligida tarixnavislikning rivojlanishi” T.,1998; O`.Sultonovning “Muhammad Solihxo`janing “Tarixi jadidayi Toshkand” asari muhim manba sifatida (XIX)” T., 2007 asarlarini kiritish mumkin.

Sh. Vohidovning ilmiy faoliyati xonlik tarixining tarixshunosligi va manbashunosligi masalasi, ya`ni Qo`qon xonligida tarixnavislik maktabi

---

время Худаярхана”. Санкт-Петербург. 1876; В.Вельяминов-Зерновнинг “Исторические известия о Кокандском ханстве от Мухаммада Али до Худаярхана”, Санкт-Петербург. 1859.

shakllanishi, shu maktab namoyandalari asarlarini izlab topish, o`rganish va chop etish bilan ajralib turadi. Sh. Vohidovning ilmiy ishlarida Qo`qon xonligi tarixchilarining asarlarini kodikologik jihatdan tahlil etilgan va xonlik tarixi, madaniy hayotiga oid o`nlab mahalliy tarixiy asarlar ilmiy muomalaga kiritilgan.

F. Ahmadjonovning yuqoridagi asarida xonlik tarixi tarixshunoslik nuqtai nazaridan o`rganilgan. Muallif tomonidan O`zbekistonlik olimlarning Qo`qon xonligi tarixini tadqiq etishda tutgan o`rni va qo`shgan hissalarini keng tahlil etilgan.

Shunday qilib, Qo`qon xonligi tarixshunosligi tarixchi olimlarimiz tomonidan keng o`rganilib, tahlil etilib, kutubxonalar ommasiga yetkazilib berilmoqda.

Sobiq sovet tuzumi davrida ham Qo`qon xonligi tarixiga doir bir qator asarlar nashr etildi. Ammo xonlik tarixi butun O`zbekiston tarixi singari kommunistik mafkura tazyiqi ostida sinfiylik nuqtai-nazaridan o`rganildi. Bu holat tarixiy voqelikning soxtalashtirilishiga olib keldi. O`rta Osiyoning, xususan, Qo`qon xonligining Rossiya tomonidan bosib olinishi “qo`shib olish” tarzida talqin qilindi. Bunday holatni H.Sh.Inoyatovning “Qo`qon xonligi Rossiyaga qo`shilish arafasida va 1875-1876-yillardagi qo`zgon” nomli asarida, S.S. Soatovning “O`rta Osiyoning Rossiyaga qo`shib olinishi va uning progressiv ahamiyti” nomli asarlarida kuzatish mumkin.

XX asrning 20-30-yillar O`rta Osiyo xonliklari siyosiy tarixiga bag`ishlangan oz sonli tadqiqotlarda Qo`qon xonligiga bag`ishlangan maxsus asarlar uchramaydi. Faqatgina V.V. Bartoldning bu hududda kechgan siyosiy jarayonlar bayonida Turkistonning madaniy hayoti, islom masalalariga oid tadqiqotlarida Qo`qon xonligi tarixining ayrim muammolari o`z aksini topgan. Mashhur olim asosan e`tiborni Qo`qon xonligi tarixining siyosiy jihatlariga qaratgan.

XX asrning 60-80-yillarida A. Juvonmardiyev, A.L. Troitskaya, R.N. Nabiyev, A.P. Qayumov, F. G`afforov, E. Xurshut, T.Q. Beysembiyev, H.N. Bobobekov kabi olimlar yozma manbalar asosida Qo`qon xonligi tarixining turli masalalariga oid tadqiqotlar olib bordilar. Ular olib borgan izlanishlarning diapazoni ancha keng bo`lib, xonlik tarixiga oid manbalar, bu yerdagi yer-suv munosabatlari, ma`naviy hayot singari masalalarga bag`ishlangandir.



Bu davrda Qo`qon xonligi tarixi masalalari bilan atroflicha shug`ullangan tadqiqotchilardan biri A.L. Troitskayadir. U Qo`qon xonlari arxivining katalogini tuzgan va mazkur katalogga kirgan hujjatlar asosida asarlar yaratgan. “XIX asr Qo`qon xonlari arxivi” (1968), “XIX asr Qo`qon xonligi tarixiga oid materiallar” (1969) nomli o`z asarlarida A.L. Troitskaya Xudoyorxon arxivlarining tasnifini beradi hamda Qo`qon xonligi tarixining turli qirralarini manbalar asosida ochib beradi.

XIX asrning 50-70 yillari Qo`qon xonligi tarixini o`rganishda R.N.Nabiyevning “Iz istorii Kokandskogo xanstva: Feodalnoe xozyaystvo Xudayarxana” (1973) asari katta o`rin egallaydi<sup>28</sup>. Bu muallif o`z asarida Qo`qon xonligi hukmdori Xudoyorxonning feodal xo`jaligiga asosiy e`tiborini qaratgan holda oliy hukmdorning siyosiy kuchi, uning manbalarini hujjatli va yozma materiallar asosida ko`rsatib bergan. Asarda nafaqat Xudoyorxon, Sheralixon (1842-1845), Mallaxon (1858-1862), Sulton Sayidxon (1863-1865)lar hukmronligi davrida kechgan siyosiy jarayonlar, balki XIX asrning 50-70-yillarida xonlik ma`muriy boshqaruv tizimining muhim unsurlaridan bo`lgan sarkorlik insituti mohiyati keng ochib berilgan. Shuni alohida qayd qilish kerakki, tarixda shaxsning o`rni va ro`liga salbiy munosabatda bo`lgan kommunistik partiya ko`rsatmasi asosida sinfiylik tamoyillaridan kelib chiqqan holda ushbu asar noxolis baholandi, uning muallifi Qo`qon hukmdori Xudoyorxonni madh etgan olim sifatida qoralandi. Kitobni ilmiy muomilaga chiqarish taqiqlandi.

Xonlikning mahalliy boshqaruv tizimi va unda ish yuritish tartiblarining ba`zi jihatlari xususida T.Q. Beysembiyevning asar va maqolalari diqqatga sazovordir. Uning “Tarixi Shaxruxi” – kak istoricheskiy istochnik” asarida<sup>29</sup> Qo`qonlik tarixchi Mulla Niyoz Muhammadining “Tarixi Shoxruxiy” asari manbashunoslik nuqtayi-nazaridan keng tahlil etilgan. Olimning Qo`qon xonligi davrida janubiy Qozog`istonning yuqori ma`muriyati masalasiga bag`ishlangan maqolasida (“Visshaya administratsiya yuga Kazaxstana v period Kokandskogo xanstva”)

---

<sup>28</sup> Набиев Р. Из истории Кокандского ханства. –Т.: Фан. 1973

<sup>29</sup> Бейсембиев Т.К. Кокандская историография. Алматы. 2009

1809-1865-yillarda Toshkent viloyati va uning shimoliy hududlarini idora etilishi, mazkur viloyatlarga tayinlangan hokimlar hamda mahalliy boshqaruv tizimida asosiy vazifalar zimmasiga yuklangan botirboshi va sarkor (yoki mirzaboshi) mansablarini qo`lyozma manbalar asosida tadqiq etildi.

Qo`qon xonligi tarixini o`rganishga V. Ploskix va A. Hasanovlar ham hissa qo`shganlar. Jumladan, A. Hasanov o`zining nomzodlik dissertatsiyasi va “Qo`qon xonligi davrida Qirg`izistondagi xalq harakatlari” (1961)<sup>30</sup> nomli monografiyasida, V.M. Ploskix esa “Kirgizi i Kokandskoe xanstvo” (1977)<sup>31</sup> kitobida Qo`qon xonligi va qirg`izlar o`rtasidagi munosabatlarni qadam-baqadam yoritib berishga harakat qilganlar. Ko`rsatib o`tilgan asarlarda qirg`izlarning Qo`qon xonligiga bo`ysundirilishi, ularning xonlik siyosiy hayotidagi o`rni hamda xonlarning zulmiga qarshi olib borgan kurashlari o`z aksini topgan.

XX asrning 60-80-yillarida Qo`qon xonligi tarixining ba`zi masalalari bo`yicha bir qator dissertatsiyalar ham yozildi. Ular jumlasiga A. Qayumov, F. G`afforov, X. Bobobekov, Sh. Vohidovlarning tadqiqotlarini kiritish mumkin. Ular Qo`qon xonligi tarixining turli masalalari, xususan, davlatning Rossiya bilan munosabatlari, mamlakatdagi madaniy hayot, Qo`qon xonligining tarixshunosligi va manbashunosligi masalalariga bag`ishlangan. Jumladan, A.P. Qayumovning “Qo`qon adabiy muhiti” (1960) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida xonlikdagi madaniy hayot haqida boy ma`lumotlar keltiradi. F. G`afforovning nomzodlik dissertatsiyasida “Rossiya va Qo`qon xonligi o`rtasidagi siyosiy va iqtisodiy aloqalar” (1970) mavzusiga bag`ishlangandir. H. Bobobekov va Sh. Vohidovlarning nomzodlik dissertatsiyalari Qo`qon xonligi manbashunoslikga bag`ishlandi. H. Bobobekov XIX asrning 60-70-yillarida yaratilgan rus tarixiy adabiyotlarini tahlil etgan bo`lsa, Sh. Vohidov Avaz Muhammad Xo`qandiyning “Tarixi jahonnamoyi” asraini manbaviy ahamiyatini tadqiq etdi.

Sovet davrida Qo`qon xonligi tarixi bo`yicha yaratilgan asarlar tahlili shundan dalolat beradiki, bu tuzum sharoitida yaratilgan tarixiy asarlar, boshqa fan

---

<sup>30</sup> Хасанов А. Қўқон хонлиги даврида Қирғизистондаги халқ ҳаракатлари. – Т.: 1961.

<sup>31</sup> Плоских В.М. Киргизы и Кокандское ханство. Бишкек. 1977.

sohalarida kuzatilgani kabi sinfiylik, partiyaviylik tamoyillariga bo`ysundirilgan, tarixda shaxsning, xususan, turli hukmdorlar, diniy ulamo va ruhoniylarning jamiyat taraqqiyotidagi roli inkor etilgan, yagona sovet tarixida turli respublikalarda, xususan, O`rta Osiyoda kechgan tarixiy jarayonlar chuqur o`rganilmagan, murakkab tarixiy jarayonlarning muhim hosilasi – davlatchilik masalasi umuman kun tartibiga qo`yilmagan. Biroq, qayd etilganlarga qaramasdan, turli yillarda yaratilgan asarlar mualliflari O`rta Osiyo davlatlari, xususan, Qo`qon xonligi, unda kechgan murakkab siyosiy jarayonlarni o`rganish asnosida ko`pgina yangi manbalar, davlatchilikning ayrim jihatlariga biroz oydinlik kirituvchi ma`lumotlarni ilmiy muomalaga kiritdilar.

Qo`qon xonligining ijtimoiy-siyosiy hayotida qipchoq va qirg`iz qabilalarining tutgan o`rni masalasini o`rganish sovet davrida qirg`izistonlik tarixchi olim V. M. Ploskix tomonidan amalga oshirilgan. Uning olib borgan ilmiy tadqiqotlari natijasida Qo`qon xonligi tarkibida bo`lgan qirg`iz qabilalarining turmush tarzi, ularning xo`jalik madaniy an`analari va urf odatlari bilan birgalikda, Qo`qon xonligida qirg`izlarning siyosiy va ularda sodir bo`lgan o`zgarishlar haqida keng ma`lumotlar berilgan. Qo`qon xonligida ko`plab qabilalarning istiqomat qilishi bevosita xonlikning siyosiy hayotiga qabila boshliqlarining aralashuvi va ular o`rtasida doimiy nizolarning kelib chiqishiga sabab bo`lgan edi.

V. M. Ploskixning “Kirgizы i Kokandskoe xanstvo” kitobida qirg`izlarning turli qabilalarga bo`linganini yozib o`tgan. Ulardan: Adigine, Djoru, Bargi, Byoryu, Kara-bagish, Paygut, Avat, Qo`sh-tamg`a, Mongol, Kushchu, Munduz, Basiz, Kesek, Teit, Nayman, Qirg`iz-qipchoq, Chon-bagish, Dyoyoles, Sart-qipchoq kabi qabilalar mavjudligi haqida ma`lumotlar berilgan<sup>32</sup>. Ushbu qabilalar 4 ta yirik qabila ittifoqlariga birlashgan edi. 1) “O`ttiz urug`” (O`ng qanot), 2) “O`ttiz urug`” (Chap qanot), 3) “Ichkilik” (O`ng qanot), 4) “Ichkilik” (Chap qanot)<sup>33</sup>.

---

<sup>32</sup> Плоских В. М. Киргизы и Кокандское ханство. Фрунзе, Илим., 1977. С. 79.

<sup>33</sup> Джамгерчинов Б. Очерки политической истории Киргизии 19 века. Фрунзе, Кыргызистан., 1966. С. 397.

Yuqorida nomlari sanab o`tilgan qabila va urug`lar Qo`qon xonligi tarkibiga turli davrlarda qo`shib olingan.

1991-yildan keyingi davrda MDH mamlakatlari tadqiqotchilari, jumladan, qozog`istonlik, qirg`izistonlik va rossiyalik olimlar – S. Soodanbekov, T. Beysembiyev, Yu. Lunyov, N. Terletskiylar Qo`qon xonligi tarixiga oid tadqiqotlar olib bordilar.

S.Soodanbekov 2004-yilda Bishkekda o`zining “Qo`qon xonligining ijtimoiy va davlat tuzumi” deb nomlangan monografiyasini e`lon qildi. Ushbu asarda muallif asosan rus manbalariga asoslanib, Qo`qon xonligining ijtimoiy tuzumi va davlat boshqaruvi tizimini tahlil etdi. Ammo bu asar qator kamchiliklardan xoli emas. Uning asosiy kamchiligi shundan iboratki, u o`z asarini yaratishda faqat rus tadqiqotchilarining asarlaridan foydalanib, mahalliy muarrixlarning asarlaridagi ma`lumotlarga e`tibor qaratmagan. Albatta, xonlik tarixini mahalliy muarrixlarning asarlarisiz o`rganib, bu davrda kechgan tarixiy jarayonlarga xolis baho berib bo`lmaydi. Bu ko`p hollarda notug`ri ilmiy xulosalar chiqarishga olib keladi. Jumladan, S.Soodanbekov Qo`qon xonligidagi oliy kengash haqida yozar ekan, markaziy boshqaruvning bu muhim organi Umarxon (1810-1822) davrida tashkil etilgan, deb e`tirof etadi. Vaholanki, mahalliy tarixchilarning asarlarida Qo`qonning dastlabki hukmdorlari zamonidayoq kengash faoliyat ko`rsatganligi haqida ma`lumotlar mavjud.

Aynan ana shunday kamchilik rossiyalik olim Yu. Lunyovning 2004-yilda e`lon qilingan “O`zbek xonliklarining davlat va huquqi (XVI-XIX asrlar)” nomli asariga xosdir. Mahalliy manbalarni e`tiborga olinmaganligi tufayli bu muallif ham tadqiq etilayotgan muammoni chuqur va ob`ektiv tarzda yoritib bera olmagan.

Aytish kerakki, Markaziy Osiyo respublikalarida o`rta asrlar tarixini birlamchi manbalar ma`lumotlari asosida o`rganish, yangi manbalarni ilmiy muomalaga kiritish bilan faol shug`ullanayotgan olimlar ham bor. Ulardan biri T. Beysembiyev bo`lib, u Muhammad Yunus Toib qalamiga mansub “Tarixi Aliquli Amirlashkar” asarini 2003-yilda Londonda ingliz tilida faksimil nusxasi bilan e`lon qildi. Bundan tashqari, T. Beysembiyev qo`qonlik tarixnavislar asarlariga

tayanib, Toshkent va Janubiy Qozog`istonning Qo`qon xonligi davridagi ma`muriy boshqaruvini tadqiq etgan.

Rossiyalik tadqiqotchi N. Terletskiy Qo`qon tarixi, xususan, Umarxon (1810-1822) va uning hukmronligi davrini yoritib beruvchi Mirzo Qalandar Mushrif Isfaragiy qalamiga mansub “Shohnomai Nusratpayyom” va Fazliy Namangoniyning “Umarnoma” asari ustida tadqiqot olib bormoqda. Bu o`rinda qayd qilish lozimki, Mirzo Qalandarning o`zi Umarxon davrida markaziy boshqaruv tizimida qoziaskar lavozimida va Isfarada qozilik lavozimlarida faoliyat yuritgan. Bu haqda N. Terletskiy, Fazliy va Hozik asarlaridan Mirzo Qalandarning qozilik faoliyati to`g`risidagi ma`lumotlarga asoslanib yozadi. Shu jihatdan mazkur asarning Qo`qon xonligi boshqaruv tizimini o`rganishdagi ahamiyati kattadir.

Qo`qon xonligi tarixini o`rganishga horijiy tadqiqotchilar ham qisman bo`lsada, hissa ko`shganlar. Ular jumlasiga ingliz, yapon, turk olimlarini kiritish mumkin. Ularning asarlarida xonlik tarixining ayrim jihatlarini yoritib beruvchi ma`lumotlar uchraydi. Ayniqsa, bu o`rinda Qo`qon xonligi tarixi bo`yicha tadqiqot olib borayotgan yapon tadqiqotchisi Yayoi Kavaxaraning ishlari diqqatga sazovordir. Tadqiqotchi o`zining ishlarida Qo`qon hukmdorlari hayoti va faoliyati, xojalar va ularning xonlik ichki va tashki siyosatidagi o`rnini tahlil etishga alohida e`tibor qaratadi.

Qo`qon tarixi bo`yicha A. Xoldsvort va B. Mans tomonidan ingliz tilida chop etilgan asarlarda xonlikning siyosiy, ijtimoiy–iqtisodiy hayoti, ma`muriy-boshqaruv tizimi hususida fikr yuritib, ular bo`yicha tegishli xulosalar berishga harakat qilingan. Biroq, ularning ushbu mavzuga oid mulohazalari ayrim kamchiliklardan ham xoli emas. Xususan, M. Xoldsvord Qo`qon xonligining faqatgina 1798-yildan 1876-yilga qadar Ming sulolasi xonlari qo`lida bo`lib, xonlik tarkibiga Marg`ilon, Qo`qon va Namangan viloyatlari kirgan, deb noto`g`ri mulohaza yuritadi. B. Mans ham o`z asarida xuddi shunday xatoni takrorlab o`tadi. Ba`zi inglizzabon tadqiqotchilar, jumladan Yu. Bregel va E. Oldvord esa bu masalaga jiddiy e`tibor qaratib, tarixiy jarayonlarni to`g`ri tahlil etishga harakat qilganlar. Xususan, ushbu tadqiqotchilar M. Xoldsvort hamda B. Mansdan farqli

ravishda xonlikning tashkil topishi 1710-yilda sodir bo`lganligini to`g`ri ko`rsatishadi<sup>34</sup>.

Xonlik tarixini o`rganishga turk olimlari ham katta hissa qo`shganlar. Jumladan, turk tarixchisi M. Sarayning asarlari Qo`qon xonligi hukmdorlari bilan Turk sultonlari o`rtasida olib borilgan aloqalar, xususan, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, diplomatik munosabatlarga bag`ishlangan bo`lib, ularda O`rta Osiyoda mavjud bo`lmagan, Turkiyada saqlanayotgan qo`lyozmalar va arxivlardagina mavjud muhim ma`lumotlar o`rin olgan. Shu jihatdan turk olimining asari muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xorijiy mamlakatlar olimlari ham Qo`qon xonligi tarixining ayrim jihatlarini yoritishga o`z hissalarini qo`shdilar. Ammo qator chet ellik mualliflar xonlik tarixiga oid mahalliy manbalarni chuqur tahlil etmaganliklari sababli bu masalada ba`zi xatoliklarga yo`l qo`yganlar. Demak, Qo`qon xonligi tarixiga oid barcha manbalarni muntazam tarzda o`rgangandagina bu ilmiy muammoni teran idrok etish mumkin bo`ladi.

Mustaqillik yillarida Qo`qon xonligining tarixini o`rganilish masalasi keng dolzarb masalalardan biri sifatida qaralishi ham xonlikning siyosiy tarixi, uning o`zbek davlatchiligi tarixida tutgan o`rni, xonlik tarkibida yashgan xalqlarning qadimdan yagona qo`shni xalqlar sifatida istiqomat qilishini taminlaganligi, qo`shni davlatlar bilan aloqalarda barcha xalqlar faol ishtirik etganligi kabi masalalarni keng o`rganilishiga keng yo`l ochib bermoqda. Shu o`rinda xonlik tarkibiga kirgan Janubiy Qo`zog`iston hududlari, Qirg`iziston, Tojikiston kabi hududlar aholisi bilan doimiy aloqalarning o`rnatilganligi masalalari ham bevosita kishini qiziqitirmay qolmaydi. Xonlikning ma`muriy boshqaruvi masalalarida ham ushbu hududlarda xonlik viloyatlarining tashkil qilinganligi, ularni boshqarish ishida ko`plab qabila zodagonlari xizmatlaridan foydalanilganligi ham Qo`qon xonligi tarixi uning tarixida faol ishtirok etgan xalqlarning manfaatlari masalasini ham kunning dolzarb masalalaridan biriga aylantirmoqda. XIX asrning 30-yillarida

---

<sup>34</sup> Арслонзода Р. Қўқон хонлиги манбашунослиги ва тарихшунослиги маърузалар матни. Фарғона. 1999. Б. 19

xonlik hududlariga qo`shni mamlakatlarning doimiy tajovuzlari, Sharqiy Turkiston hududiga Manjurlarning Sin sulolasi hukmronlik qilayotgan Xitoy davlatining doimiy harbiy yurishlari xonlikning ushbu hududdagi aholiga ko`rsatgan yordami, Sharqiy Turkistonda istiqomat qilib turgan turkiy xalqlar manfaatini himoya qilganligi ham, Qo`qon xonligi tarixini o`rganish masalasini dolzarb masalaga aylantirdi.

## **II bob. Qirg`iz va qipchoqlarning Qo`qon xonligi siyosiy hayotida tutgan mavqei**

### **2.1. Xonlikning siyosiy hayotida qipchoq va qirg`iz zodagonlarining roli**

Qo`qon xonligi ko`p millatli davlat hisoblangan. Xonlar ana shu millatlarning madadiga tayanib ish olib borishgan. Davlat boshqaruvi ishida qabila zodagonlari alohida mavqega ega bo`lib, xonning viloyatlardagi ta`siri ham qabila zodagonlariga bog`liq edi.

Qo`qon xonligining tarixini o`rganish masalasida bir narsani ta`kidlash joizki, Qo`qon xonligida yuqori hukmron tabaqaning ijtimoiy va etnik jihatdan xilma-xil bo`lishligi turli guruhlar o`rtasida muttasil davom etadigan hokimiyat uchun kurashining asosiy sababidir. Xonlikda hukmronlik qilgan xonlardan ko`pi saroy fitnalari oqibatida o`ldirilganlar, o`nlab shahzodalar amaldor va sarkardalar saroy to`ntarishining qurboni bo`lganlar. Bunday qarama-qarshi turishlar va o`zaro kurashlar Qo`qon xonligini oxir oqibatda inqirozga uchrab, chor Rossiyani mustamlakasiga aylanishiga sabab bo`lgan bosh omillardandir<sup>35</sup>.

XVIII asrning 20-yillarida Qo`qon xonligiga qarashli bo`lgan Xo`jand shahrini qirg`iz zodagonlaridan Oqbo`tabiy qirg`iz boshqarar edi. Xo`jand hokimligini Abdurahimbiy o`z qo`liga olgach, keyinchalik hokimiyat uchun kurashlarda fitna oqibatida o`ldiriladi<sup>36</sup>.

Qo`qon xonligi ijtimoiy-siyosiy hayotida tojik va qirg`izlar ham katta mavqega ega edilar. Xon qo`shinlarida ular katta kuch bo`lganlar. 92 o`zbek qabilalaridan biri deb o`zlarini hisoblovchi qipchoqlarning o`rni ham Qo`qon xonligida ancha katta bo`lgan ular xonlikning Shahrixon-Baliqchi hududlari Qoradaryo bilan Norin daryosi oralig`idagi yerlarda yashaganlar. Qirg`izlar asosan Farg`ona atrofidagi tog`larda va Ketmontepa Oloy singari tog` havzalarida ko`chib yurub chorvachilik bilan shug`ullanganlar. Ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida qirg`iz va qipchoqlarning ta`siri vaqt o`tgan sari ortib borgan.

---

<sup>35</sup> Shamsuddinov R. Karimov Sh. Ubaydullayev O`. Vatan tarixi. -T.: Sharq. 2010, B. 100.

<sup>36</sup> Боотаева Б. Кыргызы между Кокандом, Китаем и Россией. Бишкек. Илим. 1995. С. 19.



Qo`qon xonligi ijtimoiy-siyosiy hayotida qirg`iz zodagonlarining mavqeining oshib borishi Qo`qon xoni Abdulkarimbiy nomi bilan bog`liq. Uning hukmronligi davrida mamlakatning shimoli bo`ylab tashkil topgan Jung`or (Oyrat) xonligi xonlik yerlariga bosqin uyishtira boshlaydi. 1741-yilda Farg`ona vodiysiga jung`or qabilalarining hujumlari boshlanadi. Ana shunday vaziyatda Abdulkarimbiy qirg`iz-qipchoq qabilalari va O`ratepa hokimi Fozilbiy ko`magida ularga qarshi kurash olib boradi va jung`orlarni 1745-yilda mamlakat hududidan quvib chiqaradi. Bu esa qipchoq va qirg`iz qabilalarining mamlakat siyosiy nufuzining oshishiga va ularni Farg`ona vodiysiga ko`chib kelish jarayonini birmuncha tezlashuviga olib keladi.

1745-yilda Farg`ona vodiysiga bostirib kirgan jung`or qabilalariga qarshi birinchi bor o`zbek-qirg`iz ittifoqi tashkil topgan. O`sha yili jung`orlar xoni Galden-Seren Sin imperiyasi yordamida ikki asosiy qo`mondoni Septen va Xotonlarni Farg`ona vodiysiga jo`natadi<sup>37</sup>. O`sha davrda jung`orlarning 10 ta kichik zambaragi va 20 ming kishilik qo`shiniga qarshi ming kishilik qirg`iz qo`shini va Qo`qonning nomuntazam qo`shini jang qiladi. Ushbu urush natijasida jung`orlar qo`shini mag`lubiyatga uchraydi va ularning yarimidan ortig`i qirib tashlanadi.

Lekin, jung`orlarga qarshi kurash har doim ham muvaffaqiyatli bo`lmagan. “Tarixi Shohruhiy” asari muallifining yozishicha, Abdulkarimbiy jung`orlardan yengilib, hatto ular huzuriga Bobobek ismli o`g`lini garov tariqasida jo`natishga majbur bo`ladi. Lekin bu qaramlik qisqa vaqt davom etib, Abdulkarimbiy Qo`qonda o`z hukmronligini tiklashga muvaffaq bo`ladi. Farg`ona vodiysi chekka hududlarida yashovchi qirg`izlar jung`orlarga qarshi kurashni davom ettiradilar. 1748-yili ular Dorji boshchiligidagi jung`orlar qo`shinini yengishga muvaffaq bo`ladi. 1749-yilning bahorida jung`orlarning Lama-Dorji boshchiligidagi qo`shini qirg`izlar tomonidan mag`lubiyatga uchratiladi.

---

<sup>37</sup> Плоских В. М. Киргизы и Кокандское ханство. Фрунзе. Илим. 1977. С. 72

XVIII asrning 60-yillaridan boshlab, Qo`qon xonligining harbiy qudrati ortib, qo`shni hududlar hisobiga mamlakat hududini kengaytirish jarayoni kuchayadi. Erdonabiy hukmronlik qilgan davrga kelib Abdulkarimbiy davrida vujudga kelgan harbiy ittifoq endi qirg`izlar yashaydigan hududlarni xonlik tarkibiga qo`shib olish siyosati bilan almashadi. Qirg`izlar orasida boshlangan o`zaro feodal urushlar oqibatida ushbu qabilalarning harbiy salohiyati ancha pasayib ketgan, bundan tashqari qirg`iz qabilalari orasida boshlangan o`zaro urushlar xonlikning shimoli-sharqiy qismida beqaror holatni vujudga keltiradi, bu esa Erdonabiyni ushbu hududlardagi o`zaro urushlarga chek qo`yish maqsadida ularga qarshi yurish qilishiga sabab bo`lgan edi.

1762-yilda Erdonabiy qo`shinlari O`zgan shahrini egallaydi. Ana shunday vaziyatda qirg`izlarning ichkilik, adigan, mongoldor qabilalari Hojibiy boshchiligida qo`zg`olon ko`taradi. Ushbu qo`zg`olonni Erdonabiy qo`shinlari bostiradi. Shu tariqa O`zgan va O`sh shaharlari Qo`qon xonligi tasarrufiga kiritiladi<sup>38</sup>.

XIX asr boshlariga kelib Xitoyda hukmronlik qilayotgan manchjurlarning Sin sulolasi Sharqiy Turkistonda istiqomat qilib turgan qalmoq, uyg`ur, qirg`iz, qoraqalpoq va qozoq qipchoqlari qabilalarga soliqlarni haddan tashqari oshirib yuborishi va ularning ichki siyosatiga aralashuvi natijasida ushbu qabilalar Farg`ona vodiysiga ko`plab ko`chib kela boshlaydi.

Qo`qon xonligi XIX asrning 40-yillaridan boshlab siyosiy beqarorlik davriga kirdi va bu holat 1876-yilgacha davom etdi. Tabiiyki, bunday holat xonlikning zaiflashuviga sabab bo`ldi. Oqibatda xonlikning siyosiy hayotiga o`zbek qabila boshliqlaridan tashqari ko`plab xalqalarning yirik zodagonlari ham aralasha boshlagan edi. Ana shu qabilalar orasida XIX asrning 40-yillaridan boshlab qipchoq va qirg`izlar alohida nufuzga ega bo`la boshladi. Bu holat xonlikdagi siyosiy vaziyatni izdan chiqishiga, o`zaro qirg`inlar davriga kirishiga sabab bo`ldi.

---

<sup>38</sup> Боотаева Б. Кыргызы между Кокандом, Китаем и Россией. Бишкек. Илим. 1995. С. 21.

Qo`qon xonligida qirg`iz va qipchoq qabilalarining xonlik ichki hayotida katta nufuzga ega bo`lishi, Qo`qon xoni Sheralixon nomi bilan bog`liq. Uning hukmronligi davrida xonlikda qipchoq qabilalari katta nufuzga ega bo`lib, jiddiy siyosiy kuchga aylangan edi. Qipchoq qabilasi sardorlaridan biri Musulmonqul mingboshi lavozimini egallab, mamlakat boshqaruvini o`z qo`liga olgan edi. 1842-yilda Amir Nasrullo Qo`qon xonligini zabt etgach, xonlikda siyosiy beqarorlik vujudga keldi. Bunga sabab Amir Nasrulloning Qo`qon noibligiga qo`ygan odami Ibrohim dodxoh xonlikda mavjud bo`lgan soliqlardan tashqari, Buxoro amirligida joriy etilgan soliqlarni ham aholidan undira boshladi. Oqibatda mamlakat aholisning turmush darajasi pasayib, xalq ancha qiynalgan edi. Bunday holat esa mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga salbiy ta`sir etmay qolmas edi. 1842-yilga kelib Norbo`tabiy avlodlaridan xonlik taxti uchun nomzod topilmay, yoshligidan qirg`izlar orasida katta bo`lgan Sheralixon xonlik taxtini egallagach mamlakatda qirg`iz zodagonlarining mavqeyi ortib bordi. Sheralixon hukmronligi davrida Idrisqulibiyning o`g`li Muhammadnazarbek<sup>39</sup> hokimiyatda asosiy ahamiyat kasb eta boshladi. Lekin uning ortib borayotgan mavqeyidan tashvishga tushgan Sheralixon Muhammad Nazarbekni hokimiyatdan chetlatishga qaror qildi va unga qarshi fitna tayyorlay boshladi. Muhammadnazarbek fitnadan xabar topgach Dashti Qipchoqqa qochadi. Dashti Qipchoqqa borgach qipchoqlarning yo`lboshchisi Musulmonqul bilan kelishib, Qo`qonga Sheralixonga qarshi yurish qiladi. Shu maqsadda ular 1843-yilda Sirdaryodan o`tib, Chust shahrini egallaydi.

Muhammadnazarbek va Musulmonqulning Chustni egallagani Sheralixonga ma`lum bo`lgach, Shodi mingboshi boshchiligida Chustga qo`shin yuboradi. Lekin, uning qo`shinlari mag`lubiyatga uchrab, Shodi mingboshi ham jangda halok bo`ladi. 1844-yilning bahorida Muhammadnazarbek va Musulmonqul birgalikda Qo`qonga yurish qiladi. Ularning Qo`qonga yurishlari paytida ko`plab zodogonlar o`z qo`shini bilan kelib ularga qo`shiladi. Kelib qo`shilganlar orasida Andijon hokimi Karimquli dodxoh ham bor edi<sup>40</sup>.

---

<sup>39</sup> Мухаммадхакимхон тўра. Мунтахаб ат-таворих. -Т.: Yangi asr avlodi., 2010. Б. 677

<sup>40</sup> Ўша асар. Б-680

Vaziyat tizginini o'z qo'ldan chiqqanini anglagan Sheralixon tezda Muhammadnazarbek va Musulmonqul huzuriga elchilikdan qilib Abdurahmon devonbegini yuboradi. Lekin, yuborilgan elchilardan hech qanday natija bo'lmaydi. 1844-yilning 31-may sanasida Muhammadnazarbek va Musulmonqul qo'shinlari Qo'qon shahrini egallaydi. Ayni shu davrdan boshlab xonlikda asosiy boshqaruv ularning qo'liga o'tdi. Sheralixon bo'lsa qo'g'irchoq hukmdorga aylanib qoldi va uning nomidan davlat ishlarini Musulmonqul mingboshi yurgiza boshladi.

Sheralixonning bunday ahvolga tushib qolishi mamlakat aholisining noroziligiga sabab bo'lib, 1845-yilda uning hukmronligiga qarshi O'sh aholisi qo'zg'olon ko'taradi. Qo'zg'olonni bostirish uchun Sheralixon Musulmonqul mingboshi boshchiligida katta qo'shin yuboradi. Uning yo'qligidan foydalangan Olmixonning Samarqandda istiqomat qilib turgan o'g'li – Murodxon Sheralixonni o'ldirib, xonlik taxtini egallaydi va o'zini Buxoro amirining noibi deb e'lon qiladi. Buxoro amirini 1842-yilda Qo'qonda olib borgan siyosatidan norozi bo'lgan qo'qonliklar Murodxonni qo'llab-quvvatlamadi. Musulmonqul bo'lib o'tgan hodisadan xabardor bo'lib, o'z qo'shini bilan Namanganga keladi va qizini Sheralixonning o'g'li Namangan hokimi Xudoyorga nikohlab beradi. Musulmonqul o'z qo'shini bilan Qo'qonga keladi va Murodxonni qatl ettirdi, kuyovi Xudoyorni xon qilib ko'taradi.

Musulmonqul Sheralixonning yana bir og'li Sarimsoqbekning xon bo'lish niyatini bilgach, uni xon deb e'lon qilishga va'da berib, Toshkentdan Qo'qonga kelishga taklif qiladi, lekin uni o'ldirish uchun yashirin ravishda buyruq beradi. Oqibatda yosh Xudoyorxon mamlaktning yakka hukmdori bo'lib qoldi. Uning nomidan mamlakatni amalda Musulmonqul boshqarar edi. Shu tariqa Qo'qon xonligi tarixida qipchoqlar hukmronligi davri boshlandi<sup>41</sup>.

Xudoyorxon hukmronligining dastlabki davrlarida hech qanday davlat ishlariga aralashmas edi. Chunki Musulmonqul uning hech kim bilan aloqa qilishini hohlamas, uni xon o'rdasidan tashqariga chiqishiga ham yo'l qo'ymas edi.

---

<sup>41</sup> Бобобеков Х. Қўқон тарихи. -Т.: Фан. 1996. Б. 36

Shunday qilib xonlikdagi butun hokimyat Musulmonqul qo`lida to`plangan edi. 1853-yilga kelib, vaziyat tubdan o`zgardi. Xudoyorxon Toshkentdan chaqirilgan qo`shin yordamida xonlikda qipchoqlar hukmronligini tugatish maqsadida “qipchoqlar qirg`ini”ni uyishtiradi. Bu qirg`in natijasida 20 ming qipchoqlar o`ldiriladi. Shunday qilib, xonlik tarixida Musulmonqul hukmronligiga barham berilib, qipchoqlarning mavqei zaiflashdi<sup>42</sup>.

Mallaxon hukmronligi davrida (1858-1862) xonlikda yirik davlatmansablarini asosan qirg`izlar egallab olgan edi. Masalan, Toshkent hokimligiga O`tamboy qo`shbegini, Xo`jand hokimligiga Bobobek dodxoh qirg`izni, Baliqchihokimligiga Shodmonxo`jani tayinlagan edi. Mallaxon hukmronligi davrida qirg`izva qipchoqlarning yana bir zodagoni Alimqulning mavqei oshib bordi. U xonningeng ishonchli va yaqin kishilaridan biri bo`lib qolgandi. Alimqul xonlikda eshikog`aboshi lavozimidan vazirlik darajasigacha ko`tarilgan. Bir qancha vaqt Chimyon hokimi bo`lib faoliyat ko`rsatgan. Bu davrda Alimqul xonlikda qirg`iz vaqipchoqlar hukmronligini mustahkamlashga harakat qilgan. Mallaxon o`ldirilgach, uning o`rniga Sarimsoqxonning 17 yoshli o`g`li Shohmurod xon deb e`lon qilinadi. U taxtga o`tirgach, otasining qotillarini topib o`ldirtira boshlaydi. Qotillikda qo`libor Toshkent hokimi Qanoatning buyrug`i bilan Shohmurodni o`g`irlab ketadilar. So`ng Qanoat Xudoyorxonni xon deb e`lon qiladi. Alimqul esa taxtga uningbirodari Sulton Murodni o`tqazmoqchi bo`lib, Xudoyorxonga qarshi kurash boshlaydi. Nihoyat, 1863-yil 9-iyulda Alimqul Mallaxonning o`g`li SultonSayyidxonni Qo`qon xoni deb e`lon qiladi. Xudoyorxon Buxoroga Amir Muzaffar huzuriga ketishga majbur bo`ladi. Bu ko`rsatgan xizmatlari uchun SultonSayyidxon Alimqulga “Amiri lashkar” unvonini beradi. Alimqul amalda xonlikni o`zi idora qiladi<sup>43</sup>.

Xudoyorxon hukmronligi davrida qipchoq va qirg`izlar yana bir bor xonlik taxtiga o`z hukmdorlarini qo`yishga muaffaq bo`lishgan. 1865-yilda qipchoq va qirg`izlarning qo`shinlari Sirdaryo bo`yida joylashgan Saroy qishlog`iga kelib

---

<sup>42</sup> Бобобеков Х. Кўкон тарихи. -Т.: Фан. 1996. Б. 33-34

<sup>43</sup> Muhammad Yunus Toib. Tarixi Alimquli Amirlashkar. Sharq yulduzi 1996. 1-son. Б. 22

joylashadilar. Bir necha kun shu yerda maslahat qilganlaridan so`ng, Shodibekning 16 yoshli chevarasi Xudoyqulbekni Qo`qon xonligi taxtiga o`tkazdirish uchun uning huzuriga Mirzo ibn Norqo`zi dodxox qirg`izni elchi qilib yuboradilar. Mirzo Xudoyqulbek 1865-yil 31-may sanasida Qo`qon xonligi taxtini egalladi. Shu tariqa xonlikning markazi Qo`qon shahri yana qipchoq va qirg`izlar tomonidan egallandi<sup>44</sup>.

Xudoyqulbek xonlik taxtida 14 kun hukmronlik qildi. Bu davr mobaynida Bek Muhammad qipchoq mingboshi lavozimini, Mirza Ahmad esa dasturxonchi lavozimini egallab oldi. Bu davr mobaynida qipchoq va qirg`izlar Qo`qon shahar va qishloqlarini beayov taladilar. Ushbu holatdan charchagan aholi ularni shahardan haydab chiqarishga muyassar bo`ldilar. Ayni paytda ruslar bu davrda xonlikning shimoliy qismlarini deyarli egallab olishgan edi. Toshkent shahri to`liq ruslarning tasarrufida edi. Qo`qondan surib chiqarilgan qipchoq va qirg`izlar shahar yaqinidagi G`amoyil qishlog`ini o`zlarining qarorgohiga aylantirib, shu hududdagi aholiga turlicha soliqlar sola boshlagan edilar. Ayni paytda Xudoyorxon Buxoro amiri Amir Muzaffar yordamida xonlik taxtini egallashni maqsad qilib Amir Muzaffar huzuriga elchi yuboradi. 1865-yil 15-iyulida Xudoyorxon xonlik taxtini Amir Muzaffar yordamida qayta egalladi. Bu davrda qipchoq va qirg`izlar Qo`qon shahrini Mo`yi Muborak mavzeiga keladilar, lekin hokimyat qo`ldan ketganligini ko`rib, Marg`ilon tomonga qarab yo`l oladilar<sup>45</sup>.

Amir Muzaffar o`z qo`shini bilan Qo`qonga kirib kelgach, qipchoq va qirg`izlarning ortidan Olloyorbek mang`itni katta qo`shin bilan yuboradi. Axxi mavzeyida 600 kishilik Yusufboy Mirzo, Eltarkub bahodir va Xol posnod qirg`iz boshliq qipchoq va qirg`iz qo`shinlari Olloyorbek boshliq Buxoro qo`shilari o`rtasida jang bo`lib o`tdi va jangda buxoroliklarning qo`li baland kelib, ularning boshliqlarini qo`lga olib Amir Muzaffar huzuriga jo`natadi. Axxi mavzeyidagi jangdan keyin Olloyorbek O`sh shahri tomonga yo`l oladi, lekin shaharni qo`lga kiritmay Marg`ilonga qaytadi. Qirg`iz va qipchoqlar esa o`z qo`shinlari bilan

---

<sup>44</sup> Avaz Muhammad Attor Xo`qandiy. Tarixi Jahonnomayi.// Sharq yulduzi. 1991. 8-son. B. 25

<sup>45</sup> O`sha manba. B. 26

O`sh shahridan chiqib, Qoshg`ar tarafga yo`l oladilar. Ulardan qolganlari o`z yetakchilari bilan Xudoyorxonga sovg`a-salomlar yuborib, undan uzr so`raydi. Qirg`iz va qipchoqlarning yirik zodagonlari Abdurahmon Oftobachi (Musulmonqulning o`g`li), Muhammad Diyor qushbegi, Toshqora, Sarimsoq dodxoh qirg`izlarga Xudoyorxon lavozimlar beradi<sup>46</sup>.

Xudoyorxonning hukmronligidan norozi bo`lgan zodagonlar unga qarshi harakatlarni to`xtatmaydi. Hattoki, qirg`iz zodagonlaridan biri Muhammad Ayyubiy Marg`ilon hokimi Sulton Murodbek oldiga borib, uni xonlik taxtiga o`tirishini taklif qiladi. Lekin, Muhammad Ayyubiy Sulton Murodbek asir olib qatl ettiradi. Bu davrda Sarimsoq qirg`iz ham xonga qarshi harakatda bo`lganligi uchun Qo`qondan qochib ketadi. Toshqora qipchoq esa ruslar tomonga o`tib ketadi. Mamlakatdagi ichki vaziyat ancha beqarorlashib boradi. Xudoyorxon hukmronligi oxirlariga kelib esa mamlakatdagi ahvol ancha yomonlashib ketdi. XIX asrning 70-yillari boshlariga kelganda ahvol shu darajaga borib yetdiki, mamlakat ichki hayotida katta nufuzga ega bo`lgan zodagonlarning hokimiyat uchun olib borayotgan kurashlariga qarshi xalq qo`zg`olonlari alanganib ketdi. Xonlikda ko`tarilgan xalq qo`zg`olonlarining doimiy takrorlanishi xonlikning siyosiy ahvolini tushkin holatga solib qo`ydi. Abdurahmon Oftobachi va Iso Avliyolarning xonga qarshi ko`targan isyonlari esa mamlakatda xon hokimiyatini zaiflashtirdi. Xonlik turli qabila boshliqlarining taxt uchun kurashlari iskanjasida qolib, qo`shni davlatlarning xonlik ichki ishlariga zo`r berib aralashuviga ham olib keldi. Buxoro amirining xonlik ichki ishlariga aralashuvi esa xalqning noroziligiga sabab bo`lib, tez-tez xalq isyonlarining ham ko`tarilishiga olib keldi. Bu davrda hokimiyat uchun astoyidil kurash boshlagan qirg`iz va qipchoq qabilalari esa hokimiyatni qanday bo`lmasin qo`lga kiritish umidida mamlakat ichida doimiy kurashni avj oldirib yuboriladi.

XIX asrning 70-yillarida hatto ulardan soxta xonlarning ham hokimiyatga ko`tarilishi jarayoni sodir bo`ldi. Bu esa xonlikni juda og`ir ahvolga solib qo`ydi

---

<sup>46</sup> Avaz Muhammad Attor Ho`qandiy. O`sha joyda.

va Qo`qon xonligi o`zining davrlar davomida shakllanib kelgan boshqaruv tizimini yo`qotdi, xonlikning harbiy qudrati zaiflashdi, xonlik aholisining turmush tarsi keskin pasayib ketdi. Oqibatda ko`pdan buyon O`rta Osiyo hududini o`zining mustamlakasiga aylantirishni ko`zlab turgan chor Rossiyasining harbiy yurishlar boshlashiga olib keldi. 1875-yilga kelib esa Qo`qon xonligi chor Rossiyasi tomonidan bosib olishning yakuniy bosqichi boshlandi va 1876-yilga kelib xonlik hududi to`liq bosib olindi. Shu tariqa, 166 yillik hukmronlikdan so`ng Qo`qon xonligi tarix sahnasidan ketdi. Uning hududida esa Turkiston general-gubernatorligi tarkibida bo`lgan Farg`ona viloyati tashkil etildi.

## **2.2. Qipchoq va qirg`izlar yashaydigan hududlarning ma`muriy boshqaruvi**

XIX asrning birinchi yarmida Qo`qon xonligi hududiy jihatdan O`rta Osiyodagi yirik davlat edi. Qo`qon xonligi sharqda Sharqiy Turkiston, g`arbda Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan chegaradosh edi. Xonlik hududi shimolda uchala qozoq juzlarini batamom o`ziga bo`ysundirib Rossiya bilan chegaralanardi. Xonlikning janubiy chegaralari Qorategin, Ko`lob, Darvoz, Sho`g`non singari tog`li hududlarni o`z ichiga olar edi. Bu hududlar uchun Buxoro amirligi bilan qonli urushlar bo`lar, ular qo`ldan-qo`lga o`tardi. Qo`qon xonligi hududi Buxoro amirligi va Xiva xonligidan farqli o`laroq sersuv daryolari, so`lim vodiylari, serhosil yerlari ko`p edi. Xonlikning markazi Qo`qon, Marg`ilon, O`zgan, Andijon, Namangan kabi yirik shaharlar joylashgan Farg`ona vodiysi edi. Toshkent, Chimkent, Turkiston, Avliyoota, Pishpak, Oqmasjid kabi yirik shaharlar ham Qo`qon xonligi tasarrufida edi. Qo`qon xonligida aholi nisbatan zich joylashgan bo`lib, taxminan 3 mln kishi edi. Xonlikning poytaxti Qo`qonda sakson ming, Toshkent shahrida oltmish ming kishi yashar edi. Qo`qon xonligi aholisining ko`pchilik qismi o`zbeklar edi. Shuningdek, xonlik aholisi qipchoqlar, tojiklar, qirg`izlar, qozoqlar, uyg`urlar, qoraqolpoqlardan iborat bo`lgan. Bular bilan yonma-yon yahudiylar, tatarlar, hindlar vakillari yashar edi<sup>47</sup>.

---

<sup>47</sup> Бобобеков Х. Қўқон тарихи. -Т.: Фан. 1996. Б. 54



Qo`qon xonligi Marg`ilon, O`sh, Andijon, Namangan, Shahrixon, Baliqchi, Navqat, Chust, Buloqboshi, Aravon, Koson, Mahram, So`x, Bobodarxon, Xo`jand, Toshkent, Turkiston va O`ratepa singari 18 beklklariga bo`lingan. Beklar hokim yoki parvonachi deb nomlangan Qo`qon xonligida Beklarbegi hisoblangan - Toshkent begi parvonachi yoki qushbegi deb atalgan. Toshkent bekligi o`z qo`li ostidagi yerlarga to`la hokim bo`lib, u chet davlatlar bilan o`zaro iqtisodiy va diplomatik munosabatlar bog`lash huquqiga ega edi.

O`rta Osiyoning boshqa xonliklari kabi Qo`qon xonligida ham xonning huquqi mutlaqo chegaralanmagan edi. Xonlikda quyidagi mansablar mavjud bo`lgan: mingboshi, otaliq, shayxulislom, qozikalaon qushbegi, mextar parvonachi, naqib, dodxoh, eshik og`asi, inoq, shig`avul, to`qsoba mirokur qorovulbegi va boshqalar. Xo`jakalon, naqib, mirasad, sadr, sudur, uraq mansablari faqat Muhammad payg`ambar va to`rtta xalifalar avlodlariga mansub shaxslarga taqdim qilingan.

Shayxulislom, mavlavi, qoziqalon, qoziul-quzzot, qozi askar, qozi mutlaq, qozi rais, mufti, a`lam, mudarris, imomlar shunday shaxslar bo`lishi kerak ediki, ular musulmon maktablarida ta`lim olgan bo`lishlari shart edi. Shayxulislom unvonini olish uchun bilimdon, o`qimishli bo`lish haqidagi hujjatdan tashqari tayinli nasl-nasab ham talab qilingan. U xo`jalar avlodidan bo`lishi lozim edi. Shahardagi tungi tartibni qo`rboshi boshchiligidagi ma`lum miqdordagi soqchi (mirshab)lar nazorat qilishganlar. Shuningdek, muxtasiblar lavozimiga odatda axloqiy sifatleri bilan ajralib turgan va shariat qonunlarini yaxshi bilgan shaxslar tayinlangan, ular rais-a`lam deb ham atalgan.

Qo`qon xonligiga Janubiy Qozog`iston va Qirg`iziston hududlari Olimxon va Umarxon hukmronlik qilgan davrda qo`shib olingan. Ushbu hududlarning ma`muriy boshqaruvi asrlar davomida shakllanib kelgan boshqaruv tizimlariga asoslagan edi. Qirg`iz va qipcholar yashaydigan hududlar egallangandan so`ng, ushbu hududlar alohida ma`muriy o`lka sifatida boshqarilgan. Manbalarni o`rganish davomida shuni xulosa qilish mumkinki, xonlikning ma`muriy boshqaruv tizimi haqida ma`lumotlar deyarli to`liq holda keltirilmagan. Xonlik

viloyatlarining ma`muriy boshqaruvi Buxoro amirligidagi ma`muriy boshqaruv tizimidan deyarli farq qilmagan<sup>48</sup>. Xonning davlat boshqaruvi ishidagi asosiy tayanchi yirik yer-mulk egalari va qabila zodagonlari hisoblangan.

XIX asr o`rtalarida chek yerlar yanada ko`paydi. Xususan Xudoyorxon zamonida xon va uning avlodlari qo`lida juda ko`p chek yerlar to`plangan. Xudoyorxon, Sultonmurodbek, Nasriddinbek, O`rmonbek va boshqalar nomidagi cheklar 1845-1875 yillarda ayniqsa kengaygan. O`rganilayotgan davrda dehqonlar va mohir irrigatorlarning ulkan mehnati natijasida murakkab suv xo`jaligi barpo etildiki, unga yirik daryolardan suv olish ishlarini tashkil etish, turli xil suv olg`ich inshootlarni qurish, kanallarni tozalash, suvni undan foydalanuvchilarga taqsimlash kirardi.

Xonlikning davlat boshqaruvi masalalarida asosan o`zbek qabila boshliqlari bilan bir qatorda qipchoq va qirg`iz qabila boshliqlari ham yetakchi mavqega ega bo`lishgan. Xonlikdagi yirik viloyatlar va beklklarni xonning eng yaqin zodagonlari tomonidan boshqarilgan. Ushbu viloyat va beklklar xonlikning yirik iqtisodiy-siyosiy va boshqaruv markazlari hisoblangan. 1842-yilda Qo`qon xonligi taxtiga SHERALIXON keladi. Uning Qo`qonda hokimyatni egallashida qirg`iz zodagonlaridan Yusuf ismli zodagon asosiy rol o`ynaydi. SHERALIXON Yusufni mingboshi va xonlik qo`shinlarining sarkardasi etib tayinlaydi. SHERALIXONNING dastlabki amalga oshirgan ishi yirik markaziy shaharlari va yirik viloyatlarida yangi boshqaruv tizimini o`rnatadi<sup>49</sup>. Mahalliy zodagonlar va qirg`iz feodallari xonning asosiy tayanchiga aylanadi. Dastlabki davrlarda xonlikda yuqori davlat lavozimlari va yuqori mansablar deyarli bo`lmagan. Davrlar o`tib esa, yuqori lavozim vakillarining soni ortib borgan. Ularning hokimiyati xon va xonning yaqin amaldorlari ta`siri darajasiga bog`liq edi. Misol uchun, Xudoyorxon hokimyatni to`liq egallagach ko`plab davlat lavozimlarini bekor qiladi. Bir qator yuqori lavozimlar – mingboshi, qo`shbegi va hokazolarni bekor qiladi, viloyatlarni boshqarish ishini esa eng yaqin kishilaridan tayinlangan beklarga topshiradi.

---

<sup>48</sup> Плоских В. М. Киргизы и Кокандское ханство. Фрунзе. Илим. 1977. С. 108

<sup>49</sup> Плоских В. М. Киргизы и Кокандское ханство. Фрунзе. Илим. 1977. С. 109

Tarixiy manbalarda xonning yaqin amaldorlarining mamlakat boshqaruv tizimida amalga oshirgan ishlari xususida hech qanday ma`lumotlar keltirilmagan.

Mingboshi – oliy darajadagi amaldor, mamlakatda xondan keyingi darajada turgan. Umarxon hukmronligi davrida davlatning birinchi darajali vaziri hisoblangan. Davlatning ichki ishlarini boshqargan<sup>50</sup>.

Mingboshi lavozimiga ko`tarilgan Xaqquli Markaziy Tyan-Shan hududlarini xonlik tarkibiga kiritgan va hududda xonlik nazoratini o`rnatgan edi. Qirg`izlar istiqomat qiladigan ushbu hududda asosan xonlikning harbiy qo`shinlariga boshchilik qilgan. Xonlikdagi mingboshi lavozimi yagona yirik harbiy unvon hisoblangan. Mulla Niyozning bergan ma`lumotlariga qaraganda, Muhammad Alixon hukmronligi davrida qirg`iz zodagonlaridan hisoblangan Yusuf mingboshi lavozimida faoliyat ko`rsatgan. Keyinchalik Yusufni Muhammad Alixon Marg`ilonga hokim sifatida yuborgan. Uning o`rniga Haqqulini mingboshi etib tayinlagan. 1842-yilda Sheralixonning hokimyat tepasiga kelishi bilan Marg`ilon hokimi bo`lib turgan Yusuf xonlikning mingboshi lavozimini qaytadan egallaydi. Lekin, uni keyinchalik qayta Marg`ilon hokimligiga qaytarib, uning o`rniga Shodi dodxoyni mingboshi qilib tayinlaydi<sup>51</sup>.

Qo`qon xonligiga qirg`izlar yashaydigan hududlarni bo`ysundirish ishlari asosan Norbo`tabiy, Olimxon, Umarxon va Muhammad Alixonlar hukmronlik qilgan davrlarda amalga oshirilgan. Xonlikning ma`muriy boshqaruv tizimini mustahkamlash maqsadida qirg`izlar yashaydigan hududlarda asosan harbiy qal`alar bunyod qilingan. To`qmoq, Kurtka, Marka, Darut-Qo`rgon, Jungal kabilar shular jumlasidandir.

Qirg`izlar yashaydigan hududlar 4 ta ma`muriy o`lkaga bo`lingan.

1. Oloy va O`sh vodiysi, Markaziy Tyan-Shan hududlari – Andijon viloyati tarkibiga

2. Ketmontepa va Talos hududlari – Namangan viloyati tarkibiga

---

<sup>50</sup> Там же. С. 108

<sup>51</sup> Тарихи Шоҳруҳий. Б. 113, 136, 155.

3. Fargʻonaning janubi-gʻarbiy qismida joylashgan hududlar – Qoʻqon viloyati tarkibiga

4. Chu vodiysi va Issiqkoʻlning boʻylarigacha boʻlgan hududlar Toshkent viloyati tarkibiga kiritilgan edi.<sup>52</sup>

Mazkur viloyatlar qirgʻizlarni boshqarishning yirik markazlaridan hisoblanib, ularni mamlakatning yirik zodagonlari tomonidan boshqarilgan. Soliqlarning ortib borishi oqibatida qirgʻizlar Fargʻona vodiysiga yurish qilishadi va xonlikdan yagona fuqarolik talab qilishadi. Aholi soni koʻp boʻlgan Toshkent va Andijon viloyatlarida qirgʻizlarning fuqarolik holatlari qayd etilgan.

Xonlikning boshqaruv tizimida mamlakat aholisining boshqaruv ishida xon tomonidan yuborilgan dodxohlar katta vakolatga ega boʻlishgan. Dodxohlarning asosiy vazifasi xonning soliq siyosatini fuqarolarga oʻtkazdirish, chegara qalʼalariga boshchilik qilish, mamlakat aholisining barcha sohalarida boshqaruv ishlarini amalga oshirish edi.

1834-yilda Muhammad Alixon mamlakatda boshqaruv ishlarini isloh qiladi. Bunga sabab xonlikga qoʻshib olingan yangi hududlar boshqaruv tizimini tashkil qilish edi. Natijada Chu vodiysi va uning boshqaruv markazi boʻlgan Pishpak shahri hududlari Toshkent beklarbegisining vakolati doirasiga kiritib berilgan. Shu tariqa xonlikning boshqaruv tizimi qirgʻizlar orasida keng koʻlamda amalga oshirildi. Pishpakni Toshkent viloyati hokimining vakili oʻzining maʼmuriy boshqaruv markazi sifatida joriy qildi. Natijada xonlikning Chu qirgʻizlari ustidan boshqaruv ishlari toʻliq oʻrnatildi<sup>53</sup>. Tez orada Pishpak shahri Qoʻqon xonligining asosiy maʼmuriy boshqaruv markaziga aylandi. Qoʻqon xonining boshqaruv ishida beklar asosiy kuchga aylanib qolgan edi. Pishpakda boshqaruv ishlarini amalga oshiruvchi noibi xonlikning barcha chora-tadbirlarini amalga oshiruvchi bir tizim tashkil qilgan. Bundan tashqari qirgʻizlar yashaydigan hududlarda tashkil etilgan qalʼalar xonlikning asosiy harbiy qalʼalari hisoblangan. Qalʼa noiblari mavjud

---

<sup>52</sup> Плоских В. М. Указ. соч. С. 116

<sup>53</sup> Там же. С. 118

harbiy qo`shinlardan foydalanib, mahalliy zodagonlarini nazoratda ushlab turish imkoniyatiga ega bo`lgan.

Feodal tuzum asosida tashkil topgan o`zbek xonliklarining ma`muriy tuzilishi shu jumladan Qo`qon xonligida ham hukmron doiralarning manfaatini himoya qilishga asoslangan edi.

Xonning daromadini maxsus amaldorlar boshqarishgan: mirzai daftar xon xazinasining ahvoli haqida maxsus daftarga qayd qilib borgan. Sarkor va inoq xonlik xazinasiga qabul qilinadigan mahsulotlarni saqlovchi hisoblangan. Pullarning hammasini mehtar yoki xonning g`aznachisi (xazinabon) qabul qilgan, shuningdek, u xonning barcha qimmatbaho buyumlarini boshqaruvchisi ham bo`lib hisoblangan.

Odatda, vaqtinchalik hukmronlik qiluvchi guruhning eng nufuzli shaxslari xonlikdagi yaxshi lavozimlarni egallab olganlar. Barcha masalalarni hal qilish uchun xonga qarshli doimiy kengash tashkil qilingan edi. Unga xonning o`zidan tashqari otaliq, mingboshi, parvonachi, sarkor, dasturxonchi, risolachi, g`aznachi, mehtar, noib, xudaychi va xonning istagi bilan bazilar amalda esa mingboshining maslahatiga muvoffiq kiritiladi.

Xonlik hayotida ruhoniylar fuqarolar ishini hal qilishda qozilikka oid hamma ishlarni oshkor qilardilar. Qozilik ishlarini ma`lum tartibda ko`rish faqat shariat va odatlar asosida olib borilgan. Qo`qon xonligida mavjud bo`lgan harbiy unvonlar quyidagicha bo`lgan. Mingboshi – odatda, u vazirlik vazifasini birga olib borgan. Keyin pansadboshi, yuzboshi, ellikboshi, o`nboshi, to`pchiboshi, zambarakchi va boshqalar. Bulardan tashqari boshqa harbiy mansablar ham bo`lgan. Qo`qonda yashagan sarboz va to`pchilar faqat alohida vazifadagi noib, dodxohning doimiy tasarufida bo`lganlar. Urush davrida noib, dodxoh o`z qismiga harakatdagi qo`shinning hamma sarbozlarini qabul qilgan. Unga vaqtinchalik boshchilik qilishni maxsus tayinlangan amiri lashkar (bosh qo`mandon) ga topshirdi. Har bir kishi harbiy xizmatga kirishda hukumatdan ot va etik olgan, safarga chiqishdan oldin yuzboshi -2 tilla, ellikboshi - 1,5 tilla oddiy askar - 1 tilla olgan. Qo`shinlarni ta'minlash 1851-yilda pulli unvonlar va oziq ovqat naturasidan iborat edi. Bir yilda

yuzboshi - 147 so`m kumush tanga, mingboshi – 98 so`m, o`nboshi - 65 so`m, oddiylar 43 so`m olgan. 1860-yilda qo`qonliklarda aslini olganda muntazam hatto ozgina bo`lsa ham oldindan tashkil etilgan qo`shin yo`q edi<sup>54</sup>, degan fikri mutlaqo noto`g`ridir. Chunki, xonlikda muntazam qo`shin bo`lib, urush holati 40-60 ming kishigacha qo`shin to`plangan.

Xonlikda tinchlik xotirjamlikni saqlash va qal`a garnizoni uchun haq to`lanadigan ko`ngillilar xizmat qilardi. Urush vaqtida xizmatga qurol ko`tarib yurishga layoqatli bo`lgan barcha erkaklar chaqirilgan. Harbiy xizmatga ko`pincha kuz oylarida chaqirilgan. Quyi mansabdagi xizmatchilar hukumatidan bir yilda ikki qopdan arpa, oyiga bir tilladan pul olardilar. Bulardan tashqari ayni zamonda ularga bahorda 4 tadan yozlik to`n, ko`ylak, etik, salla, do`ppi va belbog`, qishda esa issiq chopon, oshlangan po`stin, etik, issiq bosh kiyim va ot berilardi, qurollardan qilich, nayza, miltiq berilgan. Miltiq hammaga emas faqat otishni biladiganlarga tanlab berilgan, umuman qo`qonliklarning qurol-aslahasi juda yomon bo`lgan<sup>55</sup>.

Shunday qilib, tashkil etilgan qo`shinning o`z boshliqlari bo`lgan: mingboshi asosiy harbiy boshliq, pansadboshi, yuzboshi yasavul, ularning bir qismi xo`jalik ishlari bilan ham shug`ullanganlar. Xon harbiy yurishlar vaqtida viloyat va qal`a hokimlariga shuningdek, xalqqa qo`shinlarni belgilangan joyga ma`lum kunda yig`ish haqida farmon berardi.

Ponsadlar o`zlariga yuzboshi yasavvul va boshqalarni yordamchi qilib olib, ko`ngilli qo`shin boshlig`i bo`lib, bu buyruqni bajarardilar. Shundan keyin xon o`zining soqchilari bilan safarga chiqardi. Yo`l boylab garnizon va qal`alarda qo`shin to`plab unda faqat zarur miqdordagi harbiylarnigina qoldirgan. Xonga ko`ngillilar ham qo`shilib borgan. Qal`alardan tashilgan har bir zambarakka 6 tadan ot qo`yilgan, bundan tashqari yana zaxirada 25 tadan (kerak vaqtda ishlatish uchun) otlar bo`lgan. Qurollar uchun zaryadlar va miltiq uchun o`qlar alohida maxsus sandiqlarda tashilgan.

---

<sup>54</sup>Ўша жойда. Б. 21

<sup>55</sup> Ўша жойда. Б. 22

Qo`qonliklar o`z qal`alarini himoya qilganlarida olovli sharlarni ham ishlatar edilar. Bunday qurolni tayorlash maxsus tayorlangan charmga porox o`ralib u yo`g`on sim yoki arg`amchi (arqon ) bilan qattiq bog`lanib, trubka tiqib, sharning ustini mum bilan surkashardi va uni yoqib dushman tomon uloqtirar edi.

Ba`zi ma`lumotlarga qaraganda, xon XIX asrning 50-yillarida 20 kun davomida 40 000 ga yaqin kishilik qo`shinni to`plashga va ular bilan safar qilishga muvaffaq bo`lgan.

Beklar xon tomonidan belgilangan soliqlarni harbiy kuchlarni to`plab xonga topshirishga majbur edilar. Ammo ular boshqa ishlarni istaganicha qilardilar. Hatto harbiy kuchlar va soliqlar yig`ish ishlarini ham o`z bilganicha bajaraverardi.

Turli soliqlardan to`plangan pulning tegishli qismini xonga yuborib, qolganini bekning o`zi xohlaganicha sarflay berar, uni hech kim nazorat qilmas edi.

Oqsoqol, mingboshi, yuzboshi va ellikboshilar aholi o`rtasida bo`lgan obro`li kishilardan saylanar edi. Ular bu lavozimlarga masjidlariga nomozlaridan so`ng aholi orasidan saylanardi.

Beklarga qarashli shaharlarda rais, qo`rboshi, mirshab, qozi mirza va mirzaboshilar qishloqlardan kelgan daromad hisobiga yashar edilar. Masalan, har ikki uch ponsodboshi (besh yuz boshi) ga ayrim qishloqlar tanho tariqasida berilib, shundan kelgan daromad ular o`rtasida taqsimlanardi. Masalan, to`qsabo va boshqa yuqori mansabdor harbiy boshliqlarning besh oltitasiga bir qishloq tanho qilib berilardi: ularning har biriga boshqa daromadlaridan tashqari o`rta hisobda 100, 80, 70 chorak (7 qadoqqa yani 2 kg 800 gm ga teng bo`lgan og`irlik) to`g`ri kelardi.

Qorovulbegi, miroxur va boshqa amaldorlarning har 15-20 tasiga bir qishloq tanho qilib berilardi. Ularning har biriga boshqa daromadlaridan tashqari 50-30 chorak bug`doy to`g`ri kelardi. Bundan tashqari xon harbiy boshliqlarga har yili sarpoy kiyg`izish paytlarda har bir ponsodga 1000 tanga (200 so`m), qolganlarining har biriga 500 tangadan 80 tangagacha pul berilgan<sup>56</sup>. Urush davrida yuzboshiga

---

<sup>56</sup> Xolliyev G. G`ulomov X. O`zbekiston tarixi. -T., Universitet. 1997. B. 53.

har oyda ikki tilla, ellikboshiga bir yarim tilla oddiy navkarlarga esa bir tilladan aqcha berilar edi va hokazo.

Qo`qon xonligidagi davlat boshqaruv tizimi ko`p jihatdan Buxorodagi holatni eslatsa-da, ammo uning o`ziga xos tomonlari ham bo`lgan. Qushbegi, devonbegi, otaliq, parvonachi, dodxoh kabi mansablarning mavqei bu yerda ham baland hisoblangan, holda harbiy lavozim egalarining, ayniqsa mingboshining mavqei ba`zi zamonlarda nihoyatda yuqori bo`lganini bilamiz<sup>57</sup>. Chunonchi, qushbegi, parvonachi lavozimlaridagi kishilarga mingboshi harbiy unvoni berilishi fikrimiz dalili bo`la oladi. Bizga ma`lumki, Musulmonqul mingboshi hatto hokimiyatni qo`lga olib, butun xonlik ishlarini yurgizgan.

Xonlikda yer munosabatlar suniy sug`orish yer muomalasi doimo o`tkir va dolzarb masalalardan biri bo`lib kelgan va hozirgi kunda ham u o`zining ushbu xususiyatini yo`qotgani yo`q.

XVIII asrning oxiri va XX asrning boshlarida Markaziy Osiyo xonliklaridagi yerlar uch qisimga bo`lingan: Davlat yerlari (amlok, amloki, podshohiy), shaxslarning xususiy (mulk) yerlari; vaqf yerlari.

O`lkadagi yer suvning asosiy xo`jayini bo`lgan xonlar eng katta yer maydonlariga ega edilar. Masalan, Qo`qon xonligidagi asosiy yer maydonlari xon va uning avlodlari ixtiyorida edi. Bunday yerlar chek yerlar deb atalardi. Masalan, Andijon atrofida Olimbek cheki deb nomlangan yerlar 296 desyatina (bir desyatina - 1,09 ga teng), Sheralixon cheki 291 desyatina bo`lgan. Farg`ona vodiysida bunday chek yerlar ko`p bo`lgan.

XIX asr o`rtalarida chek yerlar yanada ko`paydi. Xususan, Xudoyorxon zamonida xon va uning avlodlari qo`lida juda ko`p chek yerlar to`plangan. Xudoyorxon, Sultonmurodbek, Nasriddinbek, O`rmonbek va boshqalar nomidagi cheklar 1845-1875 yillarda ayniqsa kengaygan.

O`rganilayotgan davrda dehqonlar va mohir irrigatorlarning ulkan mehnati natijasida murakkab suv xo`jaligi barpo etildiki, unga yirik suv xo`jaligi

---

<sup>57</sup> Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. -Т.; Sharq. 2000. Б. 297.



manbalaridan suv olish ishlarini tashkil etish turli xilo suv olg`ich inshootlarni qurish, kanallarni tozalash, suvni undan foydalanuvchilarga taqsimlash kirardi<sup>58</sup>. Lekin kanal va ariqlarning asosiy qismi yuqori tabaqalar qo`lida bo`lib, mehnatkash aholiga suv yetishmas edi.

Markaziy Osiyoda sun`iy sug`orish tarixida buloq suvlaridan foydalanish usuli ham o`ziga xos mohiyat kasb etgan. Bu orqali tog`li tumanlarda hamda buloqlar bo`lgan yerlarda dehqonchilikni har tomonlama rivojlantirish uchun imkoniyat yaratilgan. Ariq oqsoqollari va mirovlar yuqorida ko`rsatilgan kanal, ariq, koriz va buloq suvlarini aholi o`rtasida taqsim qilish va yangi irrigatsiya inshootlarni qazish ishlarini tozalash va buzilgan joylarni tuzatish ishlariga boshchilik qilib kelganlar. Umuman, gidrotexnikaviy ishlar (ariq oqsoqoli mirob, minoboshi) uchun davlat tomonidan hech qanday mablag` ajratilmas edi. Irrigatsiya xodimlariga maosh natural shaklda<sup>59</sup> g`alla bilan haq to`lanar edi. Bunday haq to`lash kapsan deb yuritilardi.

XIX asrning 60-yillariga kelib xonlikning soliq siyosatini ortib borishi oqibatida mamlakatning shimoli-sharqiy qismida istiqomat qiladigan qirg`izlar Rossiya bilan aloqalar boshlashga harakat qilishadi. Qirg`izlarning buruqchi qabilasi Norin vodiysida joylashgan Kurtka qal`asini boshqaruv tizimini o`z qo`llariga oladi. Natijada 1865-yilda rus diplomatiyasi vakillari Qo`qon xonligidagi g`alayoqli vaziyatlardan foydalanib Jungal hududini Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritish masalasida muzokaralar boshlaydilar.

---

<sup>58</sup> Xolliyev G. G`ulomov X. Kўrsatilgan asar. B. 44.

<sup>59</sup> Одатда мироблар ва бошқа давлат амалдорларига натурал шаклдаги маош ғалла билан ўлчанарди.

### III bob. Qo`qon xonligining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida qirg`izlar va qipchoqlarning o`rni

#### 3.1. Qirg`iz va qipchoqlarning asosiy mashg`ulotlari

Qo`qon xonligi hukmronligi ostidagi qirg`izlarda ham hunarmandchilikning ma`lum bir sohalari rivojlangan. Masalan, yog`och so`qa (omoch) tayyorlash, egar-jabduq, shkaflar, taxtadan buyumlar tayyorlash, kumushdan mahsulotlar tayyorlash rivojlangan. Shu bilan qirg`iz hunarmandchiligida uy-ro`zg`or buyumlarini ishlab chiqarish ham rivojlangan. Masalan, tovoq, choynak-piyola, qoshiq, eshik, deraza va hokazolar ishlab chiqarish rivojlangan.

Qirg`izlarda zargarlik va temirchilik ham ma`lum ma`noda taraqqiy etgan. Qirg`iz hunarmandlarining temirchilari bir paytning o`zida ham chilangar, ham zargar hisoblangan. Hunarmandchilikning bu sohasi bir-birini to`ldirib, davom ettirgan.

Qirg`iz xalqi hunarmandchiligida zargarlik bir qadar rivojlangan edi. Qirg`iz zargarlari murakkab hisoblangan ingichka shaklidagi xotin-qizlar zargarlik buyumlarini yasashda mohir bo`lganlar. Bunda zargarlik buyumlari sirasiga boytumor, shokila, soyka, bilaguzuk, sirg`a, kidardin qur, kamar qur va boshqa nomdagi zargarlik buyumlari bo`lgan. SHu bilan birgalikda qirg`iz hunarmandlari egar (ayollar uchun maxsus ot-arava abzali), jungan, ayil, quyushqon, erkak va ayollar uchun kamarlar, shiqildoq-qo`ng`iroqchalar ham tayyorlaganlar<sup>60</sup>.

Shu bilan birga hunarmand-temirchilar maishiy xo`jalik buyumlarini ham ishlab chiqarganlar. Masalan, tulga qozon (qozon turlaridan biri – qirg`izcha nomi), choy uchun idish (choymoju), o`roq, chiroqlar va musiqa asboblaridan – temir qo`biz (o`zbeklardagi - chanqovuz)ni yasaganlar. Qirg`iz hunarmandlari sovuq qurollarni ham yasashda mohir bo`lganlar<sup>61</sup>. Bunday qurollar turiga – oybolta, qilich-shamshir va boshqa qurollar turi kirgan. Qirg`izlar ko`plab urush

---

<sup>60</sup> Усенбаев К. Общественно-экономические отношения киргизов в период киргизов Кокандского ханства. Фрунзе. 1961. С. 76-77

<sup>61</sup> Полторацкий. Общий обзор страны, лежащей к западу от Заилийский края между реками Чу и Сырдарьею. “Туркестанский сборник”. Том. 16. С. 323

qurollarini sotib olsalar-da, o`zlarida ham ko`plab jang qurollari tayyorlangan. Qirg`iz hunarmandlari yasagan jang qurollari uzun va og`ir bo`lib, piligi bilan tayyorlangan. Qirg`izlar orasida porox tayyorlansa-da, ularning sifati bilan maqtana olmasdilar A.Talizin bu haqida shunday ma`lumot beradi: “Ba`zi bir qirg`iz manaplarida hozirgi vaqtgacha esdalik uchun ba`zi bir qurollar, masalan, dubulg`a, sovut, tizzabnd, shamshir, nayza, o`q-yoy, o`qdon va qalqonlar saqlanadi”. Qirg`iz temirchi-qurolsozlar haqida rus mualliflaridan zobit Leshev esdaliklarida, og`zaki ma`lumotlarni to`plagan D.Aytmambetov kitoblarida saqlanib qolgan<sup>62</sup>.

Qirg`iz hunarmandlari zarb san`ati bilan ham shug`ullanganlar. Bu sohada qirg`iz hunarmandlari ayollar uchun zargarlik buyumlari va miltiqlar uchun poroxdan o`q (pulya) tayyorlaganlar.

Duradgorlik va temirchilik odatda qirg`izlarda otadan o`g`ilga meros bo`lib o`tgan. Bu esa hunarmandchilikda sulolaviylikni ta`minlagan. Mohirlik bilan yasalgan zargarlik buyumlari asosan yirik boy, manaplar va feodal aslzodalar uchun xizmat qilgan.

Umumiy holatda oladigan bo`lsak, qirg`izlar orasida hunarmandchilik sust darajada rivojlangan. Ularning qurollar qoloq va sodda bo`lgan. Qirg`iz hunarmandchiligi haligacha chorvachilik va uy xo`jaligidan alohida ajralib chiqmagan edi. Qirg`iz hunarmandchiligi taqdiri butunlay chorvachilik ahvoliga bog`liq edi. Qirg`iz hunarmandchiligi yordamchi xo`jalik sifatida mavjud edi. Oddiy qirg`izlar odatda hunarmandchilik bilan shug`ullanganida asosan o`z xo`jaligi uchungina ishlab chiqarar edi. Faqatgina, boy xonadonlargina hunarmandchilik buyumlarini sotib olish imkoniyatiga ega edilar. Natural xo`jalik sharoitida buyurtmalarni yetarli emasligi tufayli ayni paytda o`z ishlab chiqarishi bilan tirikchilik qila olmas edi. SHuning uchun hunarmandchilik ko`chmanchi chorvachilik bilan paralell ravishda olib borilgan. Hunarmand-usta tirikchilik uchun ba`zan bir ovuldan ikkinchi ovulga ko`chib yurishga majbur bo`lar edi.

---

<sup>62</sup> Усенбаев К. Указ. соч. С.77

Bo`sh vaqtlarida esa u o`z xo`jaligi bilan shug`ullanardi. SHuning uchun qirg`izlar orasida hunarmand-ustalar ko`pchilikni tashkil etmasdi.

Hunarmandchilik susut daradaja rivojlanganligi, uning qo`shimcha xo`jalik xarakteriga ega ekanligi qirg`izlar orasida natural xo`jalikning ustun ekanligi, bozorlarning mavjud emasligi va talabning ehtiyojning kamligi bilan izohlanadi<sup>63</sup>.

Qirg`izlar orasida metall rudasi va tuz qazib olish ham ma`lum darajada rivojlangan. Ammo temir rudasini qayta ishlash juda primitiv shaklda bo`lib, bunday rudalar asosan Issiqko`l qirg`oqlaridan qazib olinardi. Bu odatda qora metall edi. Tuzlar esa Norin daryosining yuqori oqimi, CHu, Ketmo-tepa, Qorako`l janubi-sharqiy qismi va Soy-ko`l vohasida qazib olinardi. Issiqko`lning shimoli-sharqi qismi va Oloyning ba`zi bir hududlarida temir rudasi qazib olinardi.

Ammo ishlab chiqarilgan temir rudasi juda oz bo`lib, qirg`izlarning ehtiyojini umuman qoplay olmasdi. SHuning uchun metall buyumlarning katta qismi qo`shni mamlakatlardan keltirilardi.

Kesek (Qirg`izistonning janubida) qabilasi vakillarining bir qismi sotish maqsadida o`rmonchilik va ko`mir qazib chiqarish bilan shug`allanardi.

Qirg`izlar xo`jaligida ovchilik ma`lum bir ahamiyatga ega bo`lgan. Ovchilik qirg`izlar uchun tirikchilikning qo`shimcha vositasi hamda, aslzodalar vakillari uchun ko`ngilochar mashg`ulot hisoblangan. Ba`zi qirg`iz qabilasi vakillari istisno tarqiasida yovvoyi hayvonlarni ovlash bilan ham shug`ullanganlar. Ko`pchilik chorvadorlar ham ovchilik bilan shug`ullanganlar.

Qirg`izlar tog` echkisi, arxar (tog` yovvoyi qo`yi), bug`u, qunduz, qulon (yovvoyi ot), bo`ri, ayiq, yo`lbars, tulki, quyon, bo`rsuq, sug`ur, kaklik, bedana, qirg`ovul va boshqa yovvoyi qushlarni ovlaganlar<sup>64</sup>. 1858-yilgi ma`lumotga qaraganda bug`u qabilasi bir yilda 3000 tm tulki va 1500 ta suvsar ovlaganlar.

Qirg`izlar orasida yovvoyi ovchi qushlar va hayvonlarni ham ovlash keng yoyilgan edi, bular, burgut, lochin, qirg`iy va ovchi itlar edi. Ov uchun asosiy vosita bu qopqon va o`qotar qurol bo`lgan.

---

<sup>63</sup> Усенбаев К. Указ. соч. С.78

<sup>64</sup> Валиханов Ч. Избранный произведения. Алма-Ата. 1958. С. 295

Qish kelib qor yoqqach, qurollangan ovchilar itlar vositachiligida yovvoyi hayvonlar oviga chiqqanlar. Bunday ovlarda ko`plab kishilar qatnashib, ovlarning tashabbuskorlari asosan aslzodalar bo`lgan. Masalan, 1859-yili Jergalanda uncha uzoq bo`lmagan joyda Ablay boy Rossiya podshosi vakili sharafiga qulon ovini tashkil etgan. Ovda 60-70 nafar ovchi qatnashgan. Ovda 9 ta qulon o`ldirilib, 6 ta tirik qo`lga olingan<sup>65</sup>.

Arxar, yovvoyi echki va bug`uning go`shti oziq-ovqat uchun ishlatilsa, yungi esa nafaqat ichki savdoda, balki tashqariga ham eksport qilingan.

Qirg`izlarning ko`l va daryolari baliqqa boy bo`lsada, qirg`izlar orasida baliqchilik unchalik rivojlanmagan edi.

Qirg`izlar qadimdan o`zbek xonliklari, Xitoy va Rossiya bilan qizg`in savdo aloqalarini olib borar edilar. 1813-1814-yillari Qo`qonga kelgan Filipp Nasarov esdaliklarida bu haqda muhim faktlar berilgan bo`lib, unga ko`ra, Andijon aholisi qo`shni qora qirg`izlar, xonlikning janubiy va shimoli-sharqiy hududida yashovchi qirg`izlar bilan doimiy savdo aloqalarini olib borganlar<sup>66</sup>. Qoshg`ar, keyinchalik O`rta Osiyoning bir qancha shaharlarida bo`lgan hindistonlik sayyohatchi (Dehli shahridan) qirg`izlar orasidagi savdo aloqalari haqida shunday ma`lumot qoldirgan: “Qoshg`ardagi bozorga qirg`izlar juda ko`p miqdorda otlar olib kelishadi, ammo ular orasida yirik savdogarlar kamchilikni tashkil etadi”<sup>67</sup>.

Qirg`iz xalqining XIX asr boshida Xitoy, jumladan Qoshg`ar bilan aloqalari haqida E.Timkov va K.Ritterlar, rus qo`shini kapitani Abakumov hamda 1844-1848-yillarda Qirg`iziston orqali Xitoyga borgan ingliz Atkinsonlar ma`lumot qoldirganlar. Qirg`izlar orasidagi savdoda toshkentlik, qo`qonlik, qoshg`arlik, qisman rus savdogarlarining savdo karvonlari asosiy rol o`ynab, ular qirg`iz ovullariga qirg`izlar uchun turli mahsulotlar olib kelar va bu erda savdo qilish uchun ba`zan bir yil davomida qolib ketar edilar. Qirg`izlar orasidagi butun savdo

---

<sup>65</sup> Усенбаев К. Указ. соч. С.81

<sup>66</sup> Филипп Назаров. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии Филиппа Назарова. Москва. 1968. С. 70-71.

<sup>67</sup> Мир-Иззет-улла. Путешествие Мир-Иззет-уллы в Кокандское ханство в 1812 году. Сводный текст по английскому и французскому переводам. «Тр. САГУ». 78. Исторические науки. 1956. С. 44.

oboroti keltirilgan mahsulotlarga chorva mollarini ayiboshlash orqali amalga oshiriladi edi.

Qirg'izlar uchun bu erga paxta va ipak matolari, teri, poyabzallar, choy, shakar, tuz, idishlar, metall buyumlar, qurol-yarog'lar, g'alla, quritilgan mevalar, asal, tovuq go'shtlari, oyna, zargarlik buyumlaridan isirg'a, boldoqlar, yunglar va boshqa xotin-qizlar uchun mayda zargarlik buyumlari keltiriladi edi.

Qo`qon xonligi tarkibida istiqomat qilgan xalqlarning xo`jalik an`analari turlicha bo`lgan. Xonlik tashkil topgan davrda uning tarkibiga faqat Farg`ona vodiysi kiradi edi. Keyinchalik harbiy yurishlar natijasida uning hududi kengayib, aholisi soni ham ortib borgan edi. XIX asrning 50-yillariga kelgan Qo`qon xonligi aholisining umumiy soni 3 million kishiga yetgan. Xonlik hududida aholining ko`pchiligini o`troq dehqonchilik bilan shug`ullanadigan o`zbeklar tashkil etgan. Xonlikda o`zbeklardan tashqari aholi soni bo`yicha qirg'izlar, qozoqlar, tojiklar, qipchoqlar, yahudiylar kabi xalqlar ham istiqomat qilishgan.

Qo`qon xoni Abdulkarimbiy hukmronligi davriga kelib xonlik hududiga jung`or qabilalarining bosqinlari oqibatida xonning qo`shni qirg'iz qabilalari bilan munosabatlari harbiy ittifoq ko`rinishiga ega bo`lib, xonlik hududiga ko`plab qirg'iz qabilalarining kirib kelishiga olib kelgan. Bu davrda qirg'izlar asosan ko`chmanchi qabilalar hisoblanib, asosiy mashg`uloti chorvachilik hisoblangan. Ularning xonlik ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ahamiyati katta edi. Xonlikning harbiy qo`shinlarini ot bilan taminlash uchun xonlikda chorvachilikning o`rni ham katta bo`lgan.

XVIII asr oxirlarida xonlikning hududi faqat Farg`ona vodiysidan iborat bo`lib, bu davrda Norbo`tabiy vodiydagi barcha beklik va viloyatlarni o`z itoatiga kirgizib, ularni Qo`qonga bo`ysundirdi. Uning davrida Andijon va Marg`ilon viloyatlari vodiydagi eng katta mulklar edi. Olimxon davrida xonlik hududlari Toshkent va uning atrofidagi yerlar hisobidan ancha kengaydi. Tarixiy manbalarda Toshkent mulki – viloyat, shahar, Toshkent va Dashti Qipchoq viloyati nomlari bilan tilga olinadi. Uning hududlariga Ohangaron, Chinoz, Toshkent atrofi, Sirdaryo bo`ylaridagi Turkiston shahri va uning atroflari kirgan. Bu mulkning

hokimlari manba va hujjatlarda hokim, hukmdor, voliy, noib atamalari bilan tilga olinadi. Umarxon davrida Xo`jand, O`ratepa va Jizzax atrofidagi yerlarga ham ketma-ket yurishlar qililib, 1817-yilda O`ratepa bosib olinadi.

Muhammadalixon davrida xonlikning hududlari yanada kengayadi. Bu davrda xonlik shimolda Rossiyaga qarashli Tashqi Sibir okrugi bilan, g`arbda Xiva va Buxoro amirligi bilan, janubda Qorategin, Darvoz va undan uzoqroqdagi yerlar – Shug`non, Ro`shon va Vaxon (bu hudud Qo`qonga nomigagiga qaram bo`lgan) Ko`lob bilan, sharqda Qashg`ar bilan chegaralangan. Xonlik yerlariga Sirdaryo bilan Qorategin O`rtasida joylashgan Farg`ona hududlari, Sirdaryoning o`ng qirg`og`ida joylashgan Namangan, Xo`jand va boshqa shaharlar, Buxoro amirligi va Qo`qon xonligi o`rtasida joylashgan Qurama viloyati, Turkiston, Sirdaryoning quyi oqimidagi to Balxash ko`ligacha bo`lgan qirg`izlar yashaydigan yerlar, ko`chmanchi qirg`izlar yashaydigan Billur tog`ining sharqiy etaklari, 1830 yildan boshlab g`arbiy etaklari ham kirgan.

Qo`qon xonligida mamlakat poytaxti va boshqa ko`plab shaharlar aholisining asosiy qismi hunarmandchilik va kosibchilik bilan shug`ullanganlar. Hunarmandchilik shaharlarda ixtisoslashgan ko`rinishga ega bo`lib, buyumlarning bir turi va biror qismini ishlab chiqarishga yo`naltirilgan sohalar mavjud bo`lgan. Hunarmandlar o`z kasblarining sir-asrorlarini mukammal o`zlashtirgan mohir ustalari bo`lib, ishlab chiqargan mahsulotlarini yuksak san`at darajasiga ko`targanlar.

Xonlikning deyarli barcha shahar va qishloqlarida hunarmandchilikning taraqqiyoti bir xil bo`lgan bo`lsa-da, ishlab chiqarish o`zining ayrim xususiyatlari, ya`ni, mahsulotning turi, sifati bilan ajralib turgan. Hunarmandchilikning temirchilik, zargarlik, to`quvchilik, degrezlik, kulolchilik, misgarlik va boshqa tarmoqlari keng rivojlangan bo`lib, xonlikning har bir shahri muayyan sohada ishlab chiqargan mahsuloti bilan dong taratgan. Misol uchun, Qo`qon shahri zargarlik va qog`oz ishlab chiqarish, Shahrixon va Chust tikuvchilik hamda temirga ishlov berish, xususan, pichoqchilik, Marg`ilon, Namangan va Andijon esa

ipak gazlamalari, Toshkent o`zining tikuvchilik, to`quvchilik, cho`yan, temir-mis mahsulotlari bilan mashhur bo`lgan.

Qo`qon xonligi hayotida ichki va tashqi savdo munosabatlari alohida ahamiyatga ega edi. Ichki savdo – o`troq dehqonlar, ko`chmanchi chorvadorlar va shahar-qishloq hunarmandlari o`rtasidagi an`anaviy mahsulot ayirboshlashga asoslangan. Aholining kundalik ehtiyojlari ishlab chiqaruvchilar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar bilan ta`minlab turilgan. Barcha ichki savdo chakana bo`lib, ulgurji savdo deyarli bo`lmagan.

Hunarmandlar va kosiblar savdo orqali yaqin aloqada bo`lganlar. Hunarmandlar aksariyat hollarda o`z mahsulotlarini o`zlari sotganlar. Dehqon va chorvadorlar esa, haftaning muayyan kunlari o`z mollarini bozorga olib chiqqanlar. Bozorlardagi narx-navo bir xilda turmagan. Narx-navo xonlikdagi tinchlik-osoyishtalik, urushlar, ob-havoning yomon kelishi oqibatida hosildorlikning pasayishi kabi omillarga qarab o`zgarib turgan.

Qo`qon xonligining eng asosiy savdo va tijorat markazi Qo`qon, Toshkent, Marg`ilon, Andijon, Xo`jand, Namangan, O`sh, O`ratepa kabi shaharlar bo`lib, ular orasida Qo`qon nafaqat xonlik, balki butun O`rta Osiyoning savdo markazlaridan biri hisoblangan. Ma`lumotlarga ko`ra, Qo`qon bozorlari o`zining mahsulotlarga boyligi va narx – navoning boshqa shaharlarga nisbatan ancha arzonligi bilan ajralib turgan. Shaharning devorlar bilan o`ralgan katta bozorlari mahalliy aholi va chetdan kelgan savdogarlar bilan doimo gavjum bo`lgan. Rus manbalarida keltirilishicha, XIX asrning 20-yillarida Qo`qonda oltita bozor bo`lib, ular yakshanba, chorshanba va payshanba kunlari ishlagan. Bu bozorlarda qattiq nazorat o`rnatilgan bo`lib, xaridor haqqiga xiyonat qattiq jazoga tortilgan.

Qo`qon xonligining iqtisodiy hayotida tashqi savdo ham muhim ahamiyat kasb etgan. Mamlakat g`arb va janubda Buxoro, Xiva, Afg`oniston, Eron, Turkiya, Hindiston, sharqda Xitoy (Qashg`ar orqali), shimolda Dashti Qipchoq ko`chmanchilari va ayniqsa Rossiya bilan keng savdo aloqalari o`rnatgan. Ayrim manbalarda xonlikda yaponiyalik va angliyalik savdogarlar ham kelganligi eslatib o`tiladi.



Xonlikdan chet elga asosan ipak va ipak matolar, paxta, charm, qimmatbaho toshlar, oltin, kumush, zargarlik buyumlari va boshqa mahsulotlar chiqarilgan. Chet eldan asosan choy, metall, chinni, uy-ro`zg`or buyumlari, tayyor gazlama, kiyim-kechak, poyafzal va boshqalar keltirilgan.

Xonlikning savdogarlari Buxoro va amirlik chegaralaridagi shaharlar bilan muntazam savdo aloqalari olib borganlar. Har ikkala davlatning savdogalari savdo ishlarida faol ishtirok etib, qo`qonlik savdogarlar Buxoro amirligiga xo`jalik hayotda zarur bo`lgan rus temiri, po`lat va cho`yandan yasalgan buyumlar, tamaki, ro`mol, guruch va ba`zi xitoy yoki mahalliy ipak gazlamalari, choy, chinni idishlar olib borishgan bo`lsa, buxorolik savdogarlar esa Qo`qonga hind choyi, surp mato, harir, buyoq, afyun (taryok), zardo`zlik mahsulotlari, ip va gazlama olib kelishgan.

Rus chiti Buxoroning Qo`qon xonligi bilan savdosida alohida o`rin egallagan. Bu mato Orenburg yoki Petropavlovskdan Kazalinskka, undan Buxoro, Samarqand va Xo`jand orqali Qo`qonga olib kelingan. Shuningdek, xonlikda Mashhaddan olib kelinadigan ingliz gazlamalari, oz miqdorda bo`lsa ham Qobulning to`n va sallalari, hind attorlik mollari ham keltirishgan.

Qo`qon xonligining Qashg`ar bilan savdo munosabatlari xuddi Buxoro amirligi kabi bo`lib, Qashg`ardan Qo`qonga afyun, chinni idishlar, kumush, xitoy ipak matolari, tola va gilamlar olib kelingan. Qozoq juzlarining Rossiyaga tobe etilishi hukmdor tabaqalar o`rtasidagi o`zaro urushlarning to`xtashiga sabab bo`ldi va bu holat O`rta Osiyoning, jumladan, Qo`qon xonligining Sibir, Ural, Volga bo`yi bilan savdo aloqlariga keng yo`l ochdi.

Xonlik Hindiston bilan ham muntazam savdo aloqlarini olib borib. Manbalar ma`lumotlariga ko`ra, Hindistondan yiliga Qo`qon, Toshkent, Buxoro va Qashg`arga Qobul orqali 10.000 dan 15.000 tuyagacha mahsulot yuborilgan. Ular orasida ip gazlamalar, ipak, echki juni, otlar va boshqalar chiqarilgan. Otlar savdoning katta foyda keltiradigan manbalaridan biri bo`lgan. Hind savdogarlari xonlikdagi shaharlarda yashab tijorat va hatto, sudxo`rlik bilan shug`ullanganliklari haqida ham ma`lumotlar bor.

Qo`qonlikning tashqi aloqalarida Qo`qon-Rossiya savdo munosabatlari ham alohida o`rin tutgan. Manbalarga ko`ra, 1861-yildan keyin rus sanoatining jadal rivojlana boshlaganligi xom ashyo bazasi va tashqi bozorga bo`lgan ehtiyojning yanada kuchayganligi Rossiyaning Qo`qon bozorini faol egallab, undan cheksiz foydalanishning asosiy sabablaridan biri bo`lgan. Rossiyadan Qo`qonga temir, mis, po`lat, cho`yan va temir buyumlar, chit va sifatsiz gazlamalar, oz miqdorda baxmal, shakar, oynalar, charm, Rossiyaga tobe bo`lgan qozoq cho`llaridan qo`ylar va uning terisi, charm va charm mahsulotlari, kigiz olib kelingan. Xonlikdan esa Rossiyaga asosan paxta olib chiqilgan.

XIX asr manbalarida Qo`qon xonligi beklik, ba`zan viloyat va sarkorlik sifatida tilga olingan ma`muriy – hududiy qismlarga bo`lingan hamda ularni xon tomonidan tayinlanadigan beklar, hokimlar va sarkorlar boshqargan. Ayrim manbalar (A. Kun) Qo`qon xonligidagi 15 ta beklikning nomini keltiradi. Bular: Qo`qon va uning atrofi, Marg`ilon, Shahrixon, Andijon, Namangan, So`x, Mahram, Buloqboshi, Aravon, Baliqchi, Chortoq, Navkat, Koson, Chust va Bobo darhon. “Turkestanskiye vedomosti” (1876, №13) to`plamida esa Asaka, Marg`ilon, Baliqchi O`sh, So`x, Koson va O`zgan sarkorlik sifatida ham tilga olinadi.

Hokimlar va hududiy bo`linma boshliqlari xon oilasi a`zolari, unga yaqin guruhlar, yuqori tabaqa vakillari hamda yetakchi qabilalar sardorlari orasidan tayinlangan. Misol uchun, Xudoyorxon davrida yettita beklik xonning o`g`illari va yaqin qarishdoshlari tomonidan boshqarilgan. O`z navbatida hokimlar viloyat hududlarini o`zlarining farzandlari va qarindoshlariga bo`lib berganlar. Qo`qon xonligining ma`muriy-hududiy boshqaruv tizimida bek (hokim, voliy) va uning o`rdasi alohida o`rin egallagan. Xon tomonidan tayinlangan hokim va qozi ko`plab vakolatlarga ega bo`lgan.

Bek o`rdasida ham xon saroyidagidek yuzlab amal va unvonlar joriy etilgan bo`lib, ular mahalliy aholidan yig`iladigan soliq hamda to`lovlar hisobidan kun kechirishgan. Beklar xonning itoatkor vassallari bo`lib, mamlakatni idora etishida uni qo`llab-quvvatlashlari, zarur bo`lganda unga yordam berishlari, uning hurmat-

izzatini joyiga qo'yishlari, kerakli vaqtda o'z qo'shinlari bilan harbiy yurishlarda ishtiroq etishlari va sovg'a-salomlar yuborib turishlari lozim bo'lgan.

Qo'qon honligida Qo'qon, Toshkent, Andijon, Namangan, Marg'ilon, Chimkent, Jizzax, O'sh, Xo'jand, O'ratepa kabi aholisining soni jihatidan katta, hunarmandchilik va savdo rivojlangan, mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'nlab shaharlar mavjud bo'lgan. Xonlikning poytaxti Qo'qon shahri bo'lib, u mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markazi edi.

XIX asrda xonlikning chegara hududlarini bir necha qal'a va istehkomlar muhofaza qilgan. Ular jumlasiga Oqmasjid, Avliyoota, Pishpak, To'qmoq, Qurtka, Niyozbek, Mahram kabilarni kiritish mumkin. Chu vodiysi bo'ylab bunyod etilgan istehkomlar esa nafaqat chegara muhofazasi uchun, balki ularning atrofidagi shahar va qishloqlarni itoatda ushlab turish uchun ham xizmat qilgan. Ushbu shahar va qal'alarda harbiy qism hamda ularga boshliq bo'lgan botirboshilar bo'lgan. Mudofaa maqsadlari uchun qurol va aslahalar saqlangan.

Xonlik tarkibiga kiruvchi hududlar aholisining joylashuvi va turmush tarzi bir – biridan farq qilgan. Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysining sug'orilib dehqonchilik qilinadigan qismi aholi joylashuvi jihatidan zich bo'lib, ular o'troq hayot kechirganlar. Sahro, tog` va tog` oldi tekisliklaridan iborat hududlarda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi yashagan.

Xonlikdagi aholi soni haqida manbalar turli ma'lumotlar beradilar. Bu ma'lumotlarga ko'ra, XIX asrning boshlarida xonlikda (Toshkent va Turkistonni ham qo'shib hisoblaganda) aholi soni 1 million, XIX asrning o'rtalarida 1,5-2 million, XIX asrning ikkinchi yarmida 3 million kishi bo'lgan bo'lsa, Rossiya imperiyasi tomonidan ko'plab hududlarning bosib olinishi hamda ularning bosqinchilar ma'muriyati tarkibiga kirishi natijasida xonlik tasarrufidagi Farg'ona vodiysida 2 millionga yaqin aholi qolgani taxmin qilinadi.

Aholi tarkibida o'troq aholi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholiga nisbatan ko'pchilikni tashkil etgan. XIX asr boshlarida aholining 40 foizdan ortig'i ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lsa, shu asrning oxiriga kelib ular 15 foizni

tashkil etgan. Xo`jalik mashg`ulotlariga ko`ra, o`troq aholining asosiy qismi dehqonchilik, hunarmandchilik, kosiblik hamda savdo-sotiq bilan band bo`lsa, ko`chmanchi va yarim ko`chmanchi aholi chorvachilik bilan shug`ullangan.

Qo`qon xonligi aholisining ko`pchiligi o`zbeklar bo`lib, mamlakat shahar va qishloqlarida tojiklar ham yashagan. Xonlikda yana qirg`izlar va qipchoqlar ham istiqomat qilganlar. Ular Sirdaryoning boshlanish joylaridan Balxash ko`ligacha bo`lgan tog`li rayonlardan to Qashg`ar chegarasigacha bo`lgan yerlarda, Yettisuv, Talas vodiysi, Oloy tog`lari, Badaxshon, Farg`ona vodiysi hududlarida ko`chmanchi va yarim ko`chmanchi hayot kechirishgan. Bundan tashqari, Farg`ona vodiysida qoraqalpoqlar, Toshkent atroflarida qozoqlar, xonlikning sharqiy qismida, Qo`qon xonligini Buxoro va Rossiyadan ajratib turadigan cho`llarda ko`chmanchi qozoqlar yashaganlar<sup>68</sup>.

Manbalarning ma`lumotlariga ko`ra, XIX asrning boshlarida qirg`izlar, qalmoqlar, uyg`urlar, qoraqalpoq, qozoq va qipchoqlar Xitoy hukumati tazyiqi ostida Sharqiy Turkistondan Farg`ona vodiysigacha ko`chib kelishga majbur bo`lganlar. Shuningdek, xonlikning ayrim shaharlarida lo`lilar, hindlar, afg`onlar, arablar va boshqa Osiyo xalqlari istiqomat qilganlar. Turkiston general-gubernatorligi tashkil topganidan so`ng armanlar va boshqa millat vakillari ham yashaganlar.

O`zbeklarning ming qabilasi (urug`i) boshliqlaridan biri Shohruhbiy asos solgan Qo`qon xonligidagi davlat boshqaruv tizimi o`rta asrlarda Movarounnahrda hukm surgan musulmon davlatlari boshqaruv tizimidan farq qilmas edi. Xonlikda Buxoro amirligida bo`lgani kabi Amir Temur davrida shakllangan hamda Shayboniylar davrida qisman islohot qilgan davlat boshqaruvi va tizimi mavjud bo`lgan. Xonlikda eng oliy va markaziy unvon **xon** unvoni bo`lib, uning hukumati cheklanmagan. Farmon berish va uning bajarilishini nazorat etish salohiyatlari xonning qo`lida bo`lgan.

---

<sup>68</sup> Бобобеков Х. Қўқон тарихи. -Т.: Фан. 1996. Б.88

Xonlikning ming qabilasidan bo`lgan hokimlar turli yillarda Shahrisabz, Urgut, Mog`iyon, Urmitan viloyatlari va bekliliklarida ham hukm surganlar. Olimxon davrigacha (1798-yil) ming urug`i boshliqlari XIX asrning boshlarida **biy** unvoni bilan hokimiyatni boshqarganlar. Olimxon 1805 yilda o`zini rasman xon deb e`lon qildi. Xon unvoni bilan hokimiyatni boshqargan Umarxon (1810-1822 yillar) 1818 yilda o`zini “amir ul-muslimin” deb e`lon qildi. 1822-yilda Muhammad Alixon ham xon unvoni bilan taxga o`tirgan.

Xon avlodlari xonzoda, amirzoda, mirzoda, shahzoda, to`ra deb atalganlar. Xonlikdagi davlat nizomi mutlaq yakka hokimlik bo`lib, xonning o`zi cheklanmagan hokimiyatga ega bo`lsa-da, ma`lum tarixiy davrlarda uning salohiyati va hokimiyati cheklanib, saroy amaldorlari hamda qo`shin boshliqlarining xonga ta`siri kuchli bo`lgan. Bunga Musulmonqulining mingboshi va otaliq bo`lgan davrini (Xudoyorxon davrida, 1844-1852 yillar) yoki Aliqulining amirlashkarlik va vazirlik davrini (Sulton Sayyidxon, 1863-1865 yillar) misol qilib keltirish mumkin. Bu holat xonning siyosiy kuch qudrati ma`lum iqtisodiy asoslarga hamda ma`lum ijtimoiy guruhlar faoliyatiga bog`liq bo`lgan deyishga asos bo`ladi.

Mamlakatda xon eng katta va yirik mulkdor bo`lib, xonlik hududidagi barcha boyliklarga, yer, suv, qo`riq yerlar, ko`lu anhorlarga egalik qilgan. Ulardan keladigan zakot, xiroj, tanobona va boshqa soliqlar shaklidagi daromadlar xon xazinasini muntazam ravishda to`ldirib turgan. Xon va uning qarindoshlari, saroy ahli va ma`muriyat, qo`shinlar va qo`shin boshliqlari asosan soliqlar hisobidan rag`batlantirilgan.

Qo`qon xonligida asosan Olimxon, Umarxon va Muhammad Alixonlar davrida (1798-1842 yillar) davlat boshqaruvi va davlatchilik ichki va tashqi siyosat ancha barqaror hamda nisbatan tinch rivojlangan. Ammo XIX asrning o`rtalariga kelib Qo`qon xonligi inqirozga uchray boshlaydi. Tadqiqotchilar ushbu inqirozning asosiy sabablari sifatida o`troq xalq va ko`chmanchi aholi o`rtasidagi qarama-qarshiliklarni, o`zaro nizo va urushlarni, xon taxti uchun olib borilgan kurashlarni, Buxoro amiri bilan bo`lgan nizolar va dushmanliklar, saroy

amaldorlarining xoinliklari kabilarni ko`rsatadilar. Bularning natijasida iqtisodiy hayotda taraqqiyot pasayib, ijtimoiy tarqoqlik kuchayib bordi va davlat inqirozga yuz tutdi.

### **3.2. Qirg`iz va qipchoqlarning ijtimoiy tarkibi**

Qirg`iz qablalari Qo`qon xonligi tarkibida 4 ta asosiy guruhga bo`lingan. Ularning ijtimoiy tarkibi ko`plab qabila va elatlardan tashkil topgan bo`lib, asosan tog`li hududlarda istiqomat qilishgan.

Bular:

- 1. O`ttiz o`gil (O`ng qanot)**
- 2. O`ttiz o`gil (Chap qanot)**
- 3. Ichkilik (O`ng qanot)**
- 4. Ichkilik (Chap qanot)**

Ushbu guruhlar ijtimoiy jihatdan ko`plab urug`larga bo`lingan.

**O`ttiz o`gil (O`ng qanot):** Adigine, Djoru (Tasma, Tengizbay, Acha-djoru, Ay-djoru, Karagunas, Elchibek, Kyodyogyochun, ) Bargi (Kara-bargi, Sari-bargi, Ak-bargi, Taz-bargi, Tooke, Savay, Kongurat, Ajibek-uulu, Kachibek-uulu, Charikchi-uulu, Sarttar, Arday-muunak, Kyokchyo uulu, Oldjoke), Byoryu (Bashi, Xodjoke, Alike, Atake, Buyla byoryu, Saaginic uulu, Maytaran uulu, Djuktu, Bok kara), Kara-bagish (Bashtik, Dosmat, Nazarkul, Kara-bagish, Mirzake, Djanay, Djanibek, Boston bagish, Atamkul uulu, Kazi uulu, Byoryu uulu, Bazar uulu, Arik uulu), Paygut (Dyurmen, Dyume, Saray, Alchin, Argin), Avat (Tatar, Tama), Mongush, Jagalmay (Tyolyoykyon, Djoosh, Djilkeldi, Tyoyoke, Djapalak, Kodogochun), Kosh-tamga (Uluu katin, Mangit, Erke-kashka, Sokolok, Sarilar, Kyok djatik, Saray), Mongol (Baymongol, Budjavash, Samansur, Baki, Atake, Boor).

**O`ttiz o`gil (Chap qanot):** Kushchu (Kotkar), Munduz (Munduz, Kara cholok, Karakul, Mamat, Kirk tamga, Kotur kaman, Kaman, Kilich tamga), Basiz (Djeerenchi, Kashka, Aydar ali, Byolyokpay, Karake).

**Ichkilik (O`ng qanot):** Kesek (Kara saadak, Kidirshaa, Boston, Baykesek, Kesek, Karakesek, Kangli, Kizil ayak, Bor bash, Avay kesek, Djoo kesek, Aktachi, Chuchuk, Alashan), Teit (Kara teit, Sari teit, Chal teit, Bay teit, Arik teit, Chon teit, Uygur teit, Djaman teit, Chapan teit, Aytemir teit, Tokum teit, Chegitir teit, Chon kirgiz).

**Ichkilik (Chap qanot):** Nayman (Bostorgoy, Bazar-baldar, Chandake, Utay, Kul nayman, Kojo nayman, Byoyo nayman, Mirza nayman, Kiik nayman, Djoonbut nayman, Kuran nayman, Kasharkul nayman, Djyoyorde nayman), Kirgiz-Kipchak (Djamanan, Omonok, Taz, Sherden, Karmish, Tor aygir, Axtachi, Kojom shukur, Djarti bash, Altike, Sakoo kipchak, Kizil ayyak), Chon Bagish (Kalmak), Dyoyoles (Ay tamga, Kosh tamga, Karagayluu, Nurkut, Karateginchi, Agachke, Merkit), Sart-Kipchak.<sup>69</sup>

XIX asr o`rtalariga kelib, Qo`qon xonligida boshqaruv tizimini o`z qo`liga olgan qipchoq qabilalari xonlik hududiga ko`plab ko`chib kela boshlagan. Ularning xonlik hududiga ko`chib kelishi xonlik aholisining noroziligiga sabab bo`lgan. Chunki, qipchoq qabilalari xonlik aholisining mol-mulki va uy-joylarini talon-taroj qila boshlagan edi. Ularning sardori Musulmonqul (qipchoq qabilalarining qulon urug`i sardori) xonlikning mingboshi lavozimini egallab olgan, mamlakatning yosh xoni Xudoyorxonni to`liq o`z nazoratida saqlab turar edi. Musulmonqulning boshqaruvi davrida qipchoqlarning Qulon-qipchoq, xitoy-qipchoq, magyor-qipchoq, sigal-qipchoq, toraigir-qipchoq, qora-qipchoq, burgut-qipchoq, sariq-qipchoq, chig`ir-qipchoq, andaraz-qipchoq<sup>70</sup> kabi urug`lari asosan Farg`ona vodiysi, Toshkent hududlariga kelib joylashib olishgan edi. Musulmonqulning 1845-1852 yillardagi boshqaruvi davrida xonlikda asosiy boshqaruv tizimi qipchoq qabilalarining ixtiyorida bo`lgan. 1852-yil 9-oktyabrda Xudoyorxon Toshkentdan chaqirilgan qo`shin bilan xonlikda qipchoqlar qirg`inini uyishtirdi. Natijada jami 20 mingga yaqin qipchoq o`ldirildi. Ularning uylari va mol mulklari tortib olindi. Qipchoqlar egallab turgan yerlar yarim narxida sotib yuborilgan edi. Yuqorida

---

<sup>69</sup> [http://www.kyrgyz.ru/articles/genealogy/spisok\\_kirgizskih\\_plemen\\_po\\_dzhamgerchinovu\\_bd/](http://www.kyrgyz.ru/articles/genealogy/spisok_kirgizskih_plemen_po_dzhamgerchinovu_bd/)

<sup>70</sup> <http://www.kazportal.kz/kratkoe-istoriya-kipchakov/>

qayd etilgan voqealarga sabab esa qipchoq qabilalarining mahalliy aholiga o`tkazdirgan zulmi oqibatida sodir bo`lgan edi.

XVIII asr boshlariga kelib Farg`onada yangi o`zbek davlati - Qo`qon xonligi tashkil topdi. Bu davlat o`zbek davlatchiligi tarixida alohida o`rin tutadi. Biz bu yerda Qo`qon xonligi aholisining etnik tarkibi haqida ma`lumot berishni joiz deb bildik.

Qo`qon xonligi tarkibida bo`lgan, feodal-patriarxal shaklda bo`lgan qirg`izlarning ijtimoiy tarkibi sharqdagi har qanday despotik davlatlaridan o`zining ba`zi bir jihatlari ajralib turar edi<sup>71</sup>.

Qirg`izlar orasida manaplik qachon vujudga kelgan? Bu masalada sovet tarixchilari va etnograflari orasida yagona fikr mavjud bo`lmagan. P.Kushner manaplik tizimining paydo bo`lishini urug` qabilachilik va feodal jamiyat paydo bo`lishi bilan bog`lagan bo`lsa, V.V.Bartold qirg`izlar orasida manaplikning paydo bo`lishini XVIII asr boshiga bog`laydi. Demak manaplikning paydo bo`lishini qirg`izlarning Qo`qon xonligiga bo`ysundirilishi bilan bog`liq ekanligini aytishimiz mumkin. Lekin XVIII asrning uchinchi choragiga oid yozma manbalarda manaplik haqida hech qanday ma`lumot berilmagan. U manbalarda asosan biy va botirlar haqida ma`lumot beriladi, xolos.

XIX asr boshida qirg`izlar orasida bo`lgan rus tabibi Zibbershteyn qirg`iz aslzodalari haqida gapirar ekan, ular orasidan biy va botirlar haqida aytib o`tadi, xolos. Zibbershteyn o`z esdaliklarida manaplar haqida hech qanday ma`lumot bermagan<sup>72</sup>.

Manaplikning boshlanishi qirg`izlar orasida feodal munosabatlarning boshlanishi bilan bog`liqdir. Manaplar “botirlar” deb nomlangan aslzodalar orasidan etishib chiqqanlar.

---

<sup>71</sup> Плоских. Там же. Б. 242

<sup>72</sup> Усенбаев К. Там же. Б. 119



Manaplik ierarxik xarakterga ega. Har bir qabilaning boshida “chon manap” yoki “og`a manap”, eng oliy manap turgan. Qolgan urug`, ovul va manzilgohlarni boshqaruvchi manaplar ushbu oliy manapga vassal hisoblangan. bo`ysungan<sup>73</sup>.

XIX asrning birinchi yarmida sarbag`ish qabilasining “chon manapi” Jontoy, Ormon qabilasining manapi – Jangarach (undan keyin Baytik), sayak qabilasining manapi – Dulat, bug`u qabilasining manapi esa Bo`ronboy bo`lgan. “CHon manap” yoki “og`a manap” qo`l ostida odatda 600-10000 oila bo`lardi. Yirik manaplarga bo`ysunuvchi “kichik manap” yoki “mayda manap”larga odatda 100 ta yurt (o`tov) bo`ysunardi. Manaplik tizimining eng quyisida “chala manap” yoki oddiy qilib aytganda “qurg`oq manap”lar (yarim manap) bo`lib, ularga bir necha oila bo`ysunar edi. Manaplarning avlodlari “chinjurli manaplar” jeb atalgan<sup>74</sup>.

Manaplar o`zlarini “oq suyaklar” deb hisoblaganlar. Ular kelib chiqishiga ko`ra o`zlarini aslzoda deb hisoblaganliklari uchun nikoh munosabatlarida asosan shu qoidaga amal qilgan holda, faqat o`z tabaqasiga mansub oila qizi bilan nikohlanishga harakat qilganlar. Agar manap oddiy tabaqaga mansub bo`lgan qizga uylanadigan bo`lsa, u holda uning avlodi haqiqiy manap hisoblanmas edi. Manapning qizi oddiy odamga turmushga chiqadigan bo`lsa manaplik huquqini yo`qotar edi.

Ba`zi manaplar ko`pning bosh chorvaga ega bo`lsa, ba`zilar umuman chorvaga ega bo`lmagan. Ba`zi manaplar chorvaga ega bo`lmasalarda, ular qirg`izlar orasida buyruq berish huquqiga ega bo`lganlar. Ular chorvaga ega bo`lgan barcha qirg`izlardan soliq yig`ish huquqiga ega bo`lganlar.

Yirik manap, ya`ni “chon manap” qoshida “qirq yigit” deb nomlangan (drujina – ko`ngilli askarlar *ta`kid bizniki G.E.*) maslahatchilari bo`lgan. Maslahatchilar odatda ta`sir doirasiga ega bo`lgan biy, oqsoqol va boylardan iborat bo`lar edi<sup>75</sup>. Ammo manaplar maslahatchilari fikri bilan doim ham hisoblashmaganlar, ko`p hrollarda mustaqil boshqarishga harakat qilganlar. “Qirq

---

<sup>73</sup> Усенбаев К. Там же. Б. 120

<sup>74</sup> Буров-Петров. На борьбу с байством и манпством. Фрунзе. 1927. С. 12

<sup>75</sup> Соколов А. О кара-киргизах. “Семиречинские областные ведомости”. 1910. №55

yigit” – bu ramziy atama bo`lib, ular odatda oddiy aholi orasidan olinar, ularning sonini qancha bo`lishi manapning ta`sir doirasiga bog`liq edi. “Qirq yigit”lar odatda yarim harbiylarni eslatuvchi, yirik feodallar qo`lida xizmat qiluvchi drujinachilar edi.

Manaplar o`zlariga bo`ysunuvchilar ustidan cheksiz hukmronlik mavqeiga ega edi. U hatto oddiy aholining oilaviy ishlariga ham aralashishi mumkin edi. 1856-yil iyun oyida Qirg`izistonda bo`lgan Cho`qon Valixonov esdaliklarida manaplar dastlab bir necha oilaga boshchilik qilgan bo`lsa, keyinchalik asta-sekinlik bilan hokimiyati kuchayib qirg`iz qabilalariga boshchilik qiluvchi mansabga aylanganligini yozib qoldirgan<sup>76</sup>.

Manaplar qirg`izlar orasida cheksiz hokimiyatga ega bo`lganlar. Masalan, Qirg`izistonning shimolida yashovchi Ormon qabilasining manapi o`zi uchun doimiy dor qurgan bo`lib, ko`pincha unda gunohsiz oddiy odamlarni qatl etib turar edi.

Nafaqat manaplar, balki unga bo`ysunuvchi yigitlarining ham hokimiyati cheksiz bo`lgan. XIX asrning 50-yillarida manapning yigitlaridan biri oddiy odamning qiziga uylanishni hohlagan. Uylanish uchun shartlashilgan qalinning yarmini (18 bosh chorva) beradi. Qalinning qolgan qismini to`lashni hohlamasdan, kelinni olib qochib ketmoqchi bo`ladi. Lekin qiz ko`nmagan. SHunda kuyov unga pichoq sanchadi. Qizning arteriyasi uzilib, qizni chala o`lik holatida qoldirib, bemalol uyiga ketadi. SHuncha voqeadan keyin ham yigit to`lagan qalinini qaytarib olgani etmagandek, ayb (jarima) to`laydi. Bu voqea qirg`izlar orasida manap hokimiyatining naqdar cheksiz ekanligini bildiradi.

Oddiy aholi manapga duch kelganida albatta unga ta`zim qilishlari kerak edi. Aks holda qattiq jazolanar yoki jarimaga tortilar edilar.

Manaplar yangi tashkil etiladigan soliqlarning tashabbuskori bo`lib, soliqlar ular uchun boyish manbai hisoblangan.

---

<sup>76</sup> Усенбаев К. Там же. Б. 122

Manaplar hokimiyati nasliy bo`lib, otadan o`g`ilga meros bo`lib o`tgan. 1859-1860-yillarda qirg`izlar orasida bo`lgan M.Venyukov “Qora-qirg`izlar manap yoki oqsoqol deb ataladigan odamlar tomonidan boshqariladi. Ular dastlabki davrlarda saylangan bo`lsa. Keyingi davrlarda merosiy shaklga o`tgan” deb ma`lumot bergan.

Qo`qon xonlari manaplar timsolida qirg`izlar orasida o`zlarining ijtimoiy tayanchi va hokimiyatlarini qo`llovchilarni ko`rganlar. Hatto ba`zi bir manaplar o`z xalqi orasida soliq yig`uvchi vazifasini ham bajargan. Zakot va xiroj hisobidan ularga bir yilda 100 qo`y va har biriga besh botmondan g`alla berilgan. Mana shu maqsadda xonlar ba`zi bir qirg`iz aslzodalari oliy manaplik haqida yorliq berganlar. Bunday unvonga Sadir, Norbo`ta, Ko`kimboy va boshqa manaplar oliy manaplar unvoniga ega bo`lganlar.

Qirg`iz aslzodalari orasida manaplar bilan birga dodxoh (datxa) ham asosiy rol o`ynaganlar. Dodxohlar ham manaplar singari fuqarolariga ega bo`lib, ulardan soliq olganlar, o`z yurtiga kelgan savdogarlardan bojlar olganlar. Ularning boshqaradigan ma`lum bir hududlari bo`lgan. O`ziga bo`ysunuvchi aholini jinoyati uchun jazolaganlar. Moddiy etishmovchiliklar bo`lgan paytda o`ziga bo`ysunuvchi aholidan moddiy yordam sifatida “jardam” (“yordam”) va “qo`shimcha” pul yiqqanlar.

Qirg`izlar Qo`qon xonligiga bo`ysundirilgach, ularni boshqarishda xonlar asosan aslzodalarga tayanganlar. Qo`qon xonlari qirg`izlarni boshqarishda janubiy hududlarni - dodxoh, shimoliy hududlarni esa – manaplar orqali boshqarganlar<sup>77</sup>.

Qirg`iz aslzodalari ichida keyingi o`rinda turuvchilar “boy”lar deb atalgan. Qirg`izlarda har qanday boylika ega bo`lgan shaxslarni “boy” deb ataganlar.

Boylarning manaplardan farqi ularning kelib chiqishida emas, balki boyligining miqdorida edi<sup>78</sup>.

---

<sup>77</sup> Плоских. Там же. С. 244

<sup>78</sup> Усенбаев К. Там же. Б. 127

Biy yoki boylar 10, 20 va 30 ta o'tovga boshchilik qilar edi. Har bir boy o'z hududi va fuqarolariga ega bo'lgan. Agar boy vafot etsa uning o'rnini o'g'li yoki ukasi egallar edi.

XVIII asr oxiri - XIX asr boshida har bir qabila boshida o'zining biyi turardi: Oljonboy (ariq urug'i), Sherali (belek va jelden urug'i), Yaiq (Ajiq) (qidqi urug'i) va Shapak (seit urug'i)<sup>79</sup>. N.A.Aristovning ta'kidlashicha, XVIII asrning ikkinchi yarmida sarbag'ish qabilasini Ataka biy, sayoq qabilasini Gadoybiy, qushchi qabilasini Gashibek (Ajibek), bug'u qabilasini Pirnazar biy va xitoy qabilasini Musa biylar boshqarganlar.

Ko'rilayotgan davrda boshqaruv tizimi butunlay boylarning qo'lidan manaplar qo'lga o'tadi. Boylarning qo'lida faqatgina sud hokimiyati qoladi. Urug'lar birlashmasidan tashkil topgan qabilada bir necha biylar bo'lgan. Qabilada biylarning soni ovullarning soni bilan bog'liq bo'lgan. Biylar aslzodalardan kelib chiqqan bo'lib, u merosiy bo'lgan.

Qo'qon xonlari qirg'izlarni shariat asosida boshqarishga harakat qilib, biylarni qozilik bilan almashtirishga harakat qilgan. SHu maqsadda Qirg'izlar janubida yangi mansab biy – qozilikni joriy etadi. Lekin xonlar biylik tizimini tugata olmaganlar. Qirg'izlar orasida sud ishlari biylar qo'lida qolavergan, faqatgina Farg'ona vodiysining janubi-sharqiy qismida sud ishlari qozilar qo'lga o'tadi.

Biy o'z faoliyatida ishlarni odat va an'analar asosida ko'rgan. Shuning uchun biylar o'z xalqining odat va an'analarini yaxshi bilishi talab qilingan.

Feodal toifalar orasida botirlar va oqsoqollar ham bo'lgan. Botirlar dastlab dushmanga qarshi kurashdagi qahramonga nisbatan ishlatilgan atama bo'lgan bo'lsa, keyinchalik feodal toifaga aylangan va qabilaning harbiy rahbariga nisbatan ishlatilgan.

Boy tabaqalar sirasiga yana xalfa, muftiy, yirik mulla (ulamo) va islom diniga mansub yirik mullarni kiritish mumkin edi. Ular o'z foydasiga xalqdan "ushur",

---

<sup>79</sup> Путевые записки лекаря Зибберштейна. Исторический архив. Т.1. Москва-Ленинград. 1936. С. 244-257

“bitir”, “sadaqa”, “dooron”, “janaza” va boshqa soliq va yig`imlarni yig`ib olganlar. Ushur solig`i hosilning 1/10 qismini tashkil etgan. Chorvadan olinadigan ushurning miqdori har yuz bosh chorvaga bir bosh edi. Bitir chegara postlari uchun olinadigan natural soliq bo`lib, uning miqdor aniq belgilanmagan. Shuning uchun xalpa yoki mulla uni hohlagan miqdorda yig`ib olishni talab qilishi mumkin edi.

To`yda kuyov nikoh o`qiganligi uchun mullaga albatta sovg`ani pul shaklida berishi kerak edi. Pulning qancha bo`lishi kuyovning qaysi tabaqaga mansubligi bilan belgilangan. Bunday to`lov “nike aqisi” deb atalgan.

Qirg`izlar orasida oddiy, kambag`al aholini bukara deb ataganlar. Bukaralar aholining asosiy qismini tashkil etganlar. “Bukara” so`zi arabcha faqir – kambag`al, qashshoq so`zidan kelib chiqqan. Qirg`iz jamiyatida esa “bukara” atamasi qora xalqqa nisbatan ishlatilgan atama edi<sup>80</sup>.

O`z chorvasiga, mulkiga ega bo`lmagan kambag`al-qashshoq aholi manap yoki boy bilan ko`chib yurishi, unga doimiy xizmat qilishi kerak edi. Umuman kambag`al aholi konshu deb atalgan. Konshular asosan boylarning chorvasini boqish bilan shug`ullangan.

Boylar o`z xo`jaligini yuritishda konshulardan tashqari malay yoki jalchi deb atalgan toifalardan foydalangan. Boylar qo`lida asosan mulkka ega bo`lmagan kambag`al aholi ishlagan.

Jalchilarning ahvoli niyahoyatda og`ir bo`lgan. Kunduzi ular boylarning chorvasini boqsalar, tunda ularni qo`riqlaganlar. Ular tunu-kun ishlashga majbur edilar. Ular to`yib ovqat emas, juda yupun kiyinganlar. Jalcha va malaylar yarimoch yurganlar. Xo`jayin uni o`z hohlaganicha jazolashi mumkin edi.

Jalchalar odatda bir yilga yollanib ishlaganlar. Ular xizmat haqida bir sigshir yoki bir necha qo`y olishi mumkin edi. Ba`zan esa boylar xizmat haqqini berishdan bo`yin tovlashi ham mumkin edi.

---

<sup>80</sup> Усенбаев К. Там же. Б. 135

Ba`zan jalcha va malaylar boy xo`jaligidan quruq qo`l bilan ketishga majbur bo`lardilar.

Qirg`iz xalqi ichida ko`chmanchilik bilan emas, o`troq dehqonchilik bilan shug`ullangan aholi “jatakchi” deb atalgan. “Jatakchi” – ko`chib yurmaydigan, o`troq degan ma`noni bildiradi<sup>81</sup>.

### **3.3. Soliqlar va majburiyatlar**

Qo`qon xonligida soliqlar tizimi qadimdan rivojlanib kelgan soliq tizimiga asoslangan edi. Xonlik joriy qilgan soliq tizimi shariat qonunlariga asoslangan edi. Qirg`iz va qipchoqlar yashaydigan hududlar xonlik tarkibiga qo`shib olinishi bilan ularning hududlari xonlik mulkiga aylandi. Qirg`iz va qipchoq qabilalaridan yer va chorva mollari soliqlari olina boshlandi<sup>82</sup>.

Xonlikda joriy qilingan soliq tizimi shariat qonunlari asosida tasniflangan va tartibga solingan edi. Qo`qon xonlari joriy qilgan soliq tizimi mamlakatning barcha aholisiga nisbatan birdek tartibda amal qilar edi. Bunda o`zbek, tojik, qirg`iz va qipchoq kabi xalqlarning soliq to`lash tartiblari bir xil edi. Xonlikda joriy qilingan soliqlar tizimi asosan aholi ustidan o`rnatilgan nazoratning bir ko`rinishi edi. Xonlik viloyatlarining soliq to`lash imkoniyati mahalliy aholining shug`illanadigan mashg`ulotlariga bog`liq edi.

Qirg`izlar Qo`qon xonligiga qo`shib olingach, xalqdan olinadigan soliq shariat bo`yicha amalga oshirilgan. Qirg`izlar xonlikka qo`shib olingach, ularning hududlari shariat bo`yicha davlatniki deb e`lon qilingan, ulardan shariat bo`yicha er solig`i va zakot olingan.

Qo`qon xonligida ham boshqa SHarq mamlakatlaridagidek, oliy hokimiyat cheklanmagan edi. Mahalliy aholi xon noibi oldida bo`ysunishga majbur bo`lgan.

Soliqlar mehnat qilishga va harbiy xizmatga yaroqli bo`lgan barcha aholidan olingan. Soliqdan asosan istisno tariqasida alohida tabaqalar, ruhoniy tabaqalar, diniy tashkilotlar ozod qilingan.

---

<sup>81</sup> Усенбаев К. Там же. Б. 137

<sup>82</sup> Плоских В. М. Киргизы и Кокандское ханство, Фрунзе, Илим., 1977. С. 256

Soliq masalasida xon hokimiyatida aniqlik bo`lmagan. Masalan, Qo`qonda xonning shaxsiy boyligi bilan davlat xazinasi ajratilmagan edi. Soliqlar miqdori irinchidan, yuridik normalar bilan emas, balki xonning ehtiyojiga bog`liq bo`lgan. Ikkinchidan, bu miqdor bek va unga bo`ysungan holda asosiy soliq yig`uvchi hisoblangan sarkorlarning ham ehtiyojiga bog`liq edi.

Qo`qon xonligida zakot olinish tartibi umuman nazorat qilinmagan. Zakot zakotchilarning boyishi manbai hisoblangan. Zakotchilarning nohaqliklari ko`p hollarda qurolli kuch bilan bostirilgan aholining qo`zg`olon ko`tarishlari bilan tugar edi<sup>83</sup>.

Soliqlar aholidan xon tomonidan tayinlangan beklar tomonidan olingan. Ba`zan esa soliq yig`ish huquqi ijara shaklida ma`lum bir shaxslarga berilardi. Bu esa aholini talashning eng oddiy usuliga aylanib ketar edi. 1875-yil oktyabr oyida Qo`qonga kelgan A.Kun xonlikdagi soliq tizimi haqida ma`lum bir ma`lumotlarni qoldirgan. A.Kun soliq haqida ma`lumot berar ekan, birinchi o`ringa odatiy soliq, ikkinchi o`ringa esa Xudoyorxon hukmronligining so`nggi davrida joriy etilgan soliqni keltirib o`tadi. Bu aytib o`tilgan soliq quyidagilar edi: tagjoy – savdo o`rni uchun to`lanadigan soliq, bozordan keladigan foyda; nikoh puli yoki tarikona – nikoh o`qishdan va merosni bo`lganlik uchun to`lanadigan soliq; lukata puli – egasiz mulklardan olinadigan soliq; tarozi – tarozi va ko`chmas mulklardan olinadigan soliq; kechuv puli – daryodan kechib o`tganlik uchun to`lanadigan soliq; tamaki puli – tamaki ekiladigan hududlar uchun to`lanadigan soliq; namak puli – tashqaridan keltiriladigan tuz uchun olinadigan soliq<sup>84</sup>.

Xudoyorxon davrida yana qo`shimcha soliq joriy etilgan. Masalan, xarajat – ko`chmanchilardan; qarag`ay puli – bozorga yog`och keltirganlik uchun; o`t puli – daladan o`tin yiqqanlik uchun; dallola puli – makler yoki bozorda dallollik qilganlik uchun; ko`k puli – qo`shimcha daladagi ko`kalamzorlardan foydalanganligi uchun; suv puli – tog`dagi suvni ariqlarga keltirib xalqqa tarqatilganligidan foydalanib soliq olish va hokazolar.

---

<sup>83</sup> Плоских. Там же. С. 258

<sup>84</sup> Плоских. Там же. С. 259

Ko`chmanchi xalqlardan soliqlar odatda oktyabr, noyabr va dekabr oylarida yig`ib olingan. Faqatgina istisno holatlarda soliq to`lash uchun qo`shimcha muddat belgilanib, bu muddat 1-yanvardan 1-martgacha bo`lgan<sup>85</sup>.

Qirg`izlardan zakot odatda qo`shin yordamida yig`ib olingan. Soliq yig`ish paytida qirg`izlar hududlariga katta qo`shinlar jo`natilgan.

Qo`shinlarning jo`natilishi bu aholining qo`shimcha talanishi degani ham edi. Manap Jontoy Qorabekov 1863-yili soliq yig`uvchi Xujoybergan tomonidan qirg`izlarning bashkay va qo`shni qabilasi talanganligi, ulardan 5 ming qo`y, 1000 ta ot, qirg`izlarning boshqa qabilalaridan esa 10 ming qo`y, 3 mingta ot olinganligi haqida ma`lumot qoldirgan.

Ba`zi hollarda qirg`iz ko`chmanchilaridan soliq yig`ish huquqi xon tarafidan mahalliy feodallarga berilgan. Buning uchun alohida zakot miqdori – o`lpon belgilangan.

1870-yillarda Marg`ilon bekligidagi qirg`izlardan yiliga 8-10 ming rubl miqdorida zakot yig`ib olingan<sup>86</sup>.

Soliq to`lovchilarni qayd etish davtariga odatda soliq to`lovchining ismi emas, balki soliq yig`ishga mas`ul bo`lgan amaldorning ismi qayd etilgan.

Xonlik markazida o`zaro kurash kuchaygan paytda qirg`izlar soliq to`lamay qo`yishar, markazdagi boshboshdoqliklar tugatilgach, xon ko`chmanchilar orasiga qaytadan qo`shin jo`natib soliqni ortig`i bilan yig`ib olar edi.

Aholi soliq to`lash bilan birga, mehnat majburiyatini ham o`tar edi. Bu mehnat majburiyati odatda katta ariqlar qazish, davlat ahamiyatiga ega bo`lgan yirik qurilishlarni amalga oshirish uchun tashkil etilar edi.

Shunday yirik masshtabdagi ishlardan biri bu 1819-yili Umarxon tomonidan Yangiariq kanalining qazilishi edi. Bu kanalni qazishda har bir oila 15 kun tekin ishlab berishi kerak edi. Umarxondan so`ng Madalixon va Xudoyorxon davrlarida mehnat majburiyati o`rniga fuqarolar pul to`lab ozod bo`ladigan bo`ldilar<sup>87</sup>.

---

<sup>85</sup> Плоских. Там же. С. 260

<sup>86</sup> Плоских. Там же. С. 261

<sup>87</sup> Плоских. Там же. С. 263



Shunday qilib, XIX asrda Qo`qon xonligi tomonidan olinadigan natural – renta solig`i Qirg`izistonda pul bilan olinadigan bo`ldi. Ba`zan esa u ishlab berish shaklida ham bo`lgan<sup>88</sup>.

Aholidan olindigan soliqlar xonlarning kundalik sarf-harajatlarini qoplar edi. Xonlikning harbiy qo`shinlarining maoshlari xon xazinasidan qoplanar edi. Bundan tashqari amaldorlarning maoshlari ham aynan mamlakat aholisi to`laydigan soliqlardan qoplanar edi. Xonlikdagi barcha yerlar xonning mulki hisoblangan. Xonlar ushbu yerlarni amaldorlar, qarindoshlari, qabila boshliqlari va boshqalarga yerdan olinadigan soliqlarning bir qismini o`zida qoldirish sharti bilan hadya qilar edi.

Manbalarga ko`ra, amlok xon ixtiyoridagi yer bo`lib, u “zamini xos”, deb atalgan. Bunday yerlar xon tomonidan ayrim guruh va mansabdor shaxslarga berilgan. Yerni olgan kishi unga o`z hisobidan ishlov berib, sug`organ. Olgan hosildan esa xonga soliq to`lagan va bu soliq miqdori xiroj (xiroj – hosilning 1/5 dan 1/8 qismigacha tashkil etgan) dan ko`proq bo`lgan.

Yerga egalik qilishda mulk, ijara, urg`u, tanho shakllaridan ham foydalanilgan. Mulk – boylarga qarashli xususiy yerlar bo`lib, ular dehqonlarga ijaraga berilgan. Ma`lumotlarga ko`ra, ijara – muayyan shartlar asosida beriladigan barcha ko`chmas va ko`chadigan mulk-yer, ariq, tegirmon, tim, rasta, ulov av boshqalarni o`z ichiga olgan mulk shakli bo`lsa, urg`u – musodara qilish yo`li bilan xon mulkiga aylantirilgan yoki gunohkorni qo`lga olishda jonbozlik qilgan shaxslarga berilgan yer va mol-mulkdir.

Tanho – hukmdor tomonidan alohida xizmat ko`rsatgan kishilarga amloq yerlardan ba`zilari in`om etilishi tufayli paydo bo`lgan mulk shakli bo`lib, bunday yerlarda soliq yig`ish huquqi tanho egalari – tanhodorlarga berilgan. U o`ziga berilgan yer, bir nechta qishloq, hatto, katta mulkning yillik yoki yarim yillik daromadini hadya sifatida olgan. Ba`zan, amaldorlar bir umr tanhodor bo`lgan va

---

<sup>88</sup> Плоских. Там же. С. 264

o`g`li xon marhamatiga sazovor bo`lsa, tanhodorlik meros sifatida davom etgan. Harbiylarga tanho yoki xiroj taqdim etilsa, u tarxon deb atalgan.

Bu davrda xonlikning daromadi mahsulot va puldan iborat bo`lib, ular asosan soliqlar undirish yo`li bilan hosil qilingan. Soliq va majburiyatlar xonlikning barcha shahar va qishloqlarida deyarli bir-biri bilan chambarchas bog`liq bo`lgan. Mamlakatda mavjud soliqlar joriy etilishiga ko`ra, to`rt turga: shariat qonun-qoidalariga binoan belgilangan asosiy soliqlar; rasmiy soliqlar; an`anaviy soliqlar; favqulodda joriy etilgan soliqlar.

Manbalarga ko`ra, shariat qonun-qoidalari asosida joriy etilgan asosiy soliqlar: – xiroj, ushr va zakot hisoblangan. Dehqonchilikda donli ekinlar ekiladigan yerlardan olinadigan soliq – xiroj deb atalgan. Bu soliq hosilning beshdan bir qismini tashkil etib, 5 qop g`allaning bir qop miqdorida undirilgan. Soliqning bir qismi mahsulot, bir qismi esa pul bilan to`langan.

Ushr yerlari – “zamini ushr” deb yuritilgan yerlardan hosilning undan bir qismi miqdorida ushr solig`i ruhoniylar foydasiga undirilgan. Zakot – mahsulotdan olinadigan savdo solig`i yoki chorva mollari hisobidan olinadigan soliq bo`lib, daromadning qirqdan bir qismini tashkil etgan. Xonlikning savdogarlik sarmoyalari aniq bo`lmaganligi sababli, sharoitga qarab daromaddan zakot olingan. Shuningdek, chorva mollaridan ham qirqdan bir ulush hisobida zakot olingan. Arxiv hujjatlarida an`anaviy zakotdan tashqari – bo`roqi zakoti, elatiya zakoti, sarkarda zakoti kabilar haqida ma`lumotlar bor.

Xonlikda joriy etilgan tanobona, xonsoliq, karvonlardan chegara yoki maxsus belgilangan shaharlarda, Sirdaryo kechuvidan olinadigan boj to`lovlari, tuz boji, bozorlarda savdogarlardan, xon mablag`iga qurilgan barcha inshootlardan olinadigan soliq kabilar rasmiy soliqlarga kirgan. Bog`dorchilik, sabzavotchilik, polizchilikda ekin ekiladigan yer maydonining hajmiga qarab tanob solig`i olingan. Soliq yig`uvchi amaldor tanobchi (har bir tanob yerdan soliq oluvchi), eakot solig`ini yig`uvchi amaldorlar zakotchi deb atalgan.

An`anaviy soliqlarga to`y marosimlaridan, meros bo`linishidan, tarozidan, daryodan o`tish uchun sollardan, qirg`iz va qozoqlarning chorvasidan olinadigan

va shunga o`xshash soliqlar kirgan. Xonlikda bulardan tashqari yana turli xil favqo`lodda soliqlar mavjud bo`lib, u tilla puli va mis puli, ulov puli, alaf puli, nafsona, mushtak, kafsan, yaksara va boshqalardir.

Soliqlar qat`iy belgilangan miqdorda hamda o`z vaqtida yig`ilishi shart bo`lsa-da, xon va amaldorlarning ihtiyori bilan bu holat o`zgarib turgan. Harbiy harakatlar paytida, ayniqsa, soliqlarning turi va miqdori oshirilgan.

Xon xazinasiga kelib tushgan soliqlar – xossachi, bek xazinasiga tushgan soliqlar – bekklik deb atalgan. Manbalarga ko`ra, xon ihtiyoridagi yerlar “zamini xos” deb atalib, undan keladigan barcha daromad xonning ihtiyorida bo`lgan. Xon xazinasiga tushadigan soliqlarning deyarli barchasi Qo`qon shahri va uning atrofidagi qishloqlardan yig`ilgan. Chetdan xon ihtiyoriga mahsulot va chorvadan yig`iladigan zakot, Sirdaryo kechuvdan olinadigan boj, tuzdan, xossachi joylardan, xon mablag`iga qurilgan barcha inshootlardan olinadigan soliq, to`y marosimlaridan va meros bo`lishdan yig`iladigan soliqlar tushgan.

Qo`qon xoligida soliqlardan ozod qilingan, ya`ni, “mulki xur” yerlar ham mavjud bo`lib, ularning egalari bo`lgan sayyid, xo`jalar, shayxlar va eshonlar xonning maxsus inoyatnomalari asosida barcha soliqlardan ozod qilinganlar. Shuningdek, xonzoda va to`ralar, ba`zi qozi, rais, amin, darvesh va so`filar ham tanob solig`idan ozod qilingan.

Soliqlardan tashqari aholi majburiy ravishda turli ishlarga – kanallar qazish, ariqlarni tozalash, obodonchilik ishlari, turli qurilishlarga, ayniqsa, hukmron tabaqalarning xizmatlariga jalb etilgan. Soliq, to`lov va majburiyatlarning yildan yilga oshib borishi natijasida Qo`qon xonligida xalqning noroziligi ortib borib, xonlikdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning keskinlashuvi davlatning siyosiy inqirozini ta`minlab bergan edi.

Erodnabiy hukmronligi davrida qirg`izlar yashaydigan hududlarni bosib olishga kirishildi. XVIII asrning ikkinchi yarimiga kelganda O`ratepa viloyatiga xonlikning harbiy qo`shinlari hujum uyishtirgan edi. Xonlik hududining kengayish natijasida boshqaruv tizimlari ham rivojlanib borgan. Xonlikda dastlabki soliqlarni tartibga solish ishlari aynan Erdonabiy hukmronlik qilgan davrda amalga

osHIRILGAN edi. Bunda asosan xonlik aholisining soliq to`lash imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda islohot amalga oshirilgan. Qo`qon muarrixlarining yozishicha xonlikning davlat xazinasini aynan Erdonabiy hukmronlik qilgan davrdan boshlab ko`paya borgan edi. Xonning qirg`izlar ustidan hukmronligining o`rnatilishi oqibatida xonning harbiy qudrati ham ortib borgan, xonlik sharqda Xitoyda hukmronlik qilgan manjurlarning Sin sulolasiga qarshi muaffaqiyatli kurash olib borgan edi.

Norbo`tabiy hukmronlik qilgan davrga kelib xonlikda soliqlar tartibga solindi. Uning hukmronligi 1770-1801 yillarda Qo`qon xonligida yerlardan mo`l-ko`l hosil olingan, chorva mollari soni ancha ko`paygan, umuman aholining turmush sharoitlari ancha yaxshilangan edi<sup>89</sup>. Mamlakatda dehqon va chorvadorlarning soliq to`lash imkoniyatlari ancha yaxshilangan edi. Savdo-sotiq ishlari ham yaxshi yo`lga qo`yilgan, qo`shni mamlakatlar bilan munosabatlar ancha iliq ko`rinishda bo`lgan edi.

Olimxon hukmronligi davrida (1801-1810) xonlik harbiy qo`shinlari Janubiy Qozog`iston yerlariga yurishlar qilib, xonlik hududini kengaytirish siyosatini davom ettirgan edi. Bunda asosan qipchoq va qirg`iz qabilalari xonlikka bo`ysundirilib, aholining ijtimoiy tarkibi ham kengaydi. Olimxon Toshkent bekligiga yurish qilib, uni xonlik tarkibiga qo`shib olidi<sup>90</sup>. Toshkent ustidan Qo`qon xonligining nazoratini o`rnatilishi oqibatida Toshkent bekligi ta`siri ostida bo`lgan qozoq juzlari ham bevosita Qo`qon xoniga tobe bo`lib qoldi. Qozoq juzlari tarkibida qipchoq qabilalari ham istiqomat qilar edi. Xonlikka qipchoq qabilalarining kirib kelish jarayoni aynan Olimxon hukmronligi davrida sodir bo`lgan edi. Olimxondan keyingi hukmdor Umarxon (1810-1822) hukmronlik qilgan davrda xonlikning chegara qal`alari aynan xonlikning shimoliy hududlarida qurila boshlangan edi. Ushbu chegara qal`alarida qipchoq qabilalaridan bo`lmish qulon qabilasi yetakchi mavqega ega edi. Umarxon mamlakat hududini viloyatlarga bo`lib, ularga o`zining mas`ul amaldorlarini

---

<sup>89</sup> Мухаммад Ҳақимхонтўра. Мунтахаб ат-таворих. - Т.: Янги аср авлоди., 2010. Б. 431

<sup>90</sup> Бобобеков Ҳ. Қўжон тархи. - Т.: Фан., 1996. Б. 28.

tayinlagan. Amaldorlarning aosiy vazifasi xonlik qo`shinlarini boshqarib, mamlakat aholisi to`laydigan soliqlarni xon xazinasiga yuborishdan iborat bo`lgan. Umarxon hukmronlik qilgan davrda xonlikning qirg`iz qabilalari ustidan nazorati kuchaytirilgan. Qirg`iz qabilalarini markaziy hokimyat bilan bog`lash maqsadida Umarxon qabila boshliqlariga katta vakolatlar bergan edi. Qirg`iz qabilalaridan soliqlarni yig`ib xon xazinasiga yuborish ishini asosan qirg`iz biylariga topshirilgan edi. Umarxon hukmronligi davrida xonlikning xalqaro mavqei mustahkamlanib qo`shni davlatlar bilan do`stona aloqalar yo`lga qo`yilgan. Mamlakatda savdo ishlari tartibga solinib, mamlakatda keng obodonchilik ishlari amalga oshirilgan. Mahalliy muarrixlarning yozishicha aynan Umarxon hukmronligi davri xonlikning eng yaxshi davrlaridan biri bo`lgan deb ta`kidlanadi<sup>91</sup>.

Qo`qon xonligining harbiy qudrati Muhammad Alixon (1822-1842) hukmronlik qilgan davrda oshib qo`shni hududlarni bosib ola boshladi. Dastlab mamlakatning sharqiy hududlariga yurish qilib, Issiqko`lgacha bo`lgan yerlarni (asosan qirg`izlar istiqomat qiladigan hududlar) Qo`qon xonligi tasarrufiga kiritdi. Muhammad Alixonning keyingi yurishi xonlikning janubiy o`lkalari Vohan, Shug`non kabi hududlarga amalga oshirilib, ushbu hududlarga Qo`qon xonligi tobeligini tan oldirildi. Muhammad Alixon hukmronligi yillarida Sin imperiyasi hukmron doiralari Sharqiy Turkiston va Qoshg`ar o`lkalarida o`z hukmronligini o`rnatish maqsadida harbiy harakatlarni boshlab yuborgan edi. Muhammad Alixon Sharqiy Turkistondagi istilochilar bilan kurash olib borayotgan Jahongirxo`ja boshliq Qoshg`ar aholisiga yordamga harbiy qo`shin yuboradi.

1840-yilda Muhammadalixonning bosh maslahatchisi, davlatni boshqaruv ishlarida katta tajribaga ega bo`lgan Haqquli mingboshining tuhmatga uchrab xon tomonidan qatl etilishi shusiz ham qaltis bo`lib turgan vaziyatni yanada keskinlashtirib yubordi. Undan tashqari xon davlat ishlariga loqayd bo`lib, asosiy vaqtini haramida o`tkaza boshladi. Natijada davlatni boshqaruv ishlarida

---

<sup>91</sup> Муҳаммад Ҳақимхонтўра. Мунтахаб ат-таворих. - Т.: Янги аср авлоди., 2010. Б. 588

suiste`molliklardan umumiy noroziliklar boshlanib, xonni ag`darish uchun fitna tayyorlana boshladi.

Umuman olgan, XIX asrning o`rtalariga kelib Qo`qon xonligidagi siyosiy jarayonlar hamda ichki ahvol yanada og`irlashgan edi. So`nggi tadqiqotlarga ko`ra, buning sababi birinchidan, o`troq aholi ko`chmanchi va yarim ko`chmanchi bo`lgan qipchoqlar hokimiyatni tan olmaganlar. Xonlik hududlaridagi ba`zi viloyat hukmdorlari Musulmonqulga qarshi chiqdilar. Ikkinchidan, hokimiyatda yuqori mavqeyeni egallash hamda xonga ta`sir o`tkazish uchun qipchoqlar orasida ham o`zaro kurashlar borardi. Bu kurashlarda qipchoqlarning qulon urug`idan bo`lgan Musulmonquli ham faol ishtirok etgan. Uchinchi sabab esa, qipchoqlarning o`troq aholiga nisbatan yuritgan siyosati edi. Qipchoqlar o`troq aholiga nisbatan bepisandlik nazari bilan qarab, boshqa elat va etnik guruhlarni kamsitganlar. To`rtinchidan esa, tashqi omil – Rossiya imperiyasining asta-sekinlik bilan xonlik hududlariga bostirib kirishi siyosiy jarayonlarning yanada keskinlashuviga sabab bo`lgan edi.

1852-yilga kelib, Musulmonquli va qipchoqlarga qarshi kurash uchun o`troq mulkdorlar va toshkentlik zodagonlar Xudoyorxon atrofida birlashdilar. Bu kuchlar yordamida Xudoyorxon Musulmonqulini 1853-yilda qatl etib, uning tarafdorlarini yo`q qilgani bilan taxt uchun kurashlarga barham bera olmadi. Bunday vaziyatda xonlikning ichki ahvoli og`irlashib, u faol tashqi siyosatdan ham ancha orqada qoldi. 1858-yilda Sheralixonning ikkinchi xotinidan bo`lgan o`g`li Mallaxon Xudoyorxonni taxtdan ag`darib, o`zini xon deb e`lon qildi. Mallaxon va Aliquli qirg`iz boshchiligida yangidan tiklangan ko`chmanchilar guruhi uzoq hukm surmadi. Aynan shu guruh a`zolari Mallaxonga qarshi til biriktirib, 1863-yil 25-fevralda uni o`ldirdilar. Taxtga esa Xudoyorxonning akasi Sarimsoqbekning o`g`li Shohmurod o`tqazildi. Lekin, qo`shin boshliqlari va saroydagi ko`pchilik amaldorlar unga qarshi fitna uyushtirib, Xudoyorxonga yana taxtga o`tirishni taklif etib, odam yuboradilar.

## Xulosa

Mazkur magistrlik dissertatsiyada ilmiy tadqiq etish va atroflicha tahlil qilish uchun dolzarb mavzu tanlab olindi. Qo`qon xonligi tarixini o`rganish masalasi bugungi kunda keng ko`lamda amalga oshirilmoqda.

Milliy istiqlol davrida respublikamiz olimlari o`zbek davlatchiligi tarixi, shu jumladan Qo`qon xonligi tarixini obyektiv va xolisona tarzda yoritish borasida katta ishlarni amalga oshirdilar. Tarixchi olimlar qator kitob va risolalar, maqola va lavhalar e`lon qilib, bu davlat tarixining turli jihatlarini ilmiy asosda tahlil etdilar. Jumladan, qator maqola va ilmiy risolalarda Qo`qon xonligi aholisining etnik tarkibi, bu yerda yashagan turli elatlarning nufuzi, kasb-kori, mamlakatning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ularning tutgan o`rni masalalariga oydinlik kiritildi. Jumladan, qirg`izistonlik tarixchi olimlar Qo`qon xonligi davrida qirg`iz xalqining hayoti va turmushiga oid qator ilmiy ishlarni e`lon qildilar. Ammo Qo`qon xonligida yirik etnik guruhlardan bo`lgan qipchoqlarning bu davrdagi tarixi tarix fanida yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Xulosa shuki XVI-XIX-asrlarda vatanimiz hududidagi xalqlarning umumiy istiqomat qilgan makoni O`rta Osiyo mintaqasi bo`lgan. Hududda istiqomat qilgan xalqlarning maqsad va istaklari tarixan mushtarak bo`lib kelgan. Lekin, O`rta Osiyo hududining uchta mustaqil xonlikka bo`linib ketishi xalqlar o`rtasidagi munosabatlarga ta`sir ko`rsatmay qolmagan. Ana shu xalqlardan qipchoq va qirg`izlar mintaqada ko`chmanchilik bilan shug`ullanib kelgan. Qipchoq va qirg`izlarning Qo`qon xonligi tarkibiga kirgan urug va qabilalari xonlikning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotida sezilarli darajada ahamiyat kasb etgan.

Mazkur magistrlik dissertatsiyasi orqali quyidagilarni alohida belgilab ko`rsatish mumkin:

- Qo`qon xonligi tarkibiga qipchoq va qirg`iz qabilalarining qo`shib olish jarayoni xonlik tashkil topgan davridayoq boshlangan.
- Qipchoq va qirg`izlarning xonlik tarkibiga kirishi ularning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatiga ijobiy ta`sir ko`rsatgan. XVIII asrdan boshlab faqat chorvachilik bilan mashg`ul bo`lgan qipchoq va qirg`iz qabilalarining hayotida

hunarmandchilik, dehqonchlik va savdo-sotiq kabi sohalar ham kirib kel boshlagan. Ular XVIII asrning o`rtalariga kelganda hunarmandchilikning turli sohaları bilan shug`illana boshlagan.

- Xonlik boshqaruv shakllarining qipchoq va qirg`iz qabilalari hayotiga joriy qilinishi qipchoq va qirg`izlarda ham boshqaruv tizimlarining takomillashuviga olib kelgan. Qipchoq va qirg`izlarda qabila-urug` oqsoqollari tabaqalari shakllangan.

- Qipchoq va qirg`izlarning xonlik tarkibiga kirishi ular o`rtasida islom dinining keng tarqalishiga, aholining ijtimoiy tarkibini kengayishiga, ular o`rtasidagi munosabatlarning ma`lum bir tartib qoida asosida amalga oshirilishiga olib keldi.

Mamlakatimiz birinchi Prezidenti Islom Karimov xonliklar davri tarixiga yangicha nazar tashlar ekan, tarixchi mutaxassislarga quyidagi savollar bilan murojat qildi: —Nega jaxonda Axmad Farg`oniy Muxammad Xofiziy, Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Imon Buxoriy, Amir Temur, Mirzo Ulug`bek, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk siymolarni bergan bu millat XVII-XIX asrlarga kelib to shu chog`gacha erishgan yuksalish jarayonlaridan tushib ketdi? Nega so`ngi uch asr mobaynida boshimiz qaloqlikdan chiqmay qoldi? Ajdodlarimizning qattiq qarshiligiga qaramay chor Rossiyaning o`lkamizni nisbatan oson zabt etishida mana shu qaloqlikning ham o`rni bo`lmaganmikin. Darxaqiqat XVII-XIX asrlar jaxon tarixiga moddiy va madaniy yuksalish davri bo`lib qaralganligi ma`lum. Xususan Yevropadagi bir qator mamlakatlarda ishlab chiqarish sezilarli darajada o`sdi, zavod fabrikalar qurilib, yangi texnik uskunalari bilan jixozlandi, temir yo`llar qurildi dengiz yo`llari ochildi, mehnat unumdorligi oshdi, odamlarning moddiy va madaniy turmush darajasi ko`tarildi. O`rta Osiyo xonliklari ana shunday ijobiy jarayonlarda chetta qoldi. Qaloqlikka yuz tutti Bu qaloqliklarning ildizi, sabablari bor edi. Birinchidan asrlar davomida bir butun bo`lib kelgan mamlakatning, yagona iqtisodiy va madaniy makonda yashab kelgan xalqning uchga bo`linib ketishi xonliklar o`rtasidagi to`xtovsiz urushlar har bir xonlik ichida boshbosh boylik va hokimiyat uchun o`zaro tinimsiz davom etgan ikki nizo va



urushlar butun mamlakatni vayron qiladi. Bu jaxon guruhbozlikni keltirib chiqaradi, qabilalarning etnik aralashuviga, bir xalq bo`lib qovushishiga jipslashishiga xalaqt beradi. Davlat darajasida ham viloyatlar darajasida ham xalq, yagona vatan tushunchasining qadri anglab olinadi.

Ikkinchidan O`rta Osiyo davlatlarining asrlar davomida o`zgarmay kelayotgan davlat boshqaruv usuli, tuzumi tor doiradagi hukmdorlarning taraqqiyotiga g`ov bo`lib keladi.

Uchinchidan o`zbek xonliklari o`rtasida ichki iqtisodiy va savdo borligi shakllanadi. Natijada bu davlatlar hududlarida yashagan xalqlar o`rtasida yagona xalq, yagona millat, yagona vatan xis tuyg`usi shakllanadi. Aksincha, bunday oliyjanob xistuyg`ularning rivojlanishi va kamol topishiga to`squinlik qilindi. Bu XVII-XX asrlarda O`rta Osiyoda iqtisodiy va siyosiy xayot turg`unligining eng asosiy sabablaridan biri edi.

To`rtinchidan, qishloq xo`jaligida yerga xususiy mulkchilik qilishdan iborat, ishlab chiqarish munosabatlari saqlanib qolganligidir. Yer barcha boyliklarning manbayidir. Unga bo`lgan mulkchilik shakllari ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantiruvchi asosiy omil bo`lib hioblanadi. Yevropa va dunyodagi boshqa mamlakatlarda mavjud yerga egalik qilishning xususiy mulk shakli qishloq xo`jaligi taraqqiyoti va dastlabki kapital jamg`arish jarayonlarining qudratli vositasi bo`ldi.

Osiyoda xususan O`rta Osiyo xonliklarida esa mulk shakllari va dehqonchilik shakllari asrlar mobaynida o`zgarmadi. Yerga xususiy mulkchilikka asoslangan ishlab chiqarish munosabatlari o`zgarishsiz qolaverdi. Yerning asosiy egasi ilgarigidek oliy hukmronligicha qoldi.

Beshinchidan, xonliklarda sanoat rivojiga e`tibor kuchaymadi, oltingugurt, rangli metallar, marmar, toshko`mir, neft kabi boyliklarga serob konlar bo`lsada ularno qazib olish, tog`-kon ishlarini rivojlantirish kemasozlikni yo`lga qo`yish masalalari hal qilinadi.

Oltinchidan, tovar pul munosabatlari rivojlantirilmadi. Daromad iste`mol va qo`shin harajatlarini zo`rg`a qoplab kapitalga qilinmadi. Pul, oltin, kumush xon va amaldorlarning xazina to`plash manbayi bo`lib qolgan edi.

Yettinchidan, xonliklarning savdo munosabatlarida xamon ayirboshlash usuli davom etardi. O`rta Osiyo jaxon bozoridan ajralib qolgani ustiga bu yerda yagona ichki bozor ham tashkil topmadi.

Sakkizinchidan, XIX-asr ikkinchi yarmida vatan istiqboli uchun qayg`uradigan odamlarni bir g`oya va bir ezgu maqsad yo`lida birlashtira oladigan hamda ortidan ergashtira oladigan yo`lboshchilardan bo`lmadi. Buxoro amirligiga xam, Qo`qon va Xiva xonliklarida xam shunday arbob tarix saxifasiga chiqmadi. Bosqinchilarga ko`ksini qalqon qilib ko`hna turon jangovar shavkatini namoyish qila oladigan va Turkistonni bir umuminsoniy makon uy deb bilgan yurtboshi topilmadi.

Xullas, O`rta Osiyodagi yuqorida tavsiflangan omillar, bu yerdagi iqtisodiy va harbiy tang holat o`ziga qo`shni bo`lgan mamlakatlarni o`z mustaqilligiga aylantirish siyosatini avj oldirayotgan chor Rossiyani saltanatiga juda ham qo`l keladi. Mintaqadagi ijtimoiy siyosiy madaniy qaloqlik, parokandalik o`zaro nizo va urushlar pirovar natijada O`rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va mustamlakaga aylantirishiga olib keldi.

## FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO`YXATI

### I. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:

- 1.1. Karimov I. A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma`naviyat, 2008-yil.
- 1.2. Sh. M. Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat`iy intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak. – T.: O`zbekiston, 2017.
- 1.3. Sh. M. Mirziyoyev. Buyuk kelajagamizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O`zbekiston, 2017.
- 1.4. Sh. M. Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat`iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz. – T.: O`zbekiston, 2017.

### II. Manbalar

1. Muhammad Hahimxonto`ra. Muntaxab at-tavorix. T., Yangi asr avlodi, 2010.
2. Mirzo Olim, Maxdum Hoji. Tarixi Turkiston. T., Yangi asr avlodi, 2008.
3. Ishoqxon Jo`naydullaxo`ja o`g`li Ibrat. Farg`ona tarixi.//Meros. T., Kamalak, 1992
4. Mirza Olim Mushrif. Qo`qon xonligi tarixi. (Ansob us-salotin va tavorix ul- xavoqin) T., “G`.G`ulom”, 1995.
5. Muhammad Aziz Marg`iloniy. Tarixi Aziziy. T., Ma`naviyat, 1999.
6. Avaz Muhammad Attor Ho`qandiy. Tarixi Jahonnomayi//Sharq yulduzi, 1991. 8-son.
7. Muhammad Yunus Toib. Tarixi Alimquli Amirlashkar//Sharq yulduzi, 1996. 1-son.

### III. Adabiyotlar

- 3.1. Плоских В.М. Киргизы и Кокандское ханства. Фрунзе. Илим. 1977

- 3.2. Б.Боотаева. Киргизы между Кокандом, Китаем и Россией. Бишкек. 1995.
- 3.3. Усенбаев К. Общественно-экономические отношения киргизов в период господства Кокандского ханства. Фрунзе. 1961
- 3.4. Набиев Р. Из истории Кокандского ханства. –Т.: Фан. 1973.
- 3.5. Достоевский М. Страна и быт Средней Азии. Москва. Образование., 1917
- 3.6. Бартольд В.В. Очерк истории семиречья. Фрунзе. Киргизгосиздат., 1943
- 3.7. Амитин-Шапиро З.Л. Аннотированный указатель литературы по истории, археологии и этнографии киргизии (1750-1917). Фрунзе., 1958
- 3.8. Алекторов А. Е. Указатель книг, журнальных и газетных статей и заметок о киргизах. Казан., 1900.
- 3.9. Фиельструп Ф.А. Исследования среди кара-киргиз. Фрунзе., 1959.
- 3.10. Ошанин Л.В. Материалы по антропологии Средней Азии, Киргизы южного побережья Иссык-куля. – Т.: 1927.
- 3.11. Гинь Г.К. Основы начала проекта водного закона для Туркестана. С-Петербург., 1912.
- 3.12. Айтбаев М.Т. Социально-экономические отношения в киргизском аиле в XIX и начале XX веков. Фрунзе. Киргизгосиздат, 1962.
- 3.13. Ожукеева Т.О. Политические процессы в странах Центральной Азии. Бишкек., 1995.
- 3.14. Усенбаев К. Общественно-экономические отношения киргизов в период господства Кокандского ханства. Фрунзе., 1961.
- 3.15. Катанаева Г.Е. Киргизская степь, Средняя Азия и северный Китай в XVII и XVIII столетиях.
- 3.16. Кененсариев Т. Кыргыздар жана Кокон хандыгы. Ош, 1997.
- 3.17. Павлов Н.Г. История Туркестана. 1911.
- 3.18. Бобобеков Х. Қўқон тарихи. -Т.: Фан., 1996.
- 3.19. Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида тарихшунгосликнинг ривожланиши. -Т.: Фан., 1998.
- 3.20. Ahmadjonov F. Rossiya Imperiyasi Markaziy Osiyoda. Т.: Sharq, 2003.
- 3.21. Арслонзода Р. Қўқон хонлиги манбашунослиги ва тарихшунослиги маърузалар матни. Фарғона. 1999.
- 3.22. Вельяминов-Зернов. Исторические известия о Кокандском ханстве от Мухаммада Али до Худаярхана. Санкт-Петербург. 1859.
- 3.23. Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии. С-Петербург., 1906.

- 3.24. Бейсембиев Т.К. Кокандская историография. Алматы. 2009
- 3.25. Ҳасанов А. Қўқон хонлиги даврида Қирғизистондаги халқ харакатлари. – Т.: 1961.
- 3.26. Shamsuddinov R. Karimov Sh. Ubaydullayev O`. Vatan tarixi. -Т.: Sharq. 2010,
- 3.27. Холлиев Г. Ғ`уломов Х. О`zbekiston tarixi. -Т., Universitet. 1997.
- 3.28. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. -Т.; Sharq. 2000.
- 3.29. Полторацкий. Общий обзор страны, лежащей к западу от Заилийский края между реками Чу и Сырдарьей. “Туркестанский сборник”. Том. 16.
- 3.30. Валиханов Ч. Избранный произведения. Алма-Ата. 1958.

#### **IV. Davriy matbuot materiallari:**

1. О`zbekiston milliy entilopediyasi.
2. Xalq so`zi gazetasi. 1991-1999 yillar
3. Sharq yulduzi jurnali. 1-8 sonlar.

#### **V. Internet sahifalari:**

1. <http://www.icc.uz>
2. <http://www.uzreport.uz>
3. <http://www.press-servise.uz>
4. <http://www.mfa.uz>
5. <http://www.uza.uz>
6. <http://www.rea.uz>
7. <http://www.gov.uz>
8. <http://www.arxiv.uz>
9. <http://www.kirglib.kgz>


## По́валар:



Бегство кокандского хана от повстанцев.  
Рис. худ. Каразина. 70-е годы XIX в.




Киргизские войны.  
Из альбома худ. Кошарова, 1857 г.




Предметы киргизского ремесленного производства. XIX в.




Предметы киргизского ремесленного производства. XIX в.



**КОНСТРУКЦИЯ  
УГЛОВОЙ БАШНИ**



**ХАРАКТЕР  
КЛАДКИ СТЕН**




План мазара XVIII в. Чирак-Булак.  
1973 г.



Киргизская намогильная архитектура XVIII—XIX в. Мазар на Чаткале.  
Фото 1968 г.





Новые находки киргизских археографов. 1976 г.




Атбашинская пещера-хранилище старых рукописей и документов.  
*Фото 1976 г.*

و بعد از آنکه این زمین را در موقوفه خود قرار داد و آنرا به یک نفر از اعیان مومنان  
 و بعضاً بیک منور و له کید از اعیان مومنان موقوفه نمود که شرفاً تا آنکه موقوفه خود را  
 شش سال ۱۲۵۹ هزار صد و پنجاه و یک عدد اجاره شمرده کرده شد و در آن روز در حق و ملک هر صادق صوفی  
 و دگر سینه منور را جمیع حقوق و المرافق بیدل مبلغ هفتصد و بیست و نه تومان و در حق و ملک هر سلف  
 مع منور ایام و قبضه بجهت تقاضا دو سال هفت ماه و آنرا از تاریخ مذکور مع منور ایام و قبضه  
 المعنیه آنها با او در روز مسایر مذکور مبلغ هر دو تنه را در هر سال بعد از آن و در سینه منور از آنجا  
 علاوه بر حق الخایه و تسکیم مع الامتیا علی المیت الذکور جنس الارش و الزرع و کلیه آنکه مذکور است  
 در این سند  
 ۱۲۵۹  
 عثمانیاً و سلیحاً و میراثاً و غیره  
 ۱۲۵۹


Документ об аренде земли. 1892 г.  
 Материалы археографической экспедиции 1976 г.

در رضا جوهر است اکره  
 ۱۲۵۹  
 ۱۲۵۹  
 حیدرآباد  
 بیکرانه خواجگان امیدوار کردید به سید  
 درین آوان خبریت نشان خراج جوهر  
 خراجها در محکوم شما بوده و منصفی  
 و منصفه شدیرا و خواهستونان هر چه  
 باید که خراج جوهر مذکور را متوجه  
 سیدان خواجگان بوده است اخذ نموده  
 بصرف شرکت ریختن میسود مذکور  
 بحق جناب علاء از ۱۲۵۹  
 و عارضه گیرند تا که ثواب او عظیم  
 امید از آنجا که دستم شود خراج مذکور  
 سرشود متوجه در غلاف نوزده ۱۲۵۹

Распоряжение Пулат-хана о передаче налога  
 с владений Абдуллы-бека в пользу вакфных  
 учреждений. 1875 г.  
 ЦГА Узб.ССР, ф. и. 19, оп. 1, д. 34944, л. 3.



Письмо киргизских феодалов Алыбека и Рыскулбека русским властям. 60-е годы XIX в. ЦГА Каз. ССР. Ф. и. 3, оп. 1, д. 484, л. 31.



Одно из вакфных учреждений Кокандского ханства — Ошское медресе. Фото 1962 г.

Handwritten text in Tajik Cyrillic script, likely a deed or document. The text discusses land ownership and donation. A circular stamp is visible in the center. To the left, there is a date: "1283". Below the text, there is a signature in Tajik script and a signature in Cyrillic: "Меромб Нугманов - Вохшатан".

Документ об определении киргизами в вакф Булак-Башинской мечети 1/3 своих земель. 1872—1873 г.  
ЦГА Узб. ССР, ф. и. 19, оп. 1, д. 34970, л. 8.

Handwritten text in Tajik Cyrillic script, detailing a waqf-nama. The text is accompanied by several circular stamps or seals, likely representing official registration or ownership. The document mentions a donation for a madrasa.

Вакф-наме Абдуллы-бека на пожертвование в пользу медресе своего отца Алымбека-датхи. 1875 г.  
ЦГА Узб. ССР, ф. и. 19, оп. 1, д. 34947, л. 2.

میرزا یوزیر ایمنی محموده ایمنه جو امان دفتر یہ عجب اند یک ادخوڑه خود ادخوڑه  
 سفت کتایه نجاریک ایکنجا دغلش ششفتایه یک تلف کس سادق مبرخ طایب  
 کینم با یک تلف یوس تاوردو دفتایکنم با یک تلف از یک دیوانه جبار طایب تلف نور یک  
 با تو رکیتایه یک تلف از زو یک تاوردو دفتایکنم با یک تلف از یعقوب نجاریک  
 تلف میرزا نل تا تو رکیتایه یک تلف یک تلف یک تلف و دفتایکنم با یک تلف از یک تا تو رکیتایه  
 با یک تلف بوده بشر لیکه زمین از این خودها باشد از زو دفتایکنم با یک تلف از دغل کتایه


Тарханная грамота об освобождении от налогов угодий киргизского  
 феодала Абдуллы-бека и его воинов.  
 Из архива кокандских ханов.—ЦГА Узб. ССР, ф. и. 1034, оп. 1, д. 1710.

تجوڑه یک قطعه زمین مشوک و اقصیه است در وضع قولتوغ تخمیناً هر سبعة مرسومه عشرتا تمام مایه بیسته جراه عامه  
 مشوک تمام مایه بیسته جملاً در مشوک با جعفر بیسته جملاً مشوک با جعفر بیسته بیاق و مشوک و شمار تمام مایه بیسته جملاً  
 بیست و پنج در مشوک و شمار بیست و پنج در مشوک و شمار بیست و پنج در مشوک و شمار بیست و پنج در مشوک  
 مجموعاً در مشوک و شمار بیست و پنج در مشوک و شمار بیست و پنج در مشوک و شمار بیست و پنج در مشوک  
 کل را غنیمتین حسین علی انصاری جملاً در مشوک و شمار بیست و پنج در مشوک و شمار بیست و پنج در مشوک  
 تا زبانه مایه بیسته بیست و پنج در مشوک و شمار بیست و پنج در مشوک و شمار بیست و پنج در مشوک  
 بیست و پنج در مشوک و شمار بیست و پنج در مشوک و شمار بیست و پنج در مشوک و شمار بیست و پنج در مشوک  
 اقرار مذکور و کان ذالک بمجلس من احوال و انتفاست

Васіка на продажу киргизами земель в местности Калтуг. 1849-1850 г.  
 ЦГА Узб. ССР, ф. и. 19, оп. 1, д. 33517, л. 16.

معتمد انا رفاصل بهر کای را نمودند آنکه حیتة قلوب  
 در آلائی بود و نسبت جاریک حواری را نشان نمودیم  
 بر سیدته بلا توقف جواب گوید بر شوهر ما لید

Распоряжение бека о доставке зерна в алайскую крепость.  
 Из архива кокандских ханов.—ЦГА Узб. ССР, ф. и. 1034, оп. 1,  
 д. 831.




План киргизско-кокандского укрепления Улуг-Коргон XVIII—XIX вв.  
 Сост. Е. З. Заурова, 1969 г.



Кокандская крепость Кан.  
Фото 1976 г.



Остатки кокандской крепости. Дараут-Курган в Чон-Алас.  
Фото 1976 г.



Кокандское укрепление Куртка.

Рис. с натуры русского топографа 60-х годов XIX в.

